

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI**

BARCHINOY YUNUSOVA

O'ZBEK TILI TARIXI

TOSHKENT – 2023

UO‘K: 811.512.133-70

KBK: 81.633.1

Y -94

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan universitetlarning 60230100 – filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek filologiyasi) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan

Mazkur o‘quv qo‘llanma oliy filologik ta’limning 5111200 – o‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasiga kiritilgan “O‘zbek tili tarixi” fanining namunaviy dasturi asosida yozilgan bo‘lib, u mazkur ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan bakalavriat bosqichi talabalariga mo‘ljallangan. Unda o‘zbek tilining qadimgi taraqqiyot bosqichi, qadimgi turkiy til davrlari, uning fonetik, leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlari kabi masalalar yoritilgan. Ushbu o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda o‘zbek tili tarixi, qadimgi turkiy til bo‘yicha to‘plangan tajribalar, mavjud qo‘llanma va darsliklardagi materiallarga tayanildi.

Mas’ul muharrir:

Abdujabbor Omonov – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent v.b

Taqrizchilar:

Yulduz Ne’matova – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b
Nozima Qazaqova – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

ISBN: 978-9943-9030-1-2

O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 29 sentyabrdagi 438-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

SO‘Z BOSHI

“O‘zbek tili tarixi” fanining asosiy maqsadi o‘zbek tilining bir necha yuz yillik shakllanish va taraqqiy etish dinamikasini kuzatish, eski o‘zbek yozushi, tarixiy grammatika, davrlar osha yetib kelgan qo‘lyozma manbalar va ularning mavjud nashrlaridagi ashyoviy materiallarga suyangan holda fonetik, morfologik, leksik hamda sintaktik xususiyatlari haqida bilim berishdir.

“O‘zbek tili tarixi” fanining vazifalari quyidagilardab iborat:

– talabalarda “O‘zbek tili tarixi” fani tarkibidan o‘rin olgan “Qadimgi turkiy til”, “ O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi” va “O‘zbek adabiy til tarixi”ning vujudga kelishi hamda rivojlanishi bo‘yicha bilimlarni shakllantirish va mustahkamlash;

– VII-X asrlarga oid O‘rxun-Enasoy bitiklari, XI-XIV asrlarda yaratilgan eski turkiy til manbalari hamda XV -XIX asrlarga taalluqli eski o‘zbek adabiy tili yodgorliklari fonetikasi, morfologiyasi, leksikasi va gap qurilishi haqida bilim berishdan iborat.

Mazkur o‘quv qo‘llanma ana shu maqsad va vazifalarni e’tiborga olgan holda tayyorlandi.

Til millatning ulkan boyligi, bebafo mulki ekanligi, milliy til va uning tarixiga yoshlarda yuksak darajada hurmat tuyg’usini shakllantirish hamda rivojlantirish bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko’tarildi. Zeroki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktyabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PF- 5850-sonli Farmoni va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu o‘quv qo‘llanma ma’lum darajada xizmat qiladi.

O‘quv qo‘llanma nazariy va metodik ta’midot qismlaridan tashkil topgan bo‘lib, birinchi qismda qadimgi turkiy til manbalari, davrlari, tilning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari qisqacha tahlil etilib, innovatsion-pedagogik tavsifda mulohazalar bayon etiladi. Ikkinci qismida esa talabalarda nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun qadimgi turkiy til terminlarining izohli lug’ati (glossariy), testlar banki, grafik organayzer ko’rinishidagi ilovalar, foydalanilgan o‘quv-ilmiy adabiyotlar hamda internet saytlari ro‘yxati berilgan.

Ushbu o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda ustoz turkiyshunoslarimiz G‘.Abdurahmonov, A.Rustamov, U.Tursunov, E.Fozilov, S.Mutallibov, S.Ashirboyev, H.Dadaboyev, H.Ne’matov, Sh.Shukurov, I.Qo‘chqortoyev, Q.Mahmudov, B.Isabekov, A.Aliyev, Q.Sodiqov, N.Rahmonov, B.To‘ychiboyev, I.Azimov, va M.Rahmatovlar hamda rus turkiyshunoslaridan A.Kononov, S.Malov, V.Nasilov kabilarning ilmiy asarlaridan, shuningek, internet ma’lumotlaridan foydalanildi.

1-Mavzu: Qadimgi turkiy til yozma manbalari. Grafika.

Reja:

1. O‘zbek tili tarixi fani, uning obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari.
2. O‘zbek tili tarixi fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.
3. Qadimgi turkiy tilning davrlari.
4. Qadimgi turkiy yozuvlar.
5. Turkiy-run bitiklar hamda uyg‘ur yozuvi yodnomalari.

Tayanch tushunchalar: adabiy til, yozuv, turkiy-run bitiklari, uyg‘ur yozuvi yodnomalari, umuxalq tili, turkiy tillarning davrlashtirilishi, oltoy nazariyasi, xun davri, g‘arbiy xun tarmog‘i, sharqiy xun tarmog‘i, qadimgi turkiy til, turkiy tamg‘alar, sug‘d yozuvi, moniy yozuvi.

O‘zbek tili tarixi mustaqil fan sohasi sifatida o‘zbek tilining mohiyati, uning tashkil topishi va rivojlanish bosqichlari to‘g’risidagi fandir. Fanning asosiy maqsadi va vazifasi o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyot yo‘lini tahlil va tadqiq etishdan iborat. “O‘zbek tili tarixi” mustaqil fan sohasi sifatida o‘zbek tilining mohiyati, uning tashkil topishi va rivojlanish bosqichlari to‘g’risidagi fandir. Fanning asosiy maqsadi va vazifasi o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyot yo‘lini tahlil va tadqiq etishdan iborat. O‘zbek tili tarixi fani uch bo‘limni o‘z ichiga oladi: Qadimgi turkiy til, O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi, O‘zbek adabiy tili tarixi. “Qadimgi turkiy til” kursida VI-X asrlarda yaratilgan va bizgacha ytib kelgan turli yozma manbalarning lisoniy xususiyatlari, ularning o‘rganilish tarixi, grafikasi kabi masalalar yoritiladi.

Fanni o‘qitishning vazifalari talabalarda qadimgi turkiy tilning vujudga kelishi va davrlari bo‘yicha bilimlarni shakllantirish va mustahkamlash; oltoy tillari oilasi, turk va mo‘g‘ul tillarining alohida ajralib chiqishi, turkiy tillar tarixida xun davri, qadimgi turkiy til yodgorliklari fonetikasi, leksikasi, morfologiyasi va gap qurilishi haqida bilim berishdan iborat. Qolaversa, bu predmet ko‘k turk yozuvi bitigtoshlari, qadimgi turk-moni yozma yodgorliklari, turk-budda diniy-falsafiy asarlari va ularning til xususiyatlari, qadimgi turkiy yozuvar va ularning imlo qoidalari, qadimgi turkiy yozma manbalar tili va uslubi, ko‘hna yozuvar tarixi haqida tasavvurga ega bo‘lish; til tarixi masalalariga doir metodlarni, kichik matnlarni fonetik, grammatik tahlil qilishni bilishi va ulardan foydalana olish; tarixiy tilshunoslikning nazariy va amaliy masalalarini tahlil qilish, qadimgi turkiy til va uning manbalariga doir ma’lumotlarni hozirgi o‘zbek tili hamda shevalariga qiyoslash, o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyotiga doir ma’lumotlarni umumlashtirish,

o‘zbek adabiy tilining qardosh turkiy tillar bilan munosabatini aniq material asosida yoritish ko‘nikmalarini shakllantirishga ko‘maklashadi.

Qadimgi turkiy til bиринчи navbatda, tarix, xусusan, etnik tarix bilan tutashadi. Turkiy qabilalar o‘rtasidagi farqlar, asosan, ularning tillari orqali aniqlanadi. Demak, qabilalar tarixini yoritishda til muhim omildir. Shu bilan birga, qadimgi turkiy til paleografiya bilan ham aloqador. Qadimgi turkiy yozuvning kelib chiqishi, alifbolaraing turli- tumanligi, boshqa yozuvlarning turkiy-run yozuviga ta’siri kabi masalalarni paleografiya o’rganadi. Qadimgi turkiy til shu davr adabiyoti bilan ham tutashdir. Qadimgi turkiy yodgorliklar ham turkiy xalqlarning ilk yozma adabiyotining, ham qadimgi turkiy tilning manbaidir. Bundan tashqari, qadimgi turkiy til tarixiy geografiya bilan ham tutashdir. Qadimgi turkiy yodgorliklar turli hududlarga tarqalgach, yozuvda ba’zi farqlar paydo bo’ldi, qabilalarning tarixiy taraqqiyotida farqlar yuz berdi. Qadimgi turkiy til falsafa bilan ham tutashdir. Qadimgi turkiy qavmlarning diniy tasavvurlari, dunyoqarashi tangrichilik ta’limotida mujassamlashgan. Bu ta’limotning izlari qadimgi turkiy yodgorliklarda saqlanib qolgan. Kul tigin bitigining bиринчи misrasida aytilishicha, qadimgi turkiylar Tangri(osmon)ni — ota, yerni — ona deb bilganlar. Bundan tashqari, yenisey yodgorliklarda samoviy jismlarni xuddi sharqdagi ossuriylar, bobilliklar, kan’onliklar, amoriylar, pariziylar va boshqa xalqlar kabi xudolar kabi tasavvur qilganlarini uchratamiz. Qadimgi turkiy tilning qadimiy turkiy qabilalar falsafiy qarashlari bilan tutashligi mahsuli sifatida tilga bir qator mifologik nomlar kirib keldi, qadimgi turkiy tilda samoviy jismlarga mifologik mazmun yuklatildi. Inson o‘zini atrof-muhit, tabiat bilan bir deb bilganini, o‘zi bilan tabiat o‘rtasiga chegara qo‘ya bilmaganini qadimgi turkiy yodgorliklardagi tangrichilik ta’limoti asosida bilamiz.

Qadimgi turkiy til davri barcha turkiy urug‘ va qabilalarning umumiyligi tili sifatida V-X asrlarni o‘z ichiga oladi. Qadimgi turkiy til kelib chiqishi va rivojlanishi jihatidan oltoy va xun tili davrlari bilan uzviy bog‘langan. Bu davr tili haqida B.Vladimirsov quyidagi fikrlarni bayon qiladi: «...mo‘g‘ul tili turk va tungus tillari bilan birga o‘zlarining bir umumiyligi ajdodiga ega bo‘lganki, uni shartli ravishda oltoy tili deb atash mumkin. Oltoy tilining rivojlanishi jarayonida tashkil topgan mo‘g‘ul, turk, tungus tillari ma’lum. Bu davr turkiy tillar taraqqiyotining bиринчи, eng qadimgi bosqichi bo‘lib, fanda u oltoy til birligi nomi bilan yuritiladi. Bu davrda hali turkiy tillar mo‘g‘ul tillaridan mo‘g‘ul tillari esa, o‘z navbatida, tungus-manchjur tillaridan ajralib chiqmagan edi, ular bir til birligi sifatida qo‘llanar edi. Shunday qilib, qandaydir eng qadimgi tilning bo‘lganligi taxmin qilinadi. Bu tilga xos umumiyligi leksik, fonetik va grammatik belgi-xususiyatlar esa hozirgi mo‘g‘ul, turkiy va tungus-manchjur tillarida saqlanib qolgan»¹.

¹ Владимирцов Б. Работы по монгольскому языкоznанию. — М.: Восточная литература, 2005. — С 237.

Mutaxassislarining fikricha, qadimgi davrlardan milodiy V asrgacha bo‘lgan muddat “Eng qadimgi turkiy til” davri deb yuritiladi². Adabiyotlarda bu davr oltoy va xun bosqichlariga ajratiladi.

Turkiy tillar oltoy nazariyasiga ko‘ra mo‘g‘ul, tungus-manjur, koreys va yapon tillari bilan birgalikda oltoy tillari oilasini tashkil qiladi. Oltoy tillarini o‘rol tillari (ugor, fin va samodiy tillari) bilan qardosh hisoblovchilar ham bor. Turkiy tillarning ayrim tillar bilan qardoshligi masalasida boshqacha taxminlar ham mavjud. Lekin ko‘pchilik oltoy nazariyasi tarafidoridir³.

Oltoy nazariyasiga ko‘ra turkiy tillarning, jumladan o‘zbek tilining tarixi, oltoy tillarning qadimda bir til bo‘lgan – oltoy davridan boshlanadi. Tarixiy hujjatlarning yo‘qligi sababli bu davrning sanalari noma’lum. Oltoy bobo tili dastlab tungus-manjur va turk-mo‘g‘ul tillariga; turk-mo‘g‘ul tili esa turk va mo‘g‘ul tillariga ajralgan. Shundan so‘ng turkiy tillar tarixida xun davri (miloddan avvalgi III asrdan milodning IV asrigacha) boshlanib turkiy tillar ikki tarmoqqa – sharqiy xun va g‘arbiy xun tillariga bo‘linadi. Turkiy tillar tarixida xun davrining alohida ko‘rsatilishiga o‘sha davrda Markaziy Osiyodan Sharqiy Yevropagacha bo‘lgan hududni ishg‘ol qilgan xun xonligining vujudga kelib keyinchalik uning ikkiga ajralishi asos qilib olinadi.

Tarixiy manbalarda yozilishicha, miloddan avvalgi III asrda turkiy qabilalarining Xun harbiy qabilaviy ittifoqi vujudga kelgan. Uning tarkibiga 24ta qabila birlashgan. Bu qabila birlashmasi davlat sifatida O‘guzxon (mil.avv . 209-174) davrida eng yuqori darajada gullab-yashnagan. O‘g‘uzxon Mo‘g‘ulistondan to Hindistongacha hududlarni, 375-yilda Don daryosidan o‘tib, o‘sha davrlarda Yevropa mamlakatlarini talon-toroj qilib yurgan got qabilalari hududini bosib oladi. Karpat tog‘lari, Kavkazdagi alanlar (hozirgi Ozarbayjon, Osetin) yerlarini egallaydi. So‘ng ikki daryo oralig‘i hamda Kichik Osiyo tomon o‘tadi. 445-yilda Atilla xonligi nomi bilan mashhur bo‘lgan xunlar Sharqiy Rum va G‘arbiy Yevropa yerlarini o‘ziga bo‘ysundirgan. Ma’lumki, deyarli barcha tarixiy manbalarda xunlar turkiy tilda so‘zlashuvchi qabilalardan, turklar esa xunlarning avlodlaridan biri sifatida talqin etiladi. G‘arb tarixchilari turklarni skiflar yoki ularga yaqin urug‘lardan biri, deb qaraydilar. Jumladan, XIX asr olimi Hasan Ato Abushiyning yozishicha, yunon va eron manbalari asosida iskitlar turklardir, ular iskulut yoki iskiflar nomi bilan Turkiston, Yoyiq, O‘rol sohillari, O‘rol tog‘lari, Visla va Edil Dunay daryolariga qadar, Yevropa janubi-sharqiy sahrolari, Qora va Ozoq (Azov) dengizlari shimollari, Kavkaz tog‘lari, Shimoliy Hazar kabi juda ko‘p hududlarda tarqalganlar. Bu qavmga fin urug‘lari ham kirgan. Ular ham turkiy urug‘larga qardosh bo‘lganlar. Turkiy qabila va urug‘lar turli hududlarda yashab

² Sodiqov Q. Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi. – Toshkent, 2006.

³ G‘.Abdurahmonov, A.Rustamov. Qadimgi turkiy til. Toshkent. 1982.

kelganlaridek, ularning nomlari ham turlichay atalgan. Masalan, yunonlar «iskit», iskif», fransuzlar «sikt», ruslar «iskif» (skif) va ba’zilar «sok» (sak). Shu kabi eroniq qavmlari esa «turoniy» deb, yashash yerini esa «Turon zamin» deb ataganlar⁴.

Qadimgi saklar haqida gap ketganda, darhol afsonaviy Shiroq ko‘z oldimizga keladi. Bu dovyurak qahramon bir o‘zi butun boshli Doro lashkarlarini cho‘l-u biyobonda adashtirib, ona-yurti va qabiladoshlarini yovuz dushmanidan omon saqlaydi. Eramizdan oldingi davrdagi turk qavmlari “iskit” nomi bilan yuritilgan. Iskit – iskif degani. Ovrupada esa “skif” deyiladi. Lekin Ovrupa olimlari “skif” nomini turklarga emas, balki g‘arbdagi xalqlar (ukrain va hokazo)ga nisbatan qo‘llaydilar. Umuman olganda esa, hozir bu yo‘nalishda ish olib borayotgan olimlar skiflar va Skifiya masalasi xususida turli fikrlarni aytishmoqda. Ularning ayrimlari Ukraina, Markaziy Rossiya yerlari Skifiya davlati bo‘lgan deydilar. Skiflar kelib chiqishi, shakllanishi jihatidan bitta qabila yoki xalqqa mansub emas. Skif atamasi siyosiy uyushmaga nisbatan qo‘llangan bo‘lishi ham mumkin. Turklearning esa tarixda birinchi davlati sak (iskif) turk davlati deb nom olgan. Sak – iskif turk davlati miloddan oldingi VII – eramizning II yuz yilliklarida yashadi. Bu davlat Afg‘onistonidan Kichik Osiyoga qadar cho‘zilgan hududni o‘z ichiga olgan edi. Sak turklarining ba’zi urug‘lari zamonlar o‘ta brogan sari boshqa xalqlarga chatishib ketgan. Nasimxon Rahmonning “Turk xoqonligi” kitobida va boshqa ayrim manbalarda keltirilishicha, hozir eroniq tilda gaplashuvchi bir tarmoq deb tushunilayotgan pomirliklar asli iskitlardandir. Koshg‘ar va Tyan Shanda yashagan pomirliklar iskiflar bo‘lgan. Tyan Shan turkiyicha Tangri – bo‘ri degani, nomning xitoychasiidir. “Shan”, ba’zilar o‘ylaganidek, “xon” emas, “shan” – bo‘ri degani. Turkylarning eng nufuzli Ashin urug‘i o‘zlarini bo‘ridan kelib chiqqanmiz deyishgan. Xalqlarning bu xil qarashi fanda totem deyiladi. Tyan Shan nomi turkiylarning e’tiqodi (tangri) va kelib chiqishi (bo‘ri)ga ishoradir. Eroniylar skiflarga “sak” otini berishgan. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, eramizgacha VII-eramizning II asrlarida Janubiy Sibiryo, Enasoy daryosi va Irtish daryosi bo‘ylari, hozirgi Majoriston (Vengriya) va Chexoslavakiya, Hazar dengizi bo‘ylari, Eron, Iroq, Suriya va Turkiya davlatlari o‘rnida Sak-iskit turk imperiyasi barpo bo‘lgan edi. Eroniylar o‘zlarini saklarga qarshi qo‘ygan ekanlar, demak, saklar, asosan, turkiylardan tashkil topgan. Chunki sak-iskif turk davlatining asoschisi, bahodir Alp Er To‘nga (eroniylar uni Afrosiyob deb atashgan) o‘ldirilgach, eroniylar o‘scha kuni “saklardan qutilgan kun” deb nishonlaydigan bo‘lishgan⁵.

⁴ U.Sanaqulov. O‘zbek adabiy tili tarixining ilk davrlari. Toshkent. G‘afur G‘ulom nashriyoti-2004, 23-bet.

⁵ Bolta Yoriyev. O‘zbek tili tarixi. Toshkent – 2006, b-6-7.

O‘zbek turkshunos olimlari, jumladan, Q.Mahmudovning ma’lumotlariga ko‘ra, eng qadimgi turkiy tilli elatlar xitoy yozma manbalarida miloddan avvalgi 1756-yildan boshlab xun nomi bilan qayd etilgan. «Turk» so‘zi milodiy V asrdan boshlab uchraydi. Xunlar Markaziy Osiyo, Kaspiy bo‘ylari, Shimoliy Kavkaz va Yevropaning ba’zi hududlarida yashaganlar. Olimning ta’kidlashicha, yozma manbalarda Sharqiy va G‘arbiy Turk xoqonliklarni tashkil etishda turkiy urug‘ qabilalaridan Ashin, Arg‘u , Az, Basmil, Izgil, O‘g‘iz, To‘qqiz o‘g‘iz, Uch o‘g‘iz, O‘n uyg‘ur, O‘tuz tatar, Qarluq, Qurdanta, Kiton, Qirqaz, Tordush, Tatopi (tung‘uzlar), Dulu-Nushub, Tuqri (toharlar), Tolis, Turgan, Tupuri, Turk, Uyg‘ur, Sir, Qo‘rqon, Duba (tuba) kabilar qatnashgan. Miloddan avvalgi 207-yildan to milodiy 216-yilgacha hukmronlik qilgan Ulug‘ Xun sultanati sharqiy va g‘arbiy qismga bo‘linib idora qilingan. 374-yildan to 469-yilgacha Yevropada Badamir (374-400) asos solgan Xunlar sultanati mavjud bo‘lgan va u Attilla (434—453) xunlari deb ham mashhurdir. Attilla juda ko‘p (Sharqiy Rus, Ruminiya, Shimoliy Yugoslaviya, Vengriya, Avstriya, Chexoslovakiya, Sharqiy va O‘rta Germaniya kabi) mamlakatlarni o‘z qo‘l ostida birlashtirgan. Ularning ikkinchi sultanatiga Xunxon asos solgan bo‘lib, Oq Xun, O‘rta Sharq — Xun-Efteliy sulolasi deb ham yuritilgan. Uning tarkibiga Hindistonning yarmi, Afg‘oniston va Turkistonning katta qismi kirgan.

Xun davrida turkiy tillar ham ko‘pgina urug‘ va qabilalarning tillari sifatida mavjud bo‘lgan va ularga xizmat qilgan. Bu davrda ularning r-l tillari (qadimgi avar, bulg‘or va hozirgi chuvashlarning o‘tmishdoshi) hamda z-sh tillariga (qadimgi o‘g‘uz, qirg‘iz, qarluq va qipchoq) ajralishi yuz berdi. Fonetik qurilish va leksikadagi -s/z va l-sh/j tarzida moslashish hodisasining qoldiqlarini hozirgi oltoy va bir qator turkiy tillarda uchratish mumkin. Shu bilan birga, bu davrda mayda turkiy qabilalarning tabaqalanishi va bir-biriga qo‘shilishi, birlashishi jarayoni ham davom etadi. VI asr o‘rtalarida turklar kuchayib, yirik bir qabila ittifoqiga birlashdi, qo‘shti qabilalarni yengib, 552-yilda o‘zlarining mustaqil davlati – turk xoqonligini barpo qildi. 555-yilga kelib, Markaziy Osiyodagi xalqlar Manjuriya va Yenisey qirg‘oqlarigacha bo‘lgan yerlarni o‘zlariga qaratib oldilar. Harbiy va siyosiy qudrati asta-sekin kuchayib borgan turk xoqonligi eftalitlar davlatini tor-mor qildi, Amudaryo va Orolgacha bo‘lgan joylarni, VI asrning 70-yillarida esa Shimoliy Xitoydagi Chjou va Tsi davlatlarini bosib oldi. Xoqonlikning chegarasi Amudaryodan Hindistongacha cho‘zilgan edi. Ammo qabilalar o‘rtasidagi o‘zaro urushlar, Xitoyning kuchayib ketishi va bu urushlarga aralashuvi natijasida VI asrning 80-yillarida turk xoqonligi parchalanib, Sharqiy turk xoqonligi va G‘arbiy turk xoqonligiga bo‘linib ketdi. Sharqiy turk xoqonligi Markaziy Osiyoda o‘z hokimiyatini o‘rnatdi, VII asrning 2-choragida Xitoya qaram bo‘lib qoladi. 681-yilda Bilga hoqon qutlug‘ (Ilterin) va uning maslahatchisi Tonyuquq mustaqillikni

qo‘lga kiritdilar. Sharqiy turk hoqonligining keyingi kuchaygan davri 682-745-yillarga to‘g‘ri keladi. Qapog‘on hoqon (691-716-yillar) davrida turklar Samarqandgacha borib yetdilar. Hoqon Bilga vafoti (734-yil)dan keyin kuchaygan o‘zaro urushlar natijasida Sharqiy turk hoqonligi parchalanib ketdi, 745-yilda esa uyg‘urlar tomonidan bosib olindi. Markazi Yettisuv bo‘lgan G‘arbiy turk xoqonligi esa mustaqil davlat sifatida VII asrning 1-yarmida Sharqiy Turkistondan Kaspiy dengizgacha bo‘lgan yerlarda o‘z hukmronligini o‘rnatdi. Qo‘shni davlatlar bilan savdo-sotiq aloqalari rivojlanadi. Samarqand, Buxoro, Choch (Toshkent), Marv, Chorjo‘y kabi katta shaharlar obod bo‘ladi. Ammo Xitoy va shimoliy qo‘shni davlatlarning hujumi, ichki o‘zaro feodal urushlar natijasida G‘arbiy turk xoqonligi tugatildi. Turklarning bir qismi Sharqiy Turkistonda o‘zlarining ittifoqini barpo qildi, Yettisuv va uning atroflarini esa turgeshlar qo‘lga kiritadi. Keyinroq bu yerlar Oltoydan ko‘chib kelgan qarluqlar qo‘liga o‘tdi. O‘g‘uzlar esa g‘arbgaga tomon yurish qilib, VIII asrda Sirdaryoning quyi qismi, Qoraqumgacha bo‘lgan hududda o‘z davlatlarini barpo qildilar.

Turkiy tillar taraqqiyotining uchinchi bosqichi, ya’ni qadimgi turkiy davrdagi turkiy urug‘ va qabilalar, ularning tillariga oid juda ko‘p yozma manbalar, tarixiy yodgorliklar mavjud. Qadimgi turk yodnomalarining yirik namunalari adabiy til nuqtai nazaridan qaralsa, ularning bir necha turkiy lahjalarni o‘z ichiga olgan adabiy tilda yozilgani ma’lum bo‘ladi. Bu yozma adabiy til ko‘pgina turkiy qabilalar uchun umumiy bo‘lgan og‘zaki adabiy til asosida vujudga kelgan. Mana shu adabiy til **qadimgi turkiy til** deb ataladi⁶.

Jumladan, turk xoqonligi tarkibiga kirgan turkiy urug‘lar va ularning tillari O‘rxun-Yenisey yodgorliklari orqali aniqlangan. Mazkur yodgorliklarning ko‘pchiligi rus olimlari tomonidan topilgan. Bular orasida, ayniqsa, sibirlik o‘lkashunos N.Yadrinsev tomonidan 1889-yilda Mo‘g‘ulistonidagi O‘rxun daryosi bo‘ylaridan topgan yodgorliklar katta ahamiyatga ega. Xuddi shunday yodgorliklarning kattagina bir qismi Yenisey daryosining yuqori qismi va Qirg‘izistonidagi Talas vodiysi, shuningdek, Baykal ko‘li atroflari, Lena daryosi sohillaridan topilgan. Bu bitigtoshlar VII-VIII (ba’zi manbalarda VIII-X asrlar) asrlarga tegishli bo‘lib, turk xoqonligi davrida run yozuvida bitilgan. Ular grafik jihatdan bir-biriga ancha yaqin turadi. Qadimgi turkiy run yozuvi G‘arbiy va Sharqiy turk hoqonligida keng tarqalgan edi. Eramizning 745-yilida turk xoqonligini bosib olgan uyg‘urlar davlati, asosan, ilgari Sharqiy turk hoqonligi tarkibiga kirgan qabilalarni birlashtirgan. G‘arbiy turklarning ajralib ketishi uyg‘urlar davlatini kuchsizlantirdi. Buning natijasida 840-yilda uyg‘ur davlati qirg‘izlar tomonidan bosib olindi. Qirg‘izlar hukmronligi X asrgacha davom etdi. O‘zining birligi, ittifoqini yo‘qotgan ko‘pgina uyg‘ur qabilalari qirg‘izlar

⁶ Э.Р. Тенишев. Отражение диалектов в тюркских-рунических и уйгурских памятников. Ленинград. 1976.

hujumidan keyin g‘arbgan yo‘l olib, o‘z mustaqil davlatini tuzgan, bir qismi esa qarluqlar tomoniga ketgan. Turkiy tillar leksik qatlaminu tadqiq etishda run bitiglari eng qadimiy obidalardan hisoblanadi. Ammo ayrim turkologlar bu yodgorliklarning turkiy tillar uchun “bobo til” sifatida qaralishini ma’qullamaydilar va hozirgi turkiy tillardagi arxaik elementlarning bitigtoshlarda uchramasligini asos sifatida keltiradilar. Bu yodnomalar tilining umumturkiy til emas, balki shu tilning kichik bo‘lagi ekanligini o‘rinli ta’kidlaydilar. Darhaqiqat, yozma manbalar davr tili xususiyatlarini inkon qadar to‘liq aks ettiradi, ammo yodgorliklar tili davr tilining ayni o‘zi emas. Bunda muallifning so‘z qo‘llash mahorati, fikrini to‘liq aks ettira olish qobiliyati, nutqiy imkoniyati ham o‘ziga xos o‘rin tutadi. O‘rxun-enasoy yozma yodgorliklari turkiy tillarning qadimiy xususiyatlarini mukammal aks ettira olmasa-da, turkiy tillarning tarixiy taraqqiyot bosqichiga oid muhim manba sifatida ahamiyatlidir.

Hozirgacha fanga ma’lum qadimgi turkiy til manbalari turk-run, qadimgi uyg‘ur, sug’d, moniy, braxmiy, suryoniy kabi yozuvlarda yozilgan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, turkiy xalqlar qadimdan o‘z yozuviga ega bo‘lganlar. 245-250 yillarda Kambodjaga safar qilgan Xitoy elchisining qaydlarida shunday deyiladi: «Ular o‘z kitoblariga ega bo‘lib, ularni arxivda saqlaydi. Ularning yozuvi xun yozuviga o‘xshaydi». Hozirgi tilshunos va tarixchi olimlar xunlarni til jihatidan tungus yoki mo‘g‘ul emas, balki turk deb ko‘rsatadilar. Boshqa bir Xitoy tarixchisi Chjoushu solnomasida «Tukyularning (ya’ni, turklarning) yozuvi xu xalqining (ya’ni, sug‘dlarning) harflariga o‘xshab ketadi» deb yoziladi. VI asrda yashagan suryoniy solnomanavis Zahariya Ritor ham xunlarning (turklarning) yozuvi haqida xabar beradi. Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit-turk» asarida (XI asr) uyg‘ur yozuvidan tashqari yana bir turkiy yozuv haqida ma’lumot beradi: «Ular (uyg‘urlar) yozuv uchun 24 harfdan iborat bo‘lgan turkcha (qadimgi uyg‘ur) alifboden foydalanadilar. Bundan tashqari, uyg‘ur va xitoyliklarning yana bir yozuv turi bor. Ish qog‘ozlarini ushbu yozuv bilan yozadilar. Bu yozuvni musulmon bo‘lmagan uyg‘urlar va xitoyliklardan boshqa hech kim o‘qiy olmaydi». Koshg‘ariy bu o‘rinda turk-run yozuviga ishora qilmoqda. Faxriddin Muborakshoh Marvarudiy (XII asr) ham «to‘quz-o‘g‘uz yozuvi» nomi bilan turk-run yozuvi haqida ma’lumot beradi. Fors tarixchi va sayyohi Aloiddin Atomalik Juvayniy o‘zining «Tarixi jahongushiy» asarida (1260 yilda yozib tugatilgan) qadimgi uyg‘ur xoqonligining poytaxti O‘rdubaliq shahri xarobalarini tasvirlar ekan, yozuvlari o‘yib yozilgan kesmatoshlar ko‘rganini va ularni hech kim o‘qiy olmasligini yozadi. Mashhur filolog Ibn Arabshoh (1389-1450) «Ajoyibul-maqdur fi navoyibi Taymur» nomli asarida Xitoyda turklarning «dulbarjin» degan yozuvini ko‘rganini va qirq bitta harfdan iborat ekanini yozadi.

Turkologlarning fikricha, yuqoridagi barcha faktik ma'lumotlarda turk-run yozuvi haqida gap ketgan.

Turk-run yozuvi ilmiy adabiyotlarda “O’rxun yozuvi”, “O’rxun-Enasoy yozuvi”, “Enasoy-O’rxun yozuvi”, “Sibir yozuvi” kabi turli nomlar bilan atab kelinadi. Bu yozuvning kelib chiqishini A.A.Shifner, H.Vamberi kabi ba’zi olimlar turkiy tamg‘alarga bog‘laydi. Aksar turkologlar turk-run yozuvining kelib chiqishini oromiy yozuvi bilan bog‘laydilar. Bunda O’rta Osiyodagi eroniy xalqlar qo‘llagan hamda asli oromiy alifbosi asosida shakllangan pahlaviy, xorazm va sug‘d yozuvlarining turkiy xalqlar tomonidan o‘zlashtirilishi bilan turk-run yozuvining vujudga kelgani ta’kidlanadi. Biroq turk-run yozuvining shakllangan davri va o‘rni haqida hozirgacha aniq fikr aytilmagan.

Hamma yozuvlarda bo‘lganidek, dulbarchin yozuvi ham zamoni va Makoni bilan bog‘liq bo‘lgan ayrim shakily farqlar tufayli o‘rxun, turfon, yenisey variantlariga ega⁷. Bularning eng qadimiysi o‘rxun variantidir.

Turk-run yozuvidagi yodgorliklar geografik jihatdan bir necha arealga ajratiladi. Ular o‘rtasida oz bo‘lsa-da areallararo juz’iy grafik, fonetik va grammatik xususiyliklar ham uchraydi.

1. O’rxun yodgorliklari: Ungin yodgorligi (N.M.Yadrinsev, 1891), Kul tegin yodgorligi (N.M.Yadrinsev, 1891), To’nyuquq yodgorligi (E.N.Klemens, 1897), Kuli-chur yodgorligi (V.L.Kotvich, 1912), Mo’yun-chur yodgorligi (G.I.Ramstedt, 1909), Suji yodgorligi (G.I.Ramstedt, 1913).

2. Enasoy yodgorliklari: Enasoy daryosi havzasi, Tuva, Xakasiya va Minusinskdan topilgan 85 ta yozuv namunalari. Ular yozilgan davrni olimlar har xil ko’rsatadi. V.V.Radlov VII-VIII, P.M.Melioranskiy VI-VII, S.E.Malov V-VI, L.R.Qizlasov IX-X, A.N.Kononov IX-X asrlarda yozilganini ta’kidlaydi.

3. Sharqiy Turkiston yodgorliklari: Turfondagi qadimgi bino devorlarida to‘rtta yozuv namunasi, Miron va Dunxuandan topilgan qog‘ozga yozilgan bir necha matn («Irq bitigi» - «Folnoma» ham shular jumlasidan).

4. Talas yodgorliklari: Qirg‘izistonning Talas vodiysidan topilgan o‘n ikkita yozuv namunasi.

5. Farg‘ona yodgorliklari: Koshin va metallga yozilgan qisqa yozuv namunalari.

Turk-run yozuvining 40 dan ortiq shakllari bor. Alifboda unlilar soni 4 ta, Enasoy variantida 5 ta. Aksar undoshlarning alohida xususiyati shundaki, ular qattiq va yumshoq (velyar va palatal) shakllarga ega bo‘lgan. Bularidan faqat p, ch, z, sh, m undoshlarini ifodalovchi harflardagina bunday holat kuzatilmaydi. Yana bir jihat, ba’zi harflar bir necha tovushlar birikmasini ham ifodalaganlar Masalan, ny, ng, nt, nch, lt, rt, ik, ki, uk, ku, iq, qi, uq, qu, o‘k, o‘q kabilar. Yozuvning grafik

⁷ Abdurahmonov G., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. – T.: O‘qituvchi, 1982.

xususiyatlari shuki, harflar o‘ngdan chapga qarab yozilgan. Ular o‘zaro ulanmaydi. Manbalarining yozilish hududi va davriga qarab harflarning grafik variantlashuvi juda kuchli. Masalan, palatal b, velyar t, m, palatal n, q, uk, g‘, ng, nch, nt, z, velyar s kabi harflarning ko‘plab shakli variantlari mavjud.

Qadimgi uyg‘ur yozuvi kelib chiqishi jihatidan fonografik yozuv bo‘lgan oromiy yozuvi bilan bog‘lanadi. Uyg‘ur yozuvi eramizning V-VI asrlarida qadimgi so‘g‘d yozuvi asosida shakllangan. M.Koshg‘ariy va A.Navoiyalar bu yozuvni “turkcha xat” deb ataganlar. XVIII asr fors shoiri Puri Bahoiy “uyg‘ur xati” deydi. Ibn Arabshoh ham “uyg‘ur xati”, ham “mo‘g‘ul xati” deb nomlagan. Bu yozuvda bitilgan aksar manbalar qadimgi turkiy til davriga oiddir. Qisman esa arab yozuvi qo‘llangan davrda ham parallel ravishda iste’molda bo‘lgan. Bu yozuvdagi manbalar tematik jihatdan rang-barang bo‘lgan. Adabiy, diniy, falsafiy, tarixiy, ilmiy, huquqiy mavzulardagi manbalar saqlanib qolgan. Bu yozuv O‘rta Osiyoda XV asrgacha qo‘llangan bo‘lsa, budda diniga e’tiqod qilgan turkiy xalqlar orasida XVIII asrgacha iste’molda bo‘lgan. Qadimgi uyg‘ur xatida qadimgi turkiy til davridan keyingi davrlarda “Qutadg‘u bilig”, “Hibatul haqoyiq”, “Muhabbatnama”, “Tazkiratul avliyo”, “Me’rojnama” kabi ko‘plab asarlar ham ko‘chirilgan.

Mazkur alifboda 18 harf belgi bo‘lgan. M.Koshg‘ariy bu harflarni o‘zak harflar deb nomlaydi. Hamda yana 7 ta tovush uchun alohida harflar yasalishini ham uqtiradi. Bularni esa tarmoq harflar deb nomlaydi. M.Koshg‘ariy alohida shaklga ega bo‘lgan harflarni o‘zak harflar, yozuvda alohida shaklga ega bo‘lмаган tovushlarni tarmoq harflar deb ataydi. Tarmoq harf – yozuvda maxsus harf bilan ko‘rsatilmaydigan tovush⁸. Uyg‘ur yozuvi so‘g‘d yozuvidan va so‘g‘d yozuvi oromiy yozuvidan paydo bo‘lganligi uchun, o‘rxun yozuviga nisbatan turkiy tillarning fonetik xususiyatini o‘zida yaxshi aks ettirmagan. Qadimgi uyg‘ur yozuvi grafik xususiyatlariga ko‘ra arab yozuviga o‘xshab ketadi. Harflar o‘ngdan chapga qarab, o‘zaro ulanib yoziladi. Harflarning turli pozitsion shakllari mavjud.

Sug‘d yozuvi miloddan avvalgi III asrlarda oromiy xati negizida shakllangan bo‘lib milodning XI asriga qadar sug‘dlarning milliy yozuvi sifatida amal qilgan. Uzoq tarixiy birodarlik, qo‘sningchilik va birga yashash ta’sirida ushbu yozuv turkiy xalqlar uchun ham xizmat qila boshlagan. Turkiy xalqlar orasida keng qo‘llangan uyg‘ur yozuvi ham ana shu xat negizida shakllandи.

Moniy yozuvi alifbosi moniychi turklar orasida amal qilgan. Milodiy 247-yii Eronda Moniy boshchiligidagi yangi diniy oqimga asos solindi va o‘scha kezlardan boshlab Shom (Suriya)ning Palmira shahrida qo‘llanilgan yozuv shakli asosida tuzilgan moniy yozuvi ham amal qila boshladи. Keyinchalil ushbu yozuv moniy dini bilan birga Q‘rta va Markaziy Osiyoga ham kirib keldi. Eramizning III

⁸ Abdurahmonov G., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. – T.: O‘qituvchi, 1982.

asrida moniylik uyg‘ur xoqonligining davlat dini sifatida amal qilgan chog‘larda bu yozuv ham turklar orasida keng yoyildi. Moniy mazmunli turkiy yodgorliklar bizgacha ikki – moniy va uyg‘ur yozuvlarida yetib kelgan.

Qadimgi turkiy tilning run yozuvida bitilgan namunalari quyidagilardir:

1. Kultegin bitigi. Bu bitiktosh ikkinchi turk xoqonligi asoschisi Eltarish xoqonning kichik o‘g‘li Kultegin sharafiga qo‘yilgan. U 731-yilda 47 yoshida vafot etgan. Yodgorlik uning akasi Bilga xoqon tomonidan 732-yilda o‘rnatalgan. Matn muallifi esa Eltarish xoqonning o‘g‘li Yo‘llug‘ tegin. Bitigtosh Mo‘g‘ulistonning Kosho-Saydam vodiysida O‘rxun daryosining qirg‘og‘idan topilgan. Hozir ham o‘rnatalgan joyida turibdi. Yodgorlikdagi asosiy matn turkiy tilda. Ters yuzida xitoycha matn ham bor. Turkiysi urxun-yenisey xatida yozilgan.

2. Bilga xoqon bitigi. Bilga xoqon ikkinchi turk xoqonligi asoschisi Eltarish hoqonning to‘ng‘ich o‘g‘li. U 734-yilda 50 yoshida vafot etgan. Yodgorlik toshi 735-yildauning o‘g‘li Yo‘llug‘ tegin tomonidan o‘rnatalgan.

3. To‘nyuquq bitigi. Mazkur yodgorlik ikkinchi turk hoqonligi davrida yashab o‘tgan davlat arbobi va sarkarda To‘nyuquq xotirasiga tiklangan. Bitig muallifi To‘nyuquqning o‘zidir. U. Sertkayaning fikricha, bitig taxminan 732-734-yillar oralig‘ida yozilgan. To‘nyuquq shu kezda 85 yoshda bo‘lgan. Yodgorlik Mo‘g‘ulistonning Bain Sokto manzilida topilgan. Hozir ham tiklangan joyida turibdi. U 62 satrli bo‘lib, bir-biriga qaratib tiklangan ikki to‘rt qirrali toshga yozilgan.

4. Kulichur bitigi. Bitiktoshni 1912-yilda polshalik professor V.Kotvich Mo‘g‘ulistonning Ulan-Bator yaqinidagi Ixe-Xushotu manzilidantopgan va uning matnini A.Samaylovich bilan birga 1928-yilda nash etgan. U Kulichur sharafiga tiklangan bo‘lib, sanasi aniq emas. Tardush elini boshqargan Kulichur ikkinchi turk xoqonligida yashagan mashhur kishilardan sanalgan. Uning ismi Bilga xoqon bitigida ham tilga olinadi. Yodnomadagi yozuv toshning uch tomoniga bitilgan bo‘lib, jami 29 satrni tashkil etadi. Kulichur 731-yilda vafot etgan deb taxmin qilinadi.

5. O‘ngin bitigi. Bitiktosh Mo‘g‘ulistonning O‘ngin vodiysidan topilgan. Hozir ham o‘rnatalgan joyida turibdi. Yodgorlik VIII asrning birincni yarmida, taxminan, 732-yilda tiklangan. J.Klosonning yozishicha, bitig sarkarda Alp Eletmish xotirasiga tiklangan⁹.

6. Moyunchur bitigi. Bu bitigni fin olimi G.I.Ramstedt 1909-yilda Shimoliy Mo‘g‘ulistonda Selenga daryosi va Shineusu ko‘liga yaqin yerda topgan. Bitig va uning tarjimasini 1913-yilda nashr ettirgan. Bitiktosh 759-yilda qo‘yilgan deb taxmin qilinadi.

⁹ Sodiqov Q. Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi. – Toshkent, 2006. – B. 6-7..

7. Yenisey bitiglari. Oltoy o‘lkasi va Yenisey daryosi teveragida topilgan ko‘k turk yozuvidagi yodgorliklar “yenisey bitiglari” deb yuritiladi. Ularning soni ko‘p, lekin hajman katta emas. Yiriklari 15-16 qatorli bo‘lib, qabr toshlariga bitilgan.

8. Irq bitigi ko‘k turk xatidagi yaxlit kitob holida saqlangan. Qadimgi turkiy tilda ïrq – “fol”, ïrq bitig “fol kitobi” degan ma’noni anglatadi. Manbani A.Steyn Xitoydagi Dunxuan yaqinidagi “Ming budda g‘ori” nomli ibodatxonan xizmatchisidan Londonga olib kelgan. Asarni dastlab V. Tomsen 1912-yilda nashr etgan¹⁰. Asar 65 bo‘limdan iborat. Unda tush ta’birlari turli hayvon va qushlarning obrazlari, har xil voqealar bilan bog‘lab bayon etiladi.

9. Suja bitigi Mo‘g‘ulistonidagi Suja dovonining janubidan topilgan. Bitig ko‘k turk yozivida bo‘lib, IX asrda ko‘chirilgan.

Ikkinchi davrga tegishli yodgorliklarga esa sug‘d yozuvi asosida shakllangan uyg‘ur yozuvida bitilgan matnlar kiradi. Ular turli mazmundagi va til xususiyati jihatidan ham har xil bo‘lgan asarlar, hujjatlardan (moniy), buddaviy va xristian yodgorliklari deb qaralsa ham, bir umumiy nom bilan uyg‘ur yozuvi yodgorliklari deb yuritiladi. Uyg‘ur yozuvida bitilgan yodgorliklarning eng muhimlari quyidagilardir:

1. “Xuastuanift” (moniyarning tavbanomasi) moniylik dinining falsafiy asari, o‘n besh bo‘limdan iborat. Ilk o‘rta asrlarda asarning eroni, sug‘diy, turkiy, xitoycha versiyalari keng tarqalgan. Bu yodgorlikning turkiy versiyalari uyg‘ur, moniy yozuvida bo‘lib, ular Sankt-Peterburg, Berlin va Londonda saqlanadi. Turfondan topilgan Sankt-Peterburg nusxasi uyg‘ur yozuvida, Turfondan va «Ming budda g‘ori» ibodatxonasidan topilgan Berlin va London nusxalari moniy yozuvida bitilgan. Bu yodgorliklarni 1910-1911-yillarda ingliz olimi Le Kok Berlin, Londonda, 1963-yilda L.Dmitriyeva lotin alifbosida ruscha tarjimasi bilan nashr ettirgan. Olimlarning fikricha, asar qadimgi eroni tillarning birida yaratilgan. Keyinchalik moniy ta’limotini yoyish maqsadida boshqa tillarga o‘girilgan. Uning turkiy versiyasi, taxminan, VIII asrda yaratilgan. Asar tilining ko‘k turk yodgorliklari tiliga yaqinligi, uyg‘ur yozuvli nusxaning xat uslubi, shuningdek, asarning moniy yozuvida ham tarqalganligi ana shundan guvohlik beradi.

2. “Maytri simit no‘m bitig” (Maytri bilan uchrashish kitobi). Turk-budda diniy-falsafiy yodgorliklaridan biri, asli sanskrit tilida yaratilgan. Buddha ta’limotining bilimdonlaridan biri Arya chantri sanskritcha nusxadan tohar tiliga o‘girgan. Toharchadan Partanarakshit Karnavajiki qadimgi turkiy tilga tarjima qilgan (VIII asr). Tohar tilidagi brahma xatida yozilgan ikki nusxasi Qorashaharda,

¹⁰ Abdurahmonov G., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. – T.: O‘qituvchi, 1982. – B. 4-5..

uyg‘ur xatidagi turkiy versiyalari Turfonda topilgan. Ular hozir Berlin va Urumchi qo‘lyozma fondlarida saqlanmoqda.

3. “Oltin yoruq”. Asli qadimgi hind-sanskritcha «Suvarnaprabhasa» (oltin jilo). Budda diniga oid bo‘lgan sutra (muqaddas kitob)ning turkiy tarjimasi bo‘lib, qisqacha «Oltunyoruq» nomi bilan yuritiladi. Udastlab tabg‘ach (xitoy) tiliga, xitoy tilidan X asrda beshbaliqlik Singku Seli Tutung tomonidan qadimgi turkiy (turk uyg‘ur) tiliga o‘girilgan. Bizgacha uning 10 ga yaqin nusxasi etib kelgan. 1910-yili S.E.Malov Suchjou shahriga yaqin Vungshagudan topgan va 1913-1917-yillarda nashr ettirgan (V.V.Radlov bilan birga) nusxa boshqalarga nisbatan mukammalroq bo‘lib, Sankt-Peterburgda saqlanadi.

4. “Syuan-szan kechmishi” budda muhitida yaratilgan asarlardan biri, uning xitoycha va qadimgi turkiy versiyalari mavjud. versiya uyg‘ur xatida bo‘lib, hozirda bo‘laklarga bo‘lingan holda Parij, Pekin, Sankt-Peterburgda saqlanmoqda. Asarni X asrda yashagan olim va tarjimon beshbaliqlik Shingqu Sheli qadimgi turkiy tilga tarjima qilgan. “Syuan-szan kechmishi” Tan sulolasini davrida yashagan sayyoh Syuan-szanning budda yashagan o‘lkalarga safari xususidagi memuar bo‘lib, o‘zida o‘nlab afsona va rivoyatlarni, budda falsafasi, qadimgi Sharq xalqlarining ijtimoiy-siyosiy, madaniy turmushi, ular yashagan mamlakatlar geografiyasi, tarixiga oid ma’lumotlarni jamlagan. O‘z zamonasining mashhur buddashunosi, ulug‘ ustoz nomini olgan Syuan-szan (turkiy matnda Xuintso) budda yo‘riqlari, qonun-qoidalari bitilgan bitiglarni olib kelish maqsadida Hindistonga safar qilgan. U 17 yil (629-645) davomida 120 dan ortiq o‘lkalarda bo‘lgan.

5. “Sekiz yukmak”. Turfondan topilgan bu yodgorlik matnini nemis olimlari V.Bang, A.Fon Gaben va turk olimi G.R.Rahmatiyalar 1934-yilda Berlinda nashr ettirganlar. Bulardan tashqari, uyg‘ur yozuvida yozilgan bir qancha obidalar, turli afsonalardan olingen parchalarning matnlari bitilgan yodgorliklar bor. Shuningdek, VIII-X asrlarga va keyingi davrlarga oid juda ko‘p uyg‘urcha yuridik-huquqiy hujjatlar ham mavjud. Bu yodgorliklarda ham adabiy til, ham xalq so‘zlashuv tili xususiyatlari aks etgan.

G‘arbiy turk hoqonligi davri (VI-VIII asrlar)da turkiy qabilalar o‘troqlasha boshladi. O‘troqlashgan turklar shaharda hunarmandchilik, savdo-sotiq bilan shug‘ullanadi, cho‘l va qishloq joylarda esa dehqonchilik qiladi. Buning natijasida turkiy qabilalarning etnik jihatdan o‘zaro yaqinlashuvi va fors tillarida so‘zlashuvchi xalqlar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalari kuchayadi. VIII asrda G‘arb va Janubda – Movarounnahr hududi (Samarqand, Buxoro, Choch, Farg‘ona, Xorazm)da yashagan aholi va sug‘diy-eroniy xalqlar arablar tomonidan bosib olindi, Abbosiylar xalifaligiga qaram bo‘lib qoladi. Bu yerdagi xalqlar esa islom dinini qabul qiladi. Bu tarixiy hodisa Movarounnahrda yashagan xalqlarning,

shu jumladan, turkiy xalqlarning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga, fan va adabiyotning rivojiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, IX asrning 2-yarmidan, Somoniylar davridan boshlab turkiy xalqlarning ijtimoiy-siyosiy hayotida jiddiy siljishlar sodir bo'ldi. Jumladan, urug'-qabilachilik munosabatlari kuchsizlanadi, feodal munosabatlar rivojlanib bordi. Shu asnoda turk xoqonligi davrida turkiy qabilalar to'liq tabaqalanadi. Markazlashish, o'zaro birlashish jarayonida qo'shilish va ajralib ketish asosida rivojlangan turkiy tillar uyg'urlar hukmronligi davrida umumturkiy adabiy til sifatida shakllandi. Bu adabiy tilning tashkil topishida qarluq-chigil tillari, shuningdek uyg'ur tili asos sifatida qatnashdi, uning taraqqiyotiga ma'lum darajada ta'sir qiladi. X-XII asrlarda Qoraxoniylar hukmronligi davrida qo'llangan, ma'lum darajada me'yorga solingan turkiy adabiy til qisman o'g'uz-qipchoq tillari xususiyatlarini ham o'z ichiga olar edi. Eski o'zbek adabiy tilining xalq tili sifatida shakllanish davri ham mana shu vaqtлага to'g'ri keladi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. "Eng qadimgi turkiy til" va "Qadimgi turkiy til" davri qaysi asrlarni o'z ichiga oladi?
2. O'rxun-Yenisey yodgorliklariga qaysi manbalar kiradi?
3. Ko'kturk xatidagi yaxlit kitob holida saqlangan asar?
4. Ko'k turk yozuvining ildizi qaysi davrlarga tutashadi?
5. O'rta va Markaziy Osiyoda yashaydigan qaysi xalqlar "turkiy xalqlar" nomi bilan yuritiladi?

Test sinovi:

1. Oltoy, xun bosqichlari qaysi til davriga mansub?
A) Qadimgi turkiy til;
B) Eng qadimgi turkiy til;
C) Eski turkiy til;
D) Eski o'zbek adabiy tili.
2. "Xuastuanift" (moniylarning tavbanomasi)ning Turfondan topilgan Sankt-Peterburg nusxasi qaysi yozuvda?
A) so'g'd yozushi; B) ko'k turk yozushi;
C) uyg'ur yozushi; D) moniy yozushi.
3. Ko'kturk xatidagi yaxlit kitob holida saqlangan asarni toping?
A) "Irq bitigi"; B) To'nyuquq bitigi;
C) "Xuastuanift"; D) "Syuan-szan kechmishi".
4. So'g'd yozushi qaysi alifbo asosida shakllangan?
A) sanskrit; B) runiy;
C) oromiy; D) moniy.

5. Qadimgi turkiy til davri qaysi asrlarni o‘z ichiga oladi?

- A) V-VI asrlar; B) VIII-XII asrlar;
C) I-V asrlar; D) V-X asrlar.

MAVZU UCHUN TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonov G’, Rustamov A. Qadimgi turkiy til. -T., 1982. - 182 b.
2. Aliyev A., Sodiqov Q. O ’zbek adabiy tili tarixidan. -T., 1994. - 96 b.
3. Abdurahmonov N. Qadimgi turkiy til. - T., 1989.
4. Azimov I., Rahmatov M. Qadimgi turkiy til. (O’quv-metodik qo’llanma). - Toshkent: Nizomiy nomidagi ТДПУ, 2005. - 136 б.
5. Насилов В.М. Древнеуйгурский язык. - М., 1963. - 147 с.
6. Насилов В.М. Язык Орхено-Енисейских памятников. -М.,1960.
7. Кононов А.Н. Грамматика языка тюрско-рунических памятников. - Л.,1980.
8. Малов С.Е. Памятники древнетюрской письменности Монголии и Киргизии. М-Л., 1959. - 142 с.
9. Sodiqov Q. Uyg’uryozuv tarixidan. - T, 1997.
10. Qo’chqortoyev I., Isabekov B. Turkiy filologiyaga kirish. -Toshkent: O’qituvchi, 1984. - 112 b.

2-Mavzu: Qadimgi turkiy til fonetikasi: unli va undoslar tizimi.

Reja:

1. **Qadimgi turkiy tilning fonetik xususiyatlari.**
2. **Unlilar tizimi.**
3. **Qadimgi turkiy tildagi fonetik qonuniyatlar.**
4. **Singarmonizm hodisasi va uning turlari.**
5. **Undoshlar tizimi, ularning artikulyatsion va akustik xususiyatlari.**
6. **Fonematik oppozitsiyalar.**

Tayanch tushunchalar: Fonetika, unli, undosh, fonetik qonuniyatlar, singarmonizm, qalin unlilar, lablangan unlilar, tor unlilar, lab undoshlari, sonor undoshlar, til undoshlari, singarmonizm, tanglay uyg‘unligi, lab uyg‘unligi.

Tilimiz tarixining qadimgi davr xususiyatlarini o‘rganishni amaliy ravishda boshlab bergan Mahmud Qoshg‘ariy qadimgi va eski turkiy til fonetik xususiyatlarini ham atroflicha yoritib bergan. M.Qoshg‘ariy o‘z davri turkiy til shevalarini solishtirar ekan, ular o‘rtasidagi fonetik differensiatsiyaga

(farqlanishga, ajralishga) e'tibor qiladi. Sharqiy Turkistondagi qarluq qabilalari ittifoqiga kirgan chigillar haqida shunday misollar keltiradi: ayaq - azax, qarin to'ysi - harin to'zdi. Bunda y-z tovushlari mosligini ta'kidlamoqda. Shuningdek, M.Qoshg'ariy o'z davri unlilarini qadimgi turkiy tilning barcha manbalariga xos bo'lganidek, qator, tor-kenglik, lablanish-lablanmaslik belgilariga ko'ra farqlagan. Keyingi davrda qadimgi turkiy til davri yozuv yodgorliklarining fonetik xususiyatlarini o'rganish, barcha tomonlarida bo'lganidek, V.Tomsen, V.V.Radlov, H.Vamberi, P.M.Melioranskiy, V.Bang kabi olimlar tarafidan yangi bosqichda davom ettirildi. Qadimgi turkiy til manbalarining fonetik-grammatik xususiyatlarini o'rganishda A.M.Shcherbak, V.G.Kondratyev, A.S.Amanjolov, N.K.Antonov, G.Aydarov, D.M.Nasilov, A. Gaben, H.N.Orkun, A.J.Emre, T.Tekin, o'zbek olimlaridan G'.Abdurahmonov, A. Rustamov, E.Fozilov kabilarning katta ilmiy xizmatlari alohida tahsinga loyiq.

Qadimgi turkiy til fonetik xususiyatlari haqida gap ketganda, avvalo, bu davrga kelib differensiatsiyalangan mazkur turkiy xalqlar orasidagi ayrim tovush mosliklari to'g'risida gapiriladi. Hamda qadimgi turkiy til yodgorliklari asosan **D** undoshi xususiyatiga ega bo'lgani aytildi. Turkiy tillar tarixiy taraqqiyotini ham o'zida aks ettirgan undoshlar mosligini quyida ko'ramiz. Asos o'rtasi va oxirida R-D/T-Z/S-Y undoshlari mosligi. Masalan: adaq (hozirgi tuva tili), ataq (hozirgi yoqut tili), azaq (qadimgi chigel, hozirgi xakas va shor tillari), ayaq (hozirgi g'arbiy turkiy tillar), ura (qadimgi bulg'or, hozirgi chuvash tillari).

N.A.Baskakovga ko'ra, turkiy tillarda R xususiyati oltoy davriga oid. T/D, S/Z/DZ xususiyatlari xunn davrida shakllangan. Y xususiyati esa o'rta turk davrida vujudga kelgan. Ya'ni, R-D/T-S/Z/DZ-Y ketma-ketligida rivojlangan.

A.M. Shcherbak fikricha, turkiy tillardagi Y, T, Z, R xususiyatlar yagona umumiyy DZ tovushidan bir davrda teng shakllangan.

A. A. Serebrennikov esa umumiyy DZ tovushidan D, Z, Dy tovushlari rivojlanadi. So'ngra D-T, Z-R, Dy-Y o'tishi sodir bo'lган deydi.

Qadimgi turkiy yozuv yodgorliklarining o'zaro fonetik-grammatik jihatlardan farqlanishi asosida ularni ayrim dialektlarga ajratish zarurati paydo bo'ldi. V.V.Radlov qadimgi turkiy tilni uchta dialektga ajratadi.

Shimoliy dialekt turk-run yozuvi yodgorliklari uchun xos ekanini; janubiy dialekt uyg'ur yozuvida bitilgan Suji, Selenga va Turfon yodgorliklari uchun xos ekanini; aralash dialekt uchun esa moniy yozuvidagi turkiy yodgorliklar, uyg'ur yozuvidagi moniy dini yodgorliklari, «Qutadg'u bilig» asarining arab yozuvidagi Qohira nusxasini, uyg'ur yozuvida bitilgan budda dini yodgrliklari «Oltin yoruq», «Tishastvustik», «Kuan-shi-im-Pusar» kabi manbalar tili xos ekanini aytadi.

Qadimgi turkiy tilda sakkizta unli fonema mavjud bo'lib, ular bir-biridan qatori, tor-kengligi, lablanish-lablanmasligiga ko'ra farq qiladi. Bularidan **a**, **ы**, **о**, **у**

orqa qator va **a**, **i**, **o**, **u** old qator unlilaridir. Keng unlilar **a**, **a**, **o**, **o**, tor unlilar **ы**, **i**, **u**. Lablanmagan unlilar **a**, **e**, **ы**, **i**, lablangan unlilar **o**, **o**, **u**, **u**.

a (qalin) lablanmagan keng va orqa qator: a lablanmagan, keng, lekin old qator unlidir. Bu unlining talaffuzi qozoq, qirg‘iz va boshqa ko‘pgina turkiy tillarda hamda o‘zbek tilining singarmonizmli lahja va shevalarida saqlangan.

ы unlisi lablanmagan, tor va orqa qator: i ham lablanmagan, tor, lekin old qator unlidir. Bu ikki unli fonema hozirgi o‘zbek adabiy tilida va singarmonizmsiz lahja va shevalarda ы ning oldinga siljishi natijasida konvergensiya uchragan, ya’ni bir fonema (i) ga aylangan.

о (qalin) unlisi lablangan, keng va orqa qator, **о** ham lablangan, keng, lekin old qator unlidir. Bu ikki fonema ham hozirgi o‘zbek adabiy tili va singarmonizmsiz lahja va shevalarda о ning oldinga siljishi natijasida konvergensiya uchrab, bir fonema (o) ga aylangan.

у unlisi lablangan, tor va orqa qator: u ham lablangan, tor, lekin old qator unlidir. Bu unlilarning ham hozirgi holati o va o unlilarnikidagi singari. Qadimgi turkiy tilda ham u va u alohida fonemadir.

Hozirgi **о** unlisini qadimgi turkiy tilda a unlisini ifodalagan. Masalan, hozirgi bosh so‘zi bash, qor so‘zi qar tarzida talaffuz etiladi. **A** unlisi esa hozirgidek mustaqil fonema bo‘lmasdan, e ning varianti sifatida talaffuz qilinadi. Masalan, al- el. Lekin hozirgi tilda **e** mustaqil fonemaga aylangan: kal kel: bari beri: kar ker: bar ber.

Undoshlar, qadimgi turkiy tilda **b**, **m**, **p** lab undoshlari mavjud bo‘lgan. Sirg‘aluvchi lab undoshi **f** yo‘q. Urxun yozuvida **v** uchun maxsus harf yo‘q. Uning o‘rnida **b** ni bildiruvchi harf ishlatiladi. Uyg‘ur yozuvida esa **v** uchun maxsus harf bor. **B** undoshi lab-lab, portlovchi, jarangli, shovqinli undosh bo‘lib, so‘z boshida ham, o‘rtasida ham, oxirida ham uchraydi. **V** undoshi faqat uyg‘ur yodnomalarida bor. Mahmud Qoshg‘ariyning yozishicha, turkiy xalqlarda **v** ning talaffuzi ikki xil bo‘lgan. Og‘uzlar buni lab-lab, sof turklar esa lab-tish v tarzida talaffuz qilganlar. Bu davrda lab-tish varianti bo‘lgan deyish mumkin, v faqat so‘z o‘rtasi va oxirida urxun yodnomalaridagi b o‘rnida uchraydi: sav(nutq), savinch (sevinch), qadimgi turkiy til **s**, **z**, **t**, **d**, **n**, **l**, **r**, til oldi - tish undoshlari bor. **S** til oldi-tish, sirg‘aluvchi, jarangsiz undosh fonema bo‘lib, qalin (velyar) va ingichka (palatal) variantlarga ega. **Z** undoshi **s** dan faqat jarangliligi bilan farq qilib, asosan, so‘z o‘rtasida va oxirida va ba’zan **s** fonemasining varianti sifatida uchraydi: az (oz), azuk (ozuk).

T undoshi **s** dan faqat portlovchiligi bilan farq qilib, hamma pozitsiyada uchraydi: tash, (tosh), ata, (ota), at, (ot).

So‘z boshidagi qadimgi **t** hozir **d** ga o‘tgan bo‘lishi mumkin: tadi - dedi. Bu undosh o‘rnida qadimgi davrlardayoq tish - ora z (z) ham ishlatilgan: bozun, keyincha z, so‘ngra y ishlatila boshlagan: adak - azak ayak (oyoq). **N** undoshi d

dan sonorligi va nazalligi bilan farqlanadi. Demak, bu tovush til oldi, portlovchi, sonor, undosh bo‘ib, so‘z boshida kamroq va boshqa pozitsiyalarda ko‘proq uchraydi: nang (narsa), ana (ona), ban (men).

L undoshi n dan yon tovushligi va burnaki emasligi bilan farq qiladi. Yon yoki lateral undosh deb o‘pkadan chiqqan havo tilning bir yoki ikki yonidan o‘tishi natijasida hosil bo‘lgan tovushga aytildi. Turkiy 1 talaffuzida havo tilning ikki yonidan o‘tadi havo tilning ikki yonidan o‘tganda tovush bilateral (ikki, yon) termini bilan ataladi. Demak, l til til oldi , yon, sonor undosh bo‘lib, so‘z o‘rtasida va oxirida uchraydi; alp (bahodir,) al (ol).

R undoshi l dan yon emasligi va qaltiroqligi bilan farq qiladi. Qaltiroq yoki vibrant undosh deb til uchining titrashi natijasida vujudga kelgan tovushga aytildi. Demak, r til oldi-tish, qaltiroq, sonor undosh bo‘lib, so‘z o‘rtasida va oxirida uchraydi: ara (ora), ar (er).

Qadimgi turkiy tilda til oldi - tanglay jarangsiz undoshlardan **ch** bilan **sh** bor, j bilan j esa yo‘q, **ch** portlovchi, **sh** sirgaluvchi undosh. Bular ham qalin va ingichka variantlarga ega bo‘lib, **ch** undoshi hamma pozitsiyada uchraydi: chab-chav (shuhrat), achi (aka), ach (och).

Sh undoshi so‘z boshida kamroq, so‘z oxirida ko‘proq, uchraydi: shad (unvon), asha (osha), ash (esh). Bu undosh urxun yodnomalarida s bilan almashib keladi: **ash**, **as (esh)** tarzida. Mazkur undosh fonemalarning hammasi palatal (ingichka yoki yumshoq) va velyar (qalin yoki yumshoq) variantlarga ega. Bu undosh fonemalaming har biri old qator unlilari bilan kelganda ingichka talaffuz qilinadi, orqa qator unlilari bilan birga kelganda qalin aytildi. Ingichkalik yoki palatallik til o‘rta qismining qattiq tanglay (palatum)ga, qalinlik (velyarlik) esa tilning orqa qismining yumshoq tanglay (velum)ga ko‘tarilishi natijasida vujudga keladi. Talaffuzning mana shu xususiyati bilan turkiy so‘zlar qalin yoki ingichka bo‘ladi: at at: al al: as as: ut ut: o1 o1.

Qadimgi turkiy tilda y, k, (k), g (g), n til o‘rta va til orqa undoshlar

Y til o‘rta va til orqa variantlarga ega bo‘lgan sirg‘aluvchi sonor fonemadir. **Y** ning nazallahgan varianti ham bor bo‘lib, To‘nyuquq otidagi y shunday y xususiyatiga egadir.

K (k) til o‘rta. (k) va chuqur til orqa (k) variantlariga ega bo‘lgan portlovchi, jarangsiz undosh fonemadir.

G (g) fonemasi k (k) dan faqat jarangliliqi bilan farq qiladi. Qadimgi turkiy tilda k (k) har uchala pozitsiyada ham uchraydi: kan (kon), kishi, okbit (chakbir), aki (ikki), ok (uk), tok (tuk) - Qadimgi k hozirgi tillarda F, X, V, ga o‘tishi yoki tushib qolishi mumkin.

Qadimgi turkiy tilda bo‘g‘iz undoshi **h** yo‘q.

Singarmonizm. Singarmonizm deb so‘zdagi tovushlarning bir-biriga hamda asosga qo‘sishimchalarining qo‘shilishiha talaffuz jihatidan uyg‘unlashishiga aytildi. Qadimgi turkiy tilda singarmonizmning ikki qonuni mavjud: 1) tanglay uyg‘unligi yoki palatal va velyar attraksiya – so‘zdagi tovushlarning bir-biriga va qo‘sishimchalarining asosga qatorda va qalin ingichkalikda moslashuvidir: qag‘anqa (xoqonga), kimka (kimga), ilgaru (oldinga), o‘g‘uzg‘aru (o‘g‘uzga), barbig‘ (borish), bilig (bilim); 2) lab uyg‘unligi yoki labial attraksiya – *lab uyg‘unligi* bиринчи bo‘g‘indagi unliga keyingi bo‘g‘indagi unlining yoki o‘zakdagi unliga qo‘sishimchadagi unlining lablanish jihatidan moslashuvidir: ishig (ishni), kuchug (kuchni), inim (ukam), ko‘zum (kuzim), alimiz (davlatimiz), sumuz (lashkarimiz).

Qadimgi turkiy tilda nutqning tovushdan boshqa fonetik bo‘laklari, urg‘u va intonatsiya hozirgi turkiy tillarnikidan o‘zgacha bo‘lganligini ko‘rsatuvchi dalillar yo‘q.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Qadimgi turkiy tildagi unlilar tizimi haqida ma’lumot bering.
2. Qadimgi turkiy tilning undoshlar tizimidagi asosiy xususiyatlarni sanang.
3. Qadimgi turkiy tilda singarmonizm hodisasi va uning mohiyatini yoriting.
4. Qadimgi turkiy til va o‘zbek adabiy tili unli va undoshlar tizimini qiyosan tahlil eting.

Test sinovi

1. Qadimgi turkiy tilda nechta unli tovush bo‘lgan?
A) 4 ta unli;
B) 6 ta unli;
C) 8 ta unli;
D) 10 ta unli.
2. Qadimgi turkiy tilda mavjud bo‘lmagan undosh tovushlar?
A) j, v, x;
B) x, d, y;
C) g, h, j;
D) v, x, n.
3. **a, ä, o, ö** qanday unlilar?
A) old qator unlilar;
B) orqa qator unlilar;
C) keng unlilar;
D) tor unlilar.
4. **p, t, s, š, k, q, č** qanday undoshlar?
A) burun tovushlari;

- B) sonorlar;
- C) jarangli undoshlar;
- D) jarangsiz undoshlar.

5. l, m, n, ң, r, y qanday undoshlar?

- A) burun tovushlari;
- B) sonorlar;
- C) jarangli undoshlar;
- D) jarangsiz undoshlar.

6. oğuzğaru, ilgärü so‘zleri singarmonizmning qaysi turiga xos?

- A) labial singarmonizm;
- B) lab uyg‘unligi;
- C) palatal singarmonizm;
- D) singarmonizm hodisasi kuzatilmaydi.

7. Turkiy tillarda singarmonizmning mavjudligini birinchi bo‘lib kim aytgan?

- A) Alisher Navoiy;
- B) Polivanov;
- C) Mahmud Zamashshariy;
- D) Mahmud Koshg‘ariy.

Mavzu uchun tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. -T., 1982. - 182 b.
2. Aliyev A., Sodiqov Q. O ’zbek adabiy tili tarixidan. -T., 1994. - 96 b.
3. Abdurahmonov N. Qadimgi turkiy til. - T., 1989.
4. Azimov I., Rahmatov M. Qadimgi turkiy til. (O’quv-metodik qo ’llanma). - Toshkent: Nizomiy nomidagi ТДПУ, 2005. - 136 б.
5. Насилов В.М. Древнеуйгурский язык. - М., 1963. - 147 с.
6. Насилов В.М. Язык Орхено-Енисейских памятников. -М.,1960.
7. Кононов А.Н. Грамматика языка тюрско-рунических памятников. - Л.,1980.
8. Малов С.Е. Памятники древнетюрской письменности Монголии и Киргизии. М-Л., 1959. - 142 с.
9. Sodiqov Q. Uyg’uryozuv tarixidan. - T, 1997.
10. Qo’chqortoyev I., Isabekov B. Turkiy filologiyaga kirish. -Toshkent: O’qituvchi, 1984. - 112 b.

3-Mavzu: Qadimgi turkiy til leksikasi

Reja:

1. Qadimgi turkiy tilning leksik tarkibi.
2. O‘z va o‘zlashma qatlam.
3. So‘z ma’nosi taraqqiyoti.

Tayanch so‘z va iboralar: leksika, leksema, toponimlar, etnonim, onamastika, zoonim, harbiy terminlar, o‘z qatlam, o‘zlashgan qatlam, turkiy so‘zlar, sankritch so‘zlar, xitoycha so‘zlar, so‘g‘dcha so‘zlar.

Leksikologiyada tilda mavjud bo‘lgan barcha so‘zlar, ya’ni o‘sha tilning lug‘at boyligi haqida so‘z yuritiladi. T il lug‘at tarkibini tarixiy-etimologik jihat, ya’ni so‘zlarni genetik manbalariga ko‘ra tadqiq etish o‘zbek tilining qardosh va qardosh bo‘lmagan tillar bilan aloqasini, mazkur tilda qaysi tillarning ta’siri mavjudligini aniqlashga ko‘maklashadi. Pirovard-natijada, bunday izlanishlar o‘zbek tili so‘z boyligi, grammatik qurilishining tarixiy yo‘llarini anglashda nihoyatda muhimdir. Binobarin, tilning leksik tarkibini genealogik manbalariga muvofiq guruhash, ilmiy jihatdan tahlil qilish katta ahamiyatga ega.

Tildagi leksik (o‘z va o‘zlashma) qatlamlarni lingvistik tadqiq etish leksik-semantik taraqqiyot qonuniyatlarini belgilashda o‘ta muhimdir. Zotan, leksika tarix, madaniyat, fan va xalqning ijtimoiy-iqtisodiy rivoji bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ilmiy tahlilda ularni hisobga olmasdan turib, so‘z ma’nolarining o‘zgarish manbalari va sabablarini aniqlash mushkul. Ko‘hna yodgorliklarda qo‘llanilgan leksik birliklarning ko‘pchiligi monosemantik so‘zlar hisoblananadi: qan – xon, yoğči – azachi, söňük – suyak, tanuq – guvoh, tamğa– tamğa, alpağu – qahramon. Ayni paytda, polisemantik birliklarning ham o‘z o‘rniga ega ekanligini guvohi bo‘ldik. So‘zning ko‘p ma’no anglatishi tilda mustaqil tizim bo‘lib, u umumiy tilshunoslikda polisemiya termini bilan nomlanadi. So‘z dastlab bir ma’noni ifodalash uchun qo‘llanilib, davrlar o‘tishi, turli lingvistik ta’sirlar vositasida bir necha ma’noni bildiradi. Polisemiya bir turkum doirasida leksik ma’nolardan tarkib topishi, ularning o‘zaro bog‘liq bo‘lishi, ma’nolarning ayni so‘zning o‘ziga oidligi bilan boshqa hodisalardan ajralib turadi. Arīg so‘zi qadimgi turkiy tilda, ya’ni “Oltun yorug”, To‘nyuquq, Turfon matnlarida «toza», «olijanob», «haqiqiy» ma’nolarini ifodalagan: Biz arīg dindar biz - biz haqiqiy dindormiz (TT). Törü leksemasi Turfon matnlari va «Oltun yoruq»da «surf-odat», “tartib-qoida”, «to‘y bazmi» ma’nolarida kelgan: Türgäs qağanıñ qızın ärtäňü uluğ törün oğlıma alıp bärtim – Turgash xoqonning qızını kata to‘y qilib og‘limga olib berdim (BX). Bul leksemasi Turfon matnlari va «Oltun yoruq» yodgorligida “topmoq” “qidirmoq”,

“yetishmoq, erishmoq” ma’nolarida ishlatilgan: anि üçün täjri yärin bulğay biz – shuning uchun tangri yeriga yetishgaymiz.

Qayd etish kerakki, qadimgi turkiy til lug‘at tarkibida mavjud bo‘lgan so‘zlarni biror urug‘ yoki qabilaga mansub deb bo‘lmaydi. Chunki qadimgi turkiy til leksik qatlamida mavjud so‘zlar o‘sha davrda yashagan urug‘ va qabilalarning barchasiga tegishli bo‘lgan deb qarash zarur. Bundan, albatta, qadimgi turkiy til lug‘at tarkibida turkiy bo‘lmaidan leksemalar yo‘q ekan, degan xulosaga kelmaslik kerak. Turkolog-leksikolog va o‘zbek tili leksikasi bilan shug‘ullangan olimlar turli davrlar yozma yodgorliklari tili so‘zlarini leksik qatlamlarga bo‘lib o‘rganganlar. Ilmiy adabiyotlarda bu davr leksikasi o‘z va o‘zlashgan qatlamga bo‘lib tadqiq etilgan. Ammo qadimgi turkiy til leksikasini faqat o‘z qatlam asosida kuzatish mumkin. Negaki, V-X asrlar bitiglarda aksariyat so‘zlar oltoy tillari, jumladan, turkiy til leksemalaridan iborat ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu qonuniyat lug‘aviy qatlam tadqiqiga bag‘ishlangan qator ishlarda yoritilgan. Qadimgi turkiy til leksikasi Urxun-Enasoy va uyg‘ur yozuvlari bitiglari asosida kuzatilar ekan, sof qadimgi turkiy til so‘zlarining turli sohalarda faol qo‘llanganligi ko‘rinadi.

O‘z qatlam. Qadimgi turkiy tilning asosiy so‘z boyligini, shubhasiz, turkiy tilga xos bo‘lgan qatlam tashkil qiladi. Bu qatlam hozirgi turkiy tillarning barchasiga tegishli bo‘lgan leksemalardir. Qadimgi turkiy tilda toponimlar, etnonimlar, zoonimlar, tabiat hodisalari, mansab, qarindoshlikni bildiruvchi leksemalar, harbiy terminlar, astroponimlar, kiyim-kechak nomlari kabi mavzuviy guruhga oid so‘zlar qo‘llangan. Toponimlar – joy nomlari.

1. Etnonimlar – (urug‘ va qabila nomlari).
2. Antroponimlar – kishi ismlari.
3. Gidronimlar (daryo va ko‘l nomlari).
4. Zoonimlar (hayvon va parranda nomlari):
 - a) uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar; b) parranda nomlar; c) quruqlik va suv hayvonlari nomlari.

Joy nomlari. Qadimgi turkiy til toponimlari turkiy xalqlarning moddiy-madaniy turmush tarzi, dunyoqarashi, urf-odat va an’analalarini o‘zida mujassamlashtirgan. Qadimgi turkiy til yodnomalarida, xususan, runiy yozuvida yetib kelgan Kultegin, To‘nyuquq, Ungin bitiglarida quyidagi joy nomlari uchraydi: Tabg‘ach, Yassi, Yugnak, Chambud, Tunut, O’tukan yish, Altun yish, Tamir kapig‘, Sug‘dak, Buqaraq, Raboti og‘uz, Chach va boshqalar. Joy nomlari o‘sha davrda ham tabiat iqlimi, narsa va buyumlarning tashqi xususiyatlariga, shuningdek, o‘simliklar nisbatiga qarab qo‘yilgan: Qaraqum, Suvluq, Atliq, Akterak kabilar. Bir guruh joy nomlari etnik urug‘, qabilalar nomi bilan bog‘liq. Kirg‘iz, Tabg‘ach, Og‘o‘z, Az va boshqalar. Ba’zi joy nomlari tomonlar va tog‘lik

joy atamalari bilan bog‘liq atalgan: Yiraya (shimol), Beriya (janub), Ongra (sharq), Kasra (g‘arb), Yish (tog‘). Otukan yish, Qadirqan yish kabi.

Etnik nomlar VI -XIV asrlarda O‘rta Osiyo, Qozog‘iston, Sibir hududlarida yashagan turkiy xalqlarining etnik tarkibi xilma-xil bo‘lgan. Bu hududlarda turkiy xalqlar bilan bir qatorda turkiy bo‘limgan xalqlar (eroniylar) istiqomat qilishgan. Turkiy va turkiy bo‘limgan urug‘, qabilalar to‘g‘risidagi dastlabki ma’lumotlar Mahmud Qoshg‘ariy lug‘atida aks etgan. Bu davr yodgorliklariga oid tadqiqotlarda turkiy xalqlar va ular bilan yonma-yon yashagan etnik guruhlar haqida ilmiy asosga ega bo‘lgan fikrlar bildirilgan.

Turkiy qabilalardan ba’zilari o‘zlari yashab turgan hududlari nomi bilan atagan bo‘lishsa (Az), ma’lum qismi bayroqdagi tamg‘a nomi bilan yuritilgan (Tamg‘ali, Tuyakli).

O‘rxun-Enasoy va uyg‘ur yozuvi bitiglarida o‘sha davrda shakllangan quyidagi turkiy va turkiy bo‘limgan urug‘ hamda qabilalar nomi uchraydi: arg‘u, basmil, turk, tatar, shuningdek, tazik (tojik), tatabi, tashug, izgil, so‘g‘d, qitani, avar, tabg‘ach va boshqalar. Ba’zi urug‘ va qabila nomlari bir qator bitiglarda joylanish o‘rni jihatidan turlicha bo‘lsa ham, manbalarda takror qo‘llangan. Masalan, nayman, qarluq, qipchaq kabi.

Kishi ismlari. Bitiglarda uchraydigan kishi ismlari o‘sha davr an’ana, urfatodatlariga muvofiqli. Ular shaxslarning tavsifi, qabila uchun muqaddas hisoblangan hayvonlarga nisbatni, osmon jismlarning ulug‘vorligini ifodalagan; Kultegin (kul kuchli), To‘nyuquq (to‘ng‘ich javhar), Bilga xoqon (bilga, dono) Bo‘ri, Bars, Kuntug‘di, Oyto‘ldi va boshqalar. Qadimgi turkiy til lug‘at tarkibida ismlar o‘sha davr lug‘at boyligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etgan. Ahamiyatlisi shundaki, bitiglarda uchraydigan ismlarni leksik-semantik, geneologik jihatdan tahlil etilganda ularning sof turkiy so‘zlardan iborat ekanligi ko‘rinadi. Tabiat, iqlim bilan bog‘liq nomlar runik yozuvli bitiglarda ko‘p uchraydi: Yinju og‘uz (og‘uz daryo), Irtish, Selenga, Qarako‘l.

Daryo va ko‘l atamalari. Balqashko‘l, Ko‘zliko‘l. VI-XIV asrlarda daryolar nomiga og‘uz so‘zi qo‘shib ishlatilgan.

Zoonimlar. a) uy hayvonlari nomlari: at ot, taba-tuya; yovvoyi hayvonlar: adig‘ (ayik), bichin (maymun), arslon, bars, bori, kayik, arqar, soruk, soqak (kiyik), tabushqan (quyon); b) parranda nomlari: sundulach (bulbul), turna, kozgun, toqt (tovuq), qarlig‘ach, to‘ti, chag‘in, qaluq kabi; v) quruqlik va suv hayvonlari nomlari: yilan, sichan, baqa.

Mahmud Qoshg‘ariy lug‘atida keltirilgan so‘zlar izohi, etimologiyaga oid sharhlar qadimgi turkiy til davrining leksik xususiyatlarini o‘rganishdagi ilk tadqiqotlar hisoblanadi. Qadimgi turkiy til bitiglarida qo‘llangan turli sohaga oid so‘zlar, jumladan, harbiy atamalar, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy atamalarga alohida

tadqiqotlar bag‘ishlangan. Qadimgi turkiy til bitiklarida qo‘llangan so‘zlarning o‘z davriga xos faol va nofaolligi, ba’zi qadimgi so‘zlarning keyingi davrlarda iste’moldan chiqishi, ularning ma’no taraqqiyotidagi o‘zgarishlar, shuningdek, turli sohaga oid so‘zlar guruhini ajratib tahlil qilish lozim. Bu bitiglar leksikasi rang-barang ekanligini ko‘rsatadi.

N.Abdurahmonov qadimgi turkiy tilning lug‘aviy qatlamini mavzuiy jihatidan o‘n ikki guruhga ajratib talqin etadi. Tadqiqotlarda berilgan ma’lumotlarni umumlashtirilgan holda, qadimgi turkiy til taraqqiyotining asosiy bosqichlarida keng iste’molda bo‘lgan so‘zlarni quyidagi mavzuviy guruhlarga ajratish mumkin:

Qavm-qarindoshlik so‘zları. Qadimgi bitiglar lug‘at tarkibida turli sohalarga oid, shuningdek, jins, qarindoshlik atamalari faol ishlatilgan. Bunday so‘zlar hozirgi turkiy leksikaning qadimgi shakllaridir. Qadimgi turkiy bitiglar tilida uchraydigan yaqinlik yoki qavm-qarindoshlik tushunchasini bildiradigan so‘z-tushunchalar ham ma’lum bir sharoitda paydo bo‘lgan. Bular davrlar o‘tishi bilan rivojlanadi, o‘zgaradi va adabiy shaklga siljiydi. Aniqrog‘i, oila, nikohning yangi shakllari paydo bo‘lishi bilan qarindoshlik terminlarining doirasi ham o‘zgaradi. Natijada faol qollangan leksema turli omillar bois arxaiklashib qolishi, u o‘rnini boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlarga bo‘shatib berishi mumkin. Yozma bitiglar tilida qaj – ota (KT), ög – ona (Kt), sijil – singil (Kt), oğul – farzand (KT), ini – uka (KT), äkä – opa (KT), äçi – amaki singari qavm-qarindoshlik tushunchasini bildiradigan so‘zlar uchraydi. VI-XI asr bitiglarida “ota” ma’nosida ata, qaj kabi so‘zlar ishlatilgan, XI-XII asrlarda ata leksemasi qatori Tibet tilidan o‘zlashgan aba istilohi ham qo‘llanishda bo‘lgan. Ushbu so‘zni “ajdodlar” ma’nosidagi arabcha aba o‘zlashmasidan farqlash kerak. VI-X asrlarda “ona” ma’nosi ög, ana so‘zları bilan berilgan, X-XIV asrlarda esa aba, apa, ana istilohlari ham ayni ma’noda qo‘llangan. Ana so‘zi asosan farzandli ayollarga nisbatan qo‘llangan, keyingi davrlarda semantik doirasi kengaygan. VI-XI asrlarda äçi/eçi leksemasini “aka, og‘a” ma’nosida ishlatilgan bo‘lsa, äkä/ekä leksemasi “opa, xolani” ifodalagan. Ini leksemasini akasiga nisbatan yosh jihatdan kichik bo‘lgan kishiga nisbatan ishlatilgan. Bu so‘zning qarindosh ma’nosi keyinchalik voqelangan. Urü leksemasini “o‘g‘il”, oğil esa “farzand” ma’nosida ishlatilgan, VI-X asrlarda urü oğul juft istilohi XI asrda urü oğlan tarzida qo‘llangan. Qiz so‘zi ayol jinsiga mansublikni ifodalaydi. O‘rxun yodnomalarida qiz-oğil “qizlar” ma’nosini ifodalagan. X-XIV asrlarda esa bu so‘zning ma’nosi kengaydi va “farzandlar” ma’nosini kasb etdi. Sijal so‘zini X asrgacha va undan keyin yaratilgan yozma obidalarda ham sinil, sijal fonetik ko‘rinishlarida uchratish mumkin. Bu leksema oilada akalaridan keyin tug‘ilgan qizga nisbatan ishlatilgan. VI-XIV asrlarda är (er) so‘zi “erkak kishi”, “jangovar, mard” ma’nolarida ishlatilgan. Harbiy terminlar

VI-X asrlardagi urug‘ va qabilalarning turmushi, siyosiy-harbiy ahvolini ma’lum darajada aks ettiradi: Harbiy xizmatga aloqador shaxslar, qo‘shtinning tarkibini ifodalovchi so‘zlar: sü “qo‘shtin”, atlì “suvoriy, otliq”; yärçi “qo‘shtinga yo‘l ko‘rsatib boruvchi”, yäzäk “soqchi”, yaraq//yarïq “sovut”, täblig “hiylakor”(KT), sünjüg “nayza” (To‘n). Inson tana a’zolari nomlari: adaq “oyoq” (TT), aya “kaft” (Oltun yorug‘), yüräk “yurak”, boyun “bo‘yin”, köz “ko‘z”, baş “bosh”(Oltun yorug‘) va h.k.

Shaxs tushunchasini ifodalovchi so‘zlar: eš “o‘rtoq”, yağıi “dushman” (To‘n).

Inson qo‘li bilan yaratilgan narsa-predmetlarni anglatuvchi leksik birliklar: boqaǵu “kishan” (TT), ew “uy” (TT), ton “kiyim” (KT), köznü “oyna” (Oltun yorug‘).

Mavhum tushunchalarni bildiruvchi leksemalar: ög “aql” (TT), al ”hiyla” (TT), idi “ega, sohib” (KT), bulun “tutqun, asir” (Mon), yazuq “gunoh” (TT).

Xalqning ijtimoiy-siyosiy faoliyati bilan aloqador tushunchalarni anglatuvchi leksemalar: beg “bek, hukmdor”, künj “joriya” (KT), tamǵa “muhr” (TT), qan “xon” (To‘n). Savdo va pul munosabatlarini ifodalovchi so‘zlar: arqiiş “karvon; chopar” (TT), baqır “mis tanga” (E), asięg “foyda” (TT), satiğči “sotuvchi” (Oltun yorug‘), kümüs “kumush tanga” (BX).

Harakat va faoliyatning xususiyati bilan bog‘liq so‘zlar: ay “aytmoq” (To‘n), anut “tayyorlamoq” (Oltun yorug‘), ağ “oshmoq, chiqmoq” (BX), id “jo‘natmoq” (BX), udii “uxlamoq” (To‘n), yan “qaytmoq” (To‘n).

Qadimgi turkiy xalqlar turmush tarzining barcha sohalariga oid so‘zlar, asosan, turkiy qatlamga xos bo‘lgan. Qadimgi turkiy til lug‘at tarkibida mavjud so‘zlar o‘sha davrda yashagan urug‘ va qabilalarning barchasiga tegishlidir. Ular turkiy xalqlarning yashash tarzi, mashg‘uloti, harbiy-jug‘rofiy sharoiti, madaniyati kabilarni aks ettiruvchi so‘z va atamalardir.

Ma’nodosh so‘zlar. V-X asrlarda yaratilgan yozma obidalarda sinonimlar uyasi aks etgan. Bu hodisa qadimgi turkiy til lug‘at tarkibining rang-barang bo‘lganligidan dalolat beradi. Sinonimlar turli stilistik maqsadlarda qo‘llanganligi bilan xarakterlanadi: ana (Oltun yorug‘) – ög “ona”, äl – bodun “xalq” (To‘n), yoğan – qalın “katta, yog‘on” (To‘n), kişi – är “odam, kishi” (KT), uzun tonluğ – tişi (TT) – tişi kişi – işi - išilär “ayol” (Oltun yarug‘).

Omonimlar. Omonimlar har xil stilistik maqsadlarda hozirgi turkiy tillarda qanday ishlatilayotgan bo‘lsa, yozma obidalarda ham xuddi shunday qo‘llanilgan. Biroq omonimlarning yozma obidalar tilida ishlatilishi hozirgiga nisbatan ancha chegaralangan. Bu bilan bunday omonimlar keyingi davr til hodisasi ekan, degan xulosaga kelmaslik kerak. Hozirgi turkiy tillar lug‘at boyligida mavjud omonimlar qadimda ham aks etgan, lekin yozma obidalar tilida chegaralangan holda

ishlatilgan: I.baliq “baliq”, II.baliq “shahar”; I.bar “bor, mavjud”, II.bar “bormoq” (KT), I.adin “boshqa” (TT), II.adin “o‘zgartirmoq, to‘g‘irlamoq” (Mon), I.agir “og‘ir” (Oltun yorug‘), II.agir “hurmatli, qadrli” (TT), I.ay “oy” (BX), II.ay “oy, vaqt” (To‘n), I.ar- “bo‘lmoq” (Mon), II.ar “aldamoq” (KT). Demak, qadimgi turkiy tilda omonimlarning ishlatilishi o‘sha til leksik qatlaming rang-barangligidan dalolat beradi.

Zid ma’noli so‘zlar. (Antonimlar). Sinonim va omonimlar bilan bir qatorda antonimlar ham keng qo‘llangan. Lingvistik adabiyotlarda o‘zaro zid, qarama-qarshi ma’noli til birliklari antonim deb qaraladi. Qadimgi turkiy til davri matnlarida quyidagi antonimlar qo‘llangan: yoğan - yinčkä (To‘n), īraq (TT) – yağuq (KT), az (KT) – üküş (BX), čiğay – bay (KT); üzä (BX) - asra (KT), semiz – turuq (To‘n).

O‘zlashma qatlam. Qardosh bo‘lmagan tillardan o‘zlashgan so‘zlar haqida gap borar ekan, bunda sug‘d, hind, xitoy tilidan o‘tgan leksik elementlar nazarda tutiladi. Qadimgi turkiy tilning o‘zlashgan qatlam leksikasini A.Gaben quyidagicha guruuhlaydi. Mo‘gulcha so‘zlar, xitoycha so‘zlar, qadimgi forscha so‘zlar, qadimgi hindcha so‘zlar. Gabenning ta’kidlashicha, mo‘g‘ulcha so‘zlarni asl turkiy so‘zlardan farqlash juda qiyin. Shuning uchun u o‘z asarida bunga misol ko‘rsatmaydi. A.N.Kononov esa shu misollarni mo‘g‘ulcha deydi: taluy (dengiz), echu (aka). Vaholanki, bu so‘zlar Gabenda birinchisi xitoycha, ikkinchisi turkcha deb ko‘rsatilgan. Boshqa misollar: altun, qunchuy, shantung, lung kabilar xitoycha, azun, batur, qamug‘, qatun, shad, tigin, tarqan kabilar eroniy tillardan olingan, to‘ru (qonun), maqarach (maharaja), arxant (aziz) kabi so‘zlar sanskritcha hisoblanadi. Hozirgi O‘rta Osiyo, Qozog‘iston va Sibir, hatto, Yevropada yashagan qadimgi turkiylar sug‘d, hind, xitoy xalqlari bilan iqtisodiy, madaniy, diniy aloqada bo‘lgan. O‘rnatilgan yaqin munosabatlar, o‘zga tillardan qilingan tarjimalar turkiy til leksik qatlaming boyishiga ta’sir etgan.

Sanskritcha so‘zlar. Qadimgi turkiy bitiglarda sanskrit tilidan kirib kelgan so‘zlarning rang-barang bo‘lganligi “Qadimgi turkiy lug‘at”ini varaqlash asosida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Tabiiyki, bunda sanskrit tilidan turkiy tilga qilingan tarjimalar muhim rol o‘ynagan. Eski turkiy tilda sanskritcha o‘zlashmalar son jihatdan kamaygan. Keyingi davrlarga kelib, ularning aksariyati iste’moldan muqim o‘rin egallay olmadi. Turkiy tilda saqlanib qolganlari ham deyarli o‘z so‘zga aylanish darajasiga yaqinlashgan: Änätkäk – Hindiston, nirvan – budda ta’limotida qutlug‘ yer (TT), she’r nomlari: šlok, padak, karant (Oltun yorug‘), kavi “epos” (SK), açari “murabbiy, ustoz” (TT).

Sug‘dcha so‘zlar. Sug‘dlar va turklar o‘rtasidagi aloqalarni VI asrdan boshlangan deb ko‘rsatish odat tusiga kirgan. Lekin sug‘d-turk munosabatlarini yanada qadimiylardan qidirish lozim. Bunda asosiy fikr turkiy xalqlarning

Turonda azaliy aholi qatlami sifatida mavjud bo‘lganini tan olish, buni faktik materiallar bilan isbotlashga qaratilishi kerak. Bu o‘rtada Markaziy Osiyoda mil. av. III-II asrlardan boshlangan jadal etnomadaniy munosabatlar turkiy xalqlarning butun Dashti Qipchoq bo‘ylab, Xitoy devoridan Dunaygacha chiqib borishiga olib keldi. Sug‘dlar esa mil. av. IV-III asrlardan boshlab xalqaro savdo yo‘llari orqali Sharqqa kira borib, avvalo, O‘rta Osiyoda, qolaversa, Sharqiy Turkistonda turklar bilan faol munosabatga kirishib ketdi. IV asr – 312-yilga mansub sug‘d maktublari majmuasi shundan dalolatdir. Arablar istilosidan keyin sug‘dlarning turklar bilan etnik yaqinlashuvi, aralashuvi yanada kuchaygan. Bu jarayon butun O‘rta Osiyon qamragan va Sharqiy Turkistonda ham uzoq davom etgan. Masalan, L.I. Chuguevskiy sug‘dlarning assimiliyatsiya qilinish jarayoni XIII asrda ham davom qilganligini hujjatlar asosida ko‘rsatib bergen. Manbalarning guvohlik berishicha, ilk o‘rta asrlarda sug‘d tili va yozuvining qo‘llanish doirasi Sug‘d davlatidan chiqib, Marv, Shimoliy Boxtar va ulkan turk o‘lkalari – Choch vohasi, Farg‘ona, Yettisuv, hozirgi Sinjon yerlari va Markaziy Mo‘g‘ilistoniga qadar yoyilgan edi. Bu, avvalo, O‘rta va Markaziy Osiyodan o‘tgan savdo karvon yo‘llari, xususan, ipak yo‘lida turklar bilan sug‘dlarning birgalikda olib borgan ishlari, shuningdek, uch diniy oqim – buddizm, moniylik va nasroniylikni yerli xalqlar, jumladan, turklar orasida yoyish yo‘lidagi sa’y-harakatlar bilan bog‘liq. Yana bir jihat, ayrim yurtlarda turk-sug‘d ikki tilliligi ham amal qilgan. Mahmud Koshg‘ariyning yozishicha, Balasag‘un, Tiraz, Madinatul bayza shaharlarining xalqlari sug‘dcha va turkcha so‘zlashganlar. Ushbu fakt ikki masalaga e’tibor qaratishni taqozo etadi: birinchidan, bu o‘rinda shu o‘lkalarda ikki tilda so‘zlashuvchi ikki xalq yashaganligi ko‘zda tutilmoqda; ikkinchidan, mazkur o‘lka xalqlari (sug‘daq, kanjak, arg‘ular) ning ikki tilliligi. Anglashiladiki, ikki xalqning aralash istiqomat qilishi, o‘zaro hamkorligi, diniy e’tiqodi, mavjud ikki tillilik oqibatida so‘z almashish jarayoni yuz bergen. Ya’ni turklar tilida sug‘dcha, sug‘dlar lug‘at tarkibida turkcha leksemalar qo‘llanilgan: nom “dininy ta’limot” (Oltun yorug‘), Azrua “brahma” dinining yaratuvchisi (Mon), Xormuzta “iloh, tangrining oti” (Mon), bağ “mevazor” (TT), ajun “olam, dunyo” (TT), nağıd “Zuhra (sayyora nomi)” (BX).

Xitoycha so‘zlar. Miloddan avvalgi II asrda Xun davlati kuchayib, xoqonlikka aylandi. Shunda uning ta’sir doirasi Sharqda Koreya yarim oroli, G‘arbda Kaspiy dengizi, janubda Himolay tog‘lari, Amudaryoning shimoliy hududlarigacha yetib bordi. Xitoylar bilan xunlar chegarasi Buyuk Xitoy devoridan o‘tgan. Bu davrda G‘arb bilan Xitoyni bog‘lab turgan savdo yo‘llari xunlar nazoratida edi. Shundan keyin Xun hoqonligi G‘arbiy Xan imperiyasining shimoli va g‘arbga qarab kengayish yo‘lini to‘sib qo‘ydi. Xitoy xoqonlari xunlar bilan o‘z hududidan o‘tadigan savdo yo‘llarini nazorat qilish imkoniga ega bo‘lgan.

Markaziy Osiyo xalqlari Buyuk ipak yo‘li orqali Xitoya borib, savdo-sotiq qilgan. Bundan tashqari, Buyuk ipak yo‘li uzra buddizmning yoyilishi Sharq xalqlarining madaniy aloqalari, sharq tillarining o‘zaro ta’sirini ham ta’minlab berdi. Buni qadimgi xitoy-turk madaniy munosabatlari, adabiy aloqalarida ham kuzatish mumkin. Qadimgi turklar orasida buddizmning tarqalishi, dastlab, tarjimachilik sohasida katta burilish yasadi¹¹. Turkiy xalqlar buddizm diniga sig‘ingan chog‘larda xitoy tilidan qadimgi turkiy tilga ko‘plab diniy-falsafiy, tarixiy, badiiy asarlar, tabobatga tegishli kitoblar tarjima qilingan. Diniy-falsafiy qarashlar, madaniyat, badiiy adabiyotda kechgan jarayonlar qadimgi turkiy til lug‘at tarkibining yangi so‘z-terminlar bilan boyishiga imkon yaratdi. Xitoy tilidan diniy va falsafiy tushunchalarni anglatuvchi so‘zlar, buddizm san’ati, madaniyati, adabiyotshunoslik, kitobat ishi va fanning ayrim sohalariga doir terminlar turkiy tilga o‘zlasha boshladi. Ayon bo‘ladiki, turklar bilan xitoyliklarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalari qadim tarixga borib taqaladi. Bu hamkorliklar natijasi o‘laroq, turkiy tillar so‘z boyligiga xitoycha o‘zlashmalar kirib kelgan: Tabğač “Xitoy” (To‘n), sajun “general” (KT), baqši “ustoz, murabbiy” (Oltun yorug‘), lu “ajdar” (Oltun yorug‘), Burxan “Budda” (TT), tänsi “osmon o‘g‘li, xitoy imperatorining unvoni” (To‘n), tutuq “unvon nomi” (KT), čaj “chang, musiqa asbobi” (Oltun yorug‘).

Qadimgi turkiy tildagi ko‘pchilik so‘zlar qadimgi o‘zbek tiliga ham qabul qilingan. Ular turmushning turli sohalariga oid so‘zlardir¹²: ab (ov), abit (tinchitmoq), abinçu (quvonch), abuç (hovuch), adaş (o‘rtoq), adaq (oyoq), azun (dunyo), azğur (yo‘ldan urmoq), azığ (milk), azuq (oziq),adir (ayir), ay (oy, aytmoq), alti (olti), altmış (oltmish), är (er), ızış (idish), illä (boshqa), ılıg (qo‘l), yaril (yorilmoq), yarın (erta), yämä (yana), yiq (yiqitmoq) kabi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Qardosh turkiy tillar taraqqiyotida qadimgi turkiy til leksikasining o‘rnini haqida ma’lumot bering?
2. Qarindoshlik tushunchasini bildiruvchi terminlarni sanang.
3. To‘nyuquq matnidan toponimlarni belgilang.
4. Qadimgi turkiy til so‘z boyligida qaysi tillarga oid o‘zlashmalar mavjud?
5. Bilga xoqon matnidan omonim va sinonimlarni aniqlang.

Test sinovi

1. Qaraqum, Qızılqum, Qara köl, Yäşil ögüz qaysi guruhga mansub?

¹¹ Исхоков М., Содиков К., Омонов К. Мангу битиклар. –Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2009. – Б. 25-26.

¹² U.Tursunov, B. O‘rinboyev, A. Aliyev. O‘zbek adabiy tili tarixi. –Т.: “O‘qituvchi”, 1995. – 260-b.

- A) gidronimlar
B) etnonim
C) toponimlar
D) oronim
2. Uri, qan, ög, äci qanday so‘zlar?
A) Shaxsni ifodalovchi so‘zlar
B) aqrabolik otlari
C) mavhum tushunchalar
D) ijtimoiy terminlar
3. Ana, ög, äl, bodun, yoğan, qalın, uzun tonluğ, tiši qanday so‘zlar uyasiga kiradi?
A) omonimlar
B) leksemalar
C) antonimlar
D) sinonimlar
4. Baqši istilohi qaysi tilga oid?
A) turkiy
B) sanskrit
C) xitoycha
D) sug‘d
5. Sug‘dcha o‘zlashmani toping?
A) tutuq
B) ajun
C) nirvana
D) čiğay
6. Qadimgi turkiy tilda al leksemasi qanday ma’noni anglatgan?
A) el
B) hiyla
C) qo‘l
D) olmoq
7. Turkiy tillarda singarmonizm qonuni mavjudliginibirinchi bo‘lib kim aytgan?
A) Alisher Navoiy
B) Polivanov
C) Mahmud Zamashshariy
D) Mahmud Koshg‘ariy

Mavzu uchun tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G‘., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. -T., 1982. - 182 b.

2. Aliyev A., Sodiqov Q. O 'zbek adabiy tili tarixidan. -T., 1994. - 96 b.
3. Abdurahmonov N. Qadimgi turkiy til. - T., 1989.
4. Azimov I., Rahmatov M. Qadimgi turkiy til. (O'quv-metodik qo'llanma). - Toshkent: Nizomiy nomidagi TДПУ, 2005. - 136 б.
5. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Т.: Fan, 1985.
6. Ismoilov I. Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari (o'zbek, uyg'ur, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman tillari materiallari asosida). –Т.: Фан, 1966.
7. Ismoilov I va boshqalar. O'rta Osiyo va Qozog'iston turkiy tillar leksikasidan (poliz ekinlari, mevali daraxt nomlari va uy-ro'zg'or buyumlari leksikasi materiallari asosida). –Т.: Fan, 1990.
8. Малов С. Памятники древнетюркской письменности. Тексты и исследования. -М.-Л., 1951.
9. Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. - Т.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009.
10. Содиқов Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. -Тошкент, 2006.

4-Mavzu: Qadimgi turkiy til morfoloyigasi: ot so'z turkumi

Reja:

1. Qadimgi turkiy til morfoloyigasi haqida ma'lumot.
2. So'z turkumlarining qadimgi turkiy tildagi xususiyatlari.
3. Otning ko'plik kategoriyasi.
4. Otning egalik kategoriyasi.
5. Otning kelishik kategoriyasi.
6. Otlarning yasalishi.

Tayanch so'z va iboralar: morfologiya, agglyutinativ tillar, faol so'zlar, so'z yasovchi va shakl yasovchi affikslar, mustaqil so'z turkumlari, yordamchi so'z turkumlari, ko'plik kategoriyasi, egalik kategoriyasi, kelishik kategoriyasi, bosh kelishik, qaratqich kelishik, tushum kelishik, jo'nalish kelishik, o'rin kelishik, chiqish kelishik, vosita kelishigi, otlarning yasalishi

Qadimgi turkiy til morfologik tip jihatidan turkiy tillar singari agglyutinativdir. So'z shakllari so'zning negiziga maxsus qo'shimchalarni muayyan tartibda qo'shish yo'li bilan yasaladigan tillar agglyutinativ tillar deb

ataladi. Hozirgi o‘zbek adabiy tili morfologiyasidan qadimgi turkiy til morfologiyasining umumiy farqi quyidagilardan iborat:

1. Hozirgi o‘zbek tili morfemalari miqdoran qadimgi turkiy tildagiga nisbatan ko‘p va mazmunan boy.

2.O‘rganilayotgan davr tilida hozirgi o‘zbek tilida mavjud bo‘lmagan morfemalar ham ko‘zga tashlanadi.

3. Qadimgi turkiy tilda so‘z va shakl yasovchi o‘zlashma morfemalar uchramaydi.

4.Qadimgi turkiy tilda murakkab morfemalar juda ozchilikni tashkil etadi.

Qadimgi turkiy tilning morfologik strukturasi: so‘zlarning yasalishi, otlarning ko‘plik, egalik va kelishik qo‘sishimchalarini olishi, fe’lning harakat nomi, ravishdosh, sifatdosh funksional shakllari, shuningdek, bu so‘z turkumining orttirma, majhul darajalari, zamon kategoriyasi, sifat, ravish va yordamchi so‘z turkumlari hozirgi turkiy tillardan deyarli farq qilmaydi. Faqat sonlar struktura jihatidan, turli affikslarning har xil fonetik ko‘rinishlarda bo‘lishi bilan o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Qadimgi turkiy tildagi faol so‘zlar, so‘z va shakl yasovchi affikslar davrlar o‘tishi bilan arxaiklashgan, ayrimlari esa hozirgi ba’zi turkiy tillarda faol ishlatilmoqda. Jumladan, qadimgi turkiy tilda keng qo‘llangan tushum kelishigi affaksi -i hozirgi turk tilida ham mavjud.

Jamiyat tarixiy taraqqiyoti tilning lug‘at tarkibidagi so‘zlar, affikslar adabiy shaklga tomon siljib boradi. Bu jihat tilning o‘ziga xos qonuniyatlaridandir. Har bir tildagi so‘zlar grammatik belgilari va semantik xususiyatlariga qarab turli guruhlarga bo‘linadi. Shu tarzda ajratilgan guruhrar so‘z turkumlari sanaladi. Turkiy tillar, jumladan, o‘zbek tilida ham so‘zlarni turkumlarga ajratishda morfologik belgi, ayniqsa, so‘zning ma’nosi va sintaktik xususiyatlari asos qilib olinadi. Ilm ahli, ayniqsa, til tarixi mutaxassislariga yaxshi ayonki, o‘zbek tilidagi so‘z turkumlari asrlar mobaynida shakllanib, takomillashib keldi. Qadimiyy turkiy tildagi so‘zlar morfologik jihatdan ikki guruh: a) mustaqil so‘z turkumlari; b) yordamchi so‘z turkumlariga bo‘linadi.

Mustaqil so‘zlar borliqdagi turli hodisalarni bildiradi (predmet, belgi, harakat va h.k.), demak, har bir mustaqil so‘zning o‘z ma’nosi bor; gapning biror bo‘lagi vazifasida qo‘llanadi; ayrim hollarda mustaqil so‘z gapni hosil qiladi; yasalish, turlanish, tuslanish kabi xususiyatlarga ega. Binobarin, mustaqil so‘zlar leksik va grammatik ma’nolarga ega bo‘lib, matnda ishlatilish o‘rniga qarab o‘zgarib turadi. Mustaqil so‘zlar ot, sifat, son, olmosh, fe’l, ravish; yordamchi so‘zlar esa ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama, undov va modal so‘zlardan tashkil topadi. Mustaqil so‘z turkumlariga kiruvchi so‘zlar kelishik affikslarini oladi, shaxs-son affikslari bilan tuslanadi, zamon, mayl, daraja affikslarini qabul qiladi.

Shu xususiyatlari bilan yordamchi so‘z turkumlaridan farq qiladi. Yordamchi so‘z turkumlarida ana shunday xususiyat yo‘q. Yordamchi so‘zlar mustaqil so‘zлarni bog‘lashga va qo‘shimcha ma’no ifodalashga xizmat qiladi.

So‘z turkumlari orasida ot kategoriyasi o‘zining semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlari bilan til qurilishida salmoqli o‘rin tutadi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi ot turkumiga oid so‘zlar uzoq tarixga ega. Ular jamiyat taraqqiyoti va xalq turmushdagi o‘zgarishlarga mos ravishda tilning ichki imkoniyatlari yordamida rivojlangan. Buni ko‘hna obidalar til xususiyatlarini kuzatish chog‘ida ham ko‘rish mumkin. Qadimgi turkiy tilda ot turkumiga kiruvchi so‘zlar ko‘p bo‘lib, semantik tomondan hozirgi turkiy tillardagi singari xususiyatlarga ega. Qadimgi turkiy tilda ot turkumiga mansub so‘zlar kishi nomlari - antroponim (Bilga qağan), zoonim - hayvon nomlari (qoy, bars, böri), jism nomlari (sub), qavm-qarindosh (qañ), astroponim (Ud, Ay)larni ifodalaydi. Ot egalik, ko‘plik va kelishik affikslerini oladi, boshqa turkumdagи so‘zlardan morfologik va sintaktik usul bilan ot turkumidagi so‘zlar yasaladi.

Ko‘plik kategoriyasi. Qadimgi turkiy tilda ham otlar ko‘plik va birlik shakllarida qo‘llangan. Otlar birlikda qo‘llanganda maxsus ko‘rsatkich bo‘lmaydi. Otlarda ko‘plikni ifodalashning morfologik usuli sermahsuldir. Bular quyidagilardir: -lar / -lär affiksi: ağıliqlar “boyliklar, xazinalar”, tapīgčilar “xizmatchilar” , söňüklär “suyaklar” (Oltun yorug‘), beglär “beklar” (To‘n), qunčuylar “xonimlar” (KT). Bu shakl runik yodnomalarda faqat otlarga qo‘shilgan bo‘lsa, keyingi davrlarda, chunonchi, moniy, Turfon, uyg‘ur matnlarida fe’llarga ham qo‘shilib kela boshlagan: bardilar (bordilar), berdilar (berdilar), ögläntürdilär (o‘ziga keltirdilar). Bu qo‘shimcha qadimgi turkiy tilda erkalash, kuchaytiruv, taxmin ma’nolarini ifodalash uchun ham xizmat qilgan: ämräk öküklärim “sevimli bolalarim” (Oltun yorug‘), yüräkläri “yuraklari” (TT), qirq yillar “qirq yilcha”. Bu davrda n fonemasi bilan tugagan so‘zlarning ko‘pchiligi t ga aylangan holda yasalganini körish mumkin: tarqan (To‘n) - tarqat “tarxonlar” (KT), tegin –tigit “shahzodalar” (Oltun yorug‘), alpağu – alpağut “botirlar” (Oltun yorug‘) va h.k. Bu qo‘shimchani olgan so‘zlarga -lar (lär) shakli ham qo‘shilib kelgan. Bu hodisa «Oltun yoruq»da uchraydi: tegitlär, tarqatlar. Mazkur shakl hozirgi mog‘ul tillarida bor, yoqut tilida ayrim o‘rinlarda saqlanib qolgan. -an/-än qo‘shimchasi bilan ham ko‘plik ma’nosi ifodalangan va -an varianti qalin, -än esa ingichka negizga qo‘shiladi: ärän “erlar” (KT), oğlan “bolalar, farzandlar”. Turkiy tillar tarixida ikkilik -z qo‘shimchasi bilan ham yasalgan: ağız “ogiz” (TT), köküz “ko‘krak” (Oltun yorug‘), äkiz “egiz”, köz “ko‘z” (KT), yüz “yuz” (TT), biz “biz” (BX), tiz “tizza” (Oltun yorug‘), müyüz “shox” (TT).

Egalik kategoriyasi. Qadimgi turkiy tilda ham ot turkumiga kiruvchi so‘zlar egalik affiksini olib, narsa-predmetning uch shaxsdan biriga tegishliligi,

qarashliliginibildirgan. Egalikni ifodalashning eng sermahsul usuli morfologik usuldir. Egalik qo'shimchalari quyidagi ko'rinishga ega:

Shaxs	Birlik	Misol	Ko'plik	Misol
I	-m, -im, -ım, -um, -üm	başım (boshim), közüm (ko'zim), bodunum (xalqim), älim (elim)	-müz, -mız, -muz, -müz, -ımız, -İMİZ, -ümüz, -umuz	ünümüz
II	-ıj, -iň, -ıň, -uň, - üň	bögdän (xanjaring), bägiň (beging), qanňıň (xoning)	-ıjız, -ıjız, -ıjüz, -ıjuz, -iňiz, - ıňız, -üňüz, - üňüz	abańız (otangiz)
III	- ī, -ı, -sī, -sı	bılığı (ilmi), süsі (qo'shini), yağısı (dushmani)	-ları, -läri, -sı, -sī	qunçuyları (xonimlari), bağläri (beklari)

Kelishik kategoriyasi. Kelishiklar turkiy tillarning asosiy qonuniyatlaridan biridir. Til tarixi davomida uning soni ba'zan o'zgarib turgan. Otlarning kelishiklar bilan turlanishi bosh kelishikdagı holatining o'zgarishidir. Kelishiklar otlarning boshqa so'zlar bilan bo'lgan munosabatini ko'rsatadi. Bu munosabat predmetning boshqa narsa-predmet, harakat, belgi bilan aloqasini ifodalaydi. So'zlarning qattiq va yumshoq o'zakli bo'lishiga qarab, kelishiklarning har xil fonetik variantlari qo'shiladi. Qadimgi turkiy tilda quyidagi 7 ta kelishik mavjud bo'lgan: 1. Bosh kelishik. Qadimgi turkiy tilda hozirgi turkiy tillardagidek, bosh kelishik morfologik ko'rsatkichi bo'lmasligi bilan xarakterlanadi. Bosh kelishikda kelgan so'zning gapdagı asosiy funksiyasi ega vazifasini bajarishdir. Masalan: Tabgach qağan yağımız erti "Xitoy xoqoni dushmanimiz edi" (To'n.). 2. Qaratqich kelishigi quyidagi variantlarga ega: -nij,-niň//-nuň, - nüň//-iň, -iň//-uň -üň. Masalan: Bayırqunuň, burxanlarnıň, täjriniň, Külteginıň, uluğlarnıň, altunuň. Bir affiksning turlicha ko'rinishlarda ishlatilishi singarmonizm qonuniyati bilan bevosita bog'liqidir. So'z tarkibida lablangan unli bo'lsa, -nuň, -nün//üň, - uň, lablanmagan unli hisoblansa, -nij, -niň, -iň, -iň shakllar qo'shiladi. 3. Tushum kelishigi -ğ, -g (-iň, -ig//-uğ, -üg//-ağ, -ağ), -i, -i// -n//-ni, -ni qo'shimchalari bilan ifodalangan. Masalan, süg - lashkarni, taşığ "toshni", işig "ishni", küçüğ "kuchni", temiräg "temirni", iğacağ "daraxtni", bodunuğ "xalqni", ärig "erni", äcisin "akasini", savin "so'zini", kimi "kimni", bäni "meni", säni "seni". Hozirgi turkiy tillarda tushum kelishigidagi so'z o'zi bilan kelgan fe'l bilan shunday bog'langan bo'ladiki, boshqa hech qanday kelishik bunday munosabatga kirishmaydi. Xuddi ana

shunday xususiyat qadimgi turkiy tilda ham uchraydi. 4. Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi -ğaru, -gärü// -qaru, -kärü// -gar, - gär// - ru -rü// -ra, -rä// -qa, -kä// -ğa, -gä// -a(ya), -ä(yä). Masalan, oğuzğaru “o‘g‘izga”, bizgärü “bizga”, yoqaru “yuqoriga”, mäjär “menga”, sänjär “senga”, anjaru “unga qarab”, äbimrü “uyimga”, taşra “tashqariga”, yüräkrä “yurakka”, qağanqa “xoqonga”, yärkä “yerga”, qunçuyimğa “bekachimga”, ädgügä “ezguga”, tağa “toqqa”, ajuna “dunyoga, borliqqa”, yiraya “so‘lga”, biriyä “o‘ngga”. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi yuqori, tashqari, ichkari, teskari so‘zleri tarkibidagi -qori, -kari qadimgi jo‘nalish kelishigining qoldiqlari sanaladi. 5. O‘rin-payt kelishigi -da, -dä // -ta, -tä variantlariga ega. Masalan: Altun yišda “Altun vodiysida”, eldä “elda”, alti yaşımta “olti yoshimda”, küntä “kunda”, boyunda “bo‘ynida”. Qadimgi matnlarda ba’zan o‘rin, chiqish va jo‘nalish kelishiklari almashtirib qo‘llangan: ...qağanta körög kelti “xoqondan kuzatuvchi keldi”, Qırqızda yantimiz “qırqızga qaytdik” (To‘n), köňül içintä ot kirdi “ko‘ngil ichiga o‘t kirdi” (TT). 6. Chiqish kelishigi -dan, -dän// -dün, -din// -dun, -dün// -tan, -tän// -tün, -tin// -tun, -tün qo‘shimchalari bilan hosil qilingan: oğuzdan “o‘g‘uzdan”, Täñridän “Tahgridan”, balıqdin “shahardan”, ulušdin “qabiladan”, äldin “eldan”, qantan “qaydan”, yerintän “yerindan”, ağrıqtin “og‘riqdan”, emgäklärintin “mushkullaridan”. 7. Vosita kelishigi qo‘shimchasi -n (-in, -in// -un, -ün// -an, -än) ish-harakatning sodir bo‘lish, boshlanish o‘rni, birgalik, vosita ma’nolarini ifodalaydi: Ötükän ärin qışladim “O‘tikan yerida qishladim”, bu yolın yorisar “agar bu yo‘ldan yursa” (To‘n), oğlin qul bolti “o‘g‘li bilan qul bo‘ldi”, közün körmädük, qulqaqin eshidmadük “ko‘z bilan ko‘rmadik, qulqoq bilan eshitmadik” (KT), sünüğün “nayza bilan”, tilin “tili bilan”, yulduzun “yulduz bilan”. Qadimgi turkiy til va eski turkiy til davriga xos bo‘lgan vosita kelishigining qoldiqlari hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham uchrab turadi: qishin-yozin, ertan, ochin-to‘qin, yupun va h.k.

Otlarning yasalishi. Qadimgi turkiy tilda ot, fe'l, otlashgan so‘z yoki sifatdan ot yasovchi quyidagi qo‘shimchalar mavjud bo‘lgan:

1. -či, -ci qo‘shimchasi. Qalin negizga -či, ingichkasiga -či shakli qo‘shiladi. Bu qo‘shimcha kasb va biror yumush egasini bildiruvchi otyasaydi: bädizçi (bädiz (naqsh) “naqqosh”, yoğçı (yoğ “aza”) “azachi”, ayğuçı (ayğu “maslahat”) “maslahatchi” emçi (em “davo”) “tabib”, bitigçi (bitig “xat”) “kotib”.

-lïq, -lik//lig, lig//luq, -lük//luğ, -lüq qo‘shimchasi. Lablanmagan unlili qalin negizga -lïq, ingichkasiga -lik, lablangan unlili qalin negizga -luq, ingichkasiga -lük shakli qo‘shiladi: ačlıq (aç “och”) “ochlik”, yemishlik (yemis “meva”) “mevazor”, qamışlıq (qamış “qamish”) “qamishzor”, täblig (täb “yolg‘on”) “yolg‘onchi”, burunluq “burunduq”, börlüq (bör “may, sharbat”) “uzumzor”, künlük “kunlik”.

-qan (xan), -kän//-ğan, -gän qo'shimchasi laqab, unvon, geografik va astronomik nomlar tarkibida uchraydi. Qalin negizga -qan, ingichkasiga – kän variant qo'shiladi: täñrikän (Täñri "Xudo") "xudojo'y", bazğan (baz-bas "bosmoq") "bosuvchi", yätikän (yäti "yetti") "Yetti qaroqchi".

-qaq, -käk//-ğaq, -gäk//ğuq, -gük affiksi otga qo'shilib, mahdudlik, chegaralanganlik, fe'lga qo'shilganda esa qurol, vosita ma'nosini bildiradi. Jarangsiz undosh bilan tugagan qalin negizga -qaq, ingichkasiga -käk varianti qo'shiladi: qızğaq (qız "ochko'z") "yomonlik", orğaq (ot "o'rmoq") "o'roq", qaçqaq (qaç "qochmoq") "qochoq", qazğuq (qaz "qazimoq") "qoziq".

-qu, -kü//-ğu, -güqo'shimchasining ham negizga qo'shilish tartibi bundan oldingi qo'shimchaniki singari bo'lib, mavhumlik ma'nosinibildiradi:belgü(bel "tepalik") "belgi", oğlanğu (oğlan "o'g'lon") "yoshlik, bolalik", esängü (esän "eson") "esonlik, omonlik", inçkü (inç "tinch") "tinchlik".

-taš, -täš//-daš, -däš qo'shimchasi hozirgi o'zbek tilidagi -dosh ning o'zidir. Negizga qo'shilish tartibi bundan oldingi qo'shimchaniki singaridir: qadash(<qa"qarindosh") "tug"ishgan".

-ş qo'shimchasi undosh bilan tugagan so'zlarga birikkanda, oldiga tor unli qo'shiladi: bağış (bağ "bog", boylam") "arqon", küsüs (küsä "istamoq") "istak", bögüş (bögü "dono") "tushunish", alqış (alqa "maqtamoq") "maqtov, alqov", uruş (ur "urmoq") "urush".

-sïq, -suq, -sük qo'shimchasi. Birinchi varianti qalin negizga, ikkinchisi ingichka negizga qo'shiladi. Otdan ot yoki sifat yasaydi: kün batsiq (bat "botmoq") "g'arb", kün toğsuq (toğ "tug'moq, chiqmoq") "sharq", bağırsuq (bağır "jigar") "ichak".

-m(-im, -üm, -um, -üüm) qo'shimchasi undosh bilan tugagan negizlarga qo'shilganda, oldida bir tor unli paydo bo'ladi. Bu unlining sifati negizning qalin-ingichkaligi va tarkibidagi unlining lablangan-lablanmaganligiga bog'liq. Fe'lidan anglashilgan harakat bilan bog'liq narsa-predmetni bildiradi: alim(al "olmoq") "qarz" (qarz berganga nisbatan), bärím (bär- "bermoq") "qarz" (qarzdorga nisbatan), ölüm (öl – "o'lmoq") "o'lim", kädim (käd – "kiymoq") "kiyim".

-n, -in, -än, -ün qo'shimchasi. Negizga qo'shilish tartibi -m niki singari bo'lib, fe'l bildirgan harakat natijasida paydo bo'lgan predmetni anglatadi: aqin(aq – "oqmoq") "sel", tärin (tär – "termoq") "jamoa", bulun (bul – "topmoq") "asir", ägin (äg – "egmoq") "yelka".

-ma, -mä qo'shimchasi. Qalin negizga -ma, ingichka -mä varianti qo'shiladi. Fe'l anglatgan harakat natijasida paydo bo'lgan va shu harakatni bajaruvchini ifodalaydi: yälma (yäl "yelmoq") "tez otliq guruh", käsmä (käs "kesmoq") "kokil".

-q, -k, -ğ, -g, -iğ, -ig, -uğ, -üg, -iğ, -ik, -uq, -ük qo'shimchasining ham negizga qo'shilish tartibi -m, -n affikslari singari bo'lib, fe'l ifodalagan harakatni

bajaruvchi va shu harakat bilan bog‘liq predmetni anglatadi: qaraq (qara – “qaramoq”) “ko‘z qorachig‘i”, yazuq (yaz – “yomonlik qilmoq”) “gunoh”, töşäk (töşä – “to‘shamoq”) “to‘shak”, ornağ (orna – “o‘tirmoq”) “o‘rindiq”, qapïg (qap - “yopmoq”) “eshik”, tutuğ (tut - “tutmoq”) “garov”, bılıg (bil – “bilmoq”) “bilim”, körög (kör – “ko‘rmoq”) “kuzatuvchi, ayg‘oqchi”, bıtig (bıt – “bitmoq”) “xat, yozuv”, yaruq (yaru – “yorishmoq”) “yorug‘, nur”.

-č qo‘srimchasi mavhum ot yasaydi: saqinç (saqin- “o‘ylamoq, eslamoq”) “o‘y, fikr”, ökünç (ökün – “o‘kinmoq”) “o‘kunch”, ötünç (ötün – “o‘tinmoq”) “o‘tinch”, taqanç (tarqan – “tarqalmoq”) “tarqalish”, qilinç (qilin – “amalga oshmoq”) “ish, qiliq”.

-ču, -čüqo‘srimchasi qalin negizga -ču, ingichkasiga -čüshakli qo‘shiladi: abinču (abin – “ovin”) “ovinchoq”, ärinçü (ärin – “erin”) “ayb”.

-t qo‘srimchasi fe’ldan anglashilgan harakatni predmetlashtiradi: adırt (adır- “ayirmoq”) “farq”.

-a, -ä, -i, -i qo‘srimchasi. Bu qo‘srimcha variantlarining qo‘shilishi negizning qalin-ingichkaligi va tarkibidagi unlining lablangan-lablanmaganligiga bog‘liq. Harakat natijasini anglatadi: qaya (qay – “qayrilmoq”) “qoya”, yazı (yaz – “yoymoq”) “cho‘l, dala”, ägir (ägir – “buramoq, aylantirmoq”) “egri”.

-ğa, -gä qo‘srimchasi. Negizga qo‘silish tartibi yuqoridagi qo‘srimchaniki singaridir. Fe’l bildirgan harakatga ega shaxsni anglatadi: bilgä(bil – “bilmoq”) “olim, dono”, ögä (ög – “anglamoq”) “oqil”.

-qič, -gač, -guč qo‘srimchasi. Qaysi variantining ishlatilishi negizning qalin-ingichkaligi, oxirgi tovushning jarangli-jarangsizligi va oxirgi unlining lablangan-lablanmaganligiga bog‘liq. Bu qo‘srimcha qurol nomi yasaydi: ačqič (aç – “ochmoq”) “ochqich, kalit”, yulğuç (yul – “yulmoq”) “ombir”, qisşaç (qis – “qismoq”) “qisqich”.

-qin, -gin, -kin qo‘srimchasi. Qaysi variantining qo‘silishi negizning qalinligi, oxirgi bo‘g‘indagi unlining lablangan-lablanmaganligiga bog‘liq, jaranglilik-jarangsizlilik uyg‘unligi buzilishi mumkin. Fe’ldan anglashilgan harakatni bajaruvchi yoki shu harakatga mahkum shaxs ma’nosini bildiradi: qačgın(qaç – “qoch”) “qochqin”, barqin (bar – “bormoq”) “yo‘lovchi”, terkin (ter – “yig‘moq”) “yig‘in, majlis”.

Ko‘k turk manbalarida ot yasalishining analistik shakli ham amal qilgan: bitigtaš“yodgorlik”, sübaşı “sarkarda, lashkarboshi”, kün ortu“Janub”, tün ortu “Shimol”. Qadimgi turkiy tilda kompozitsiya usulida yasalgan toponim va gidronimlar uchraydi: Temir qapïg, Qaraqum, Qara köl, Yinjüögüz, Yaşil ögüz. Ko‘k turk manbalarida “shahar” ma’nosida baliq, uluš, känt (kän-ken), ordu kabi so‘zlarni shahar nomlarining tarkibida ko‘rish mumkin: Beşbaliq, Quzuluš, Quzordu, Tärkän, Äbäkän.

Qadimgi turkiy tilda –ak, äk, -qï, -ki, -čïq, -čik, -č kabi kichraytuv va erkalash affikslari uchraydi: yolaq (yol – “yo‘l”) “so‘qmoq”, oğlançıq (oğlan – “yigit”) “yigitcha”, ataqï (ata – “ota”) “otajon”, anač (ana – “ona”) “onajon”.

Savol va topshiriqlar:

1. Qadimgi turkiy tilda ko‘plik shakli qanday ifodalangan?
2. Egalik qo‘sishimchalarning birlik shakllarini sanang.
3. Jo‘nalish kelishigi qanday shakllarga ega?
4. Qadimgi turkiy tilda nechta kelishik mavjud?
5. Kultegin matnidan yasama ot va sifatlarni toping?

Test sinovi

1. Turkiy tillar morfologik xususiyatlariga ko‘ra qaysi guruhga mansub?
 - A) flektiv
 - B) amorf
 - C) agglyutinativ
 - D) polisintetik
- 2.-lar/-lär, -an,-än, -t (d), -z qanday qo‘sishimcha?
 - A) kelishik
 - B) so‘z yasovchi
 - C) ko‘plik
 - D) sintaktik shakl yasovcni
3. küsüš leksemasi qadimgi turkiy tilda qanday ma’noni ifodalagan?
 - A) shuhrat
 - B) istak
 - C) intilish
 - D) vazifa
- 4.O‘zak va affiksal morfemalarning tabiatiga ko‘ra tillar qanday guruhlarga bo‘linadi?
 - A) agglyutinativ, flektiv, polisemantik, amorf
 - B) agglyutinativ, flektiv, polisintetik, amorf
 - C) agglyutinativ, adyektiv, polisintetik, amorf
 - D) agglyutinativ, flektiv, polisintaktik, amorf
5. közün körmädük, qulqaqin eşidmädük birikmalaridagi közün, qulqaqin so‘zlari qanday qo‘sishimcha olgan?
 - A) tushum kelishigi
 - B) majhul nisbat
 - C) o‘zlik nisbat
 - D) vosita kelishigi

6. - ru -rү; -ra, -rä qaysi kelishik qo'shimchasi?
- jo'nalish kelishigi
 - o'rin-payt kelishigi
 - tushum kelishigi
 - vosita kelishigi
7. Vosita kelishigi qo'shimchasi qatnashgan so'zlarni toping?
- ärin, yolin
 - körün, örtön
 - sabümin, aqin
 - bilin, tapin

Mavzu uchun tavsiya etilgan adabiyotlar:

- Abdurahmonov G., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. -T., 1982. - 182 b.
- Aliyev A., Sodiqov Q. O'zbek adabiy tili tarixidan. -T., 1994. - 96 b.
- Abdurahmonov N. Qadimgi turkiy til. - T., 1989.
- Azimov I., Rahmatov M. Qadimgi turkiy til. (O'quv-metodik qo'llanma). - Toshkent: Nizomiy nomidagi TДПУ, 2005. - 136 б.
- Mutallibov S. Morfologiya ya leksika tarixidan qisqacha ocherk - T., O'zFA. 1959.
- H. Ne'matov. O'zbek tili tarixiy fonetikasi. -T., 1992.-102 b.
- Fozilov E. O'zbek tilining tarixiy morfologiyasi.-T., 1965.
- To'ychiboyev B. O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. - T., O'qituvchi. 1996.
- Кононов А.Н. Грамматика языка тюрско-рунических памятников. - Л.,1980.
- Малов С.Е. Памятники древнетюрской письменности Монголии и Киргизии. М-Л., 1959. - 142 с.
- Sanaqulov U. O'zbek adabiy tili tarixinining ilk davrlari. - T., 2004.
- Qo'chqortoyev I., Isabekov B. Turkiy filologiyaga kirish. -Toshkent: O'qituvchi, 1984. - 112 b.

5-Mavzu: Qadimgi turkiy til morfologiysi: sifat, son, olmosh so‘z turkumlari

Reja:

1. Qadimgi turkiy tilda sifat so‘z turkumi.
2. Qadimgi turkiy tilda son so‘z turkumi.
3. Qadimgi turkiy tilda olmosh so‘z turkumi.

Tayanch so‘z va iboralar: belgi, darajalanish, morfologik usul, sifat yasalishi, miqdor, sanoq son, dona son, tartib son, tub son, hisob so‘zlari, kishilik olmoshi, ko‘rsatish olmoshi, o‘zlik olmoshi, so‘roq olmoshi, belgilash-jamlash olmoshi, gumon olmoshi.

Sifat shaxs va narsaning belgisini bildirish uchun xizmat qiladi. Odatda predmetning belgisi bevosita yoki bilvosita (predmetning boshqa bir predmetga bo‘lgan munosabati orqali) ifodalanadi. Qadimgi turkiy tilda sifatlar ma’nosи va tuzilishiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi: asliy sifatlar va nisbiy sifatlar.

Qadimgi turkiy til davrida **asliy sifatlarning** qo‘llanilishi xarakterlidir. Ularning predmetga xos bo‘lgan quyidagi ma’nolarda kelishini uchratamiz.¹³

Shaxs va narsaning rangini, tusini bildiradi: ala (ola); aq (oq) boz (bo‘z); qara (qora); yaşil (yashil) kök (ko‘k); yağış (qoramtir, kulrang, qo‘ng‘ir); örün (oq, oqish); yürün (oq); qızıl (qizil); üläz (qora, qop-qora); tünärig (qora, dahshatl) kabi.

Shaxs va narsaning xususiyatini bildiradi: ısig (issiq); töla (to‘la); açig (achchiq); qarri (qari); yaş (yosh); sämiz (semiz); ariğ (toza); yüyqa (yupqa); quruq (quruq); ulug (ulug‘); yımshaq (yumshoq); soğug (sovug) kabi.

Shaxs va narsaning sifati xususiyatini, xarakterini bildiradi: alii (qahramon); bilmeli (bilimli); quzğun (botir).

Shaxs va narsaning payt-makonga nisbatan sifatini bildiradi: ıdız (katta, novcha); öj (o‘ng); könı (to‘g‘ri); tüz (to‘g‘ri); ägrı (egri); asra (past); qalin (qalin); sol (chap); şük (to‘g‘ri); qin (to‘g‘ri); ıraq (yiroq) kabi.

Shaxs va narsaning ichki sifatini bildiradi: sü äsän (omon-eson); yäg (yaxshi); käd (bag‘ritosh, rahmsiz, shafqatsiz); ayığ (yomon); yabız yablaq (yovuz); ädgü (ezgu); ığid (yomon, soxta) kabi.

Shaxs va narsaning tashqi sifatini bildiradi: ariq (oriq); täglük (ko‘r); turuq (ozg‘in) kabi.

So‘z asosida ifodalangan shaxs va narsaga, biror xususiyatga ega ekanlikni bildiradi: ärdämlig (yordamli); ärklig (kuchli); yilsig (boy) kabi.

¹³ E.Fozilov

So‘z asosida ifodalangan shaxs va narsaga, xususiyatga ega emaslikni bildiradi: yazuqsuz (gunohsiz); ätlıgsız (etsiz); qorqunçsuz (qo‘rinchsiz) kabi.

Estetik tushunchani bildiradi: kövsäk (chiroyli, kelishgan); sılıq (chiroyli), süsük (pok, toza) kabi.

Shaxs va narsaning bir qator sifat xususiyatlarini bildiradi: bay (boy); çigay (kambag‘al); aç (och); yuguruk (chopag‘on), boş (bo‘sh); ölüg (o‘lik) kabi.

Payt ma’nosida keluvchi sifatlar: bugünkü (bugungi); ämtiqi (endigi, hozirgi); yanii (yangi); yaylığ (yozgi); bängü (mangu) kabi.

Shaxs va narsaning o‘ringa, paytga munosabatini bildiradi: bitigdäki (xatdagi); yärdäki (yerdagi); könültäki (ko‘ngildagi); baliqtaqi (shahardagi); ajuntaqi (dunyodagi) kabi.

Nisbiy sifatlar. Qadimgi turkiy tilda nisbiy sifatlar affiksatsiya va kompozitsiya usuli bilan yasalgan. Quyidagi qo‘sishimchalar asosa sifat, ot va fe’llardan sifat yasaydi:

-liğ, -lig//-luğ, -lüğ qo‘sishimcha otdan sifat yasaydi va egalik hamda nisbatni bildiradi. Lablanmagan unlili qalin negizga - liğ, ingichka negizga -lig varianti qo‘shiladi. Lablangan unlili qalin negizga -luğ, ingichkasiga -lüğ varianti orttiladi: qağanlığ (xoqonli); ekinlig (ekinli); bodunluğ (xalqli); küçlüğ (kuchli); atlığ (otli).

-siz, -siz//-suz, -süz. Bu qo‘sishimcha orqali yasalgan sifatlar shaxs va narsada biror belgi xususiyatni yo‘qligini ifodalaydi: yağsız (dushman); biligsiz (bilimsiz); yolsuz (yo‘lsiz); ögsüz (onasiz).

-saq, -säk. Bu istak bildiruvchi fe’l yasovchi -sa, -sä hamda fe’ldan sifat va ot yasovchi -q, -k qo‘sishimchasining birlashuvidan hosil bo‘lgan. Qalin negizga: **-saq**, ingichka negizga -säk varianti qo‘shiladi: bağırsaq (rahmdil, ko‘ngilchan), keksäk (kekchi).

-sığ, -sig qo‘sishimchasi. Bu qo‘sishimcha otdan sifat yasaydi va o‘xhashlik ma’nosini bildiradi. Qalin asosga: -sığ, ingichka asosga -sig varianti qo‘shiladi: qulsiğ (qulday); bägsig (bekday).

-qi, -ki//-gi, -gi qo‘sishimchasi. Bu qo‘sishimcha ot, ravish va olmoshdan nisbiy sifat yasaydi. Jarangsiz undosh bilan tugagan qalin asosga -qi, ingichkasiga -ki, jarangli undosh bilan qalin asosga -gi, ingichkasiga -gi qo‘shiladi: ayqı (oyga oid), yayğı (yozgi); yiryaqı (shimoliy); suv içräki (suvdag); ajundağı (dunyodagi); üstünk (ustidagi); üstüng (balanddag); ankunğı (so‘nggi); yarınğı (ertalabki); käzingi (keyingi) kabi.

-z, -iz qo‘sishimchasi. Bu qo‘sishimcha fe’l va sifatdan sifat yasaydi: uz (mohir); yäbız (yaba (yovvoyi)+z yovuz, berahm); idız (baland);

-l, -il qo‘sishimchasi. Bu qo‘sishimcha yaşıl (yaş (yangi, yosh)+ il), qızıl (qızar+il) ; tükäl (tükä (tugamoq)+l) tugal; yörünil (yorqin) singari so‘zlar tarkibida uchraydi.

-q, -ğ//-k, -g qo'shimchasi: yaruq (yaru (yorishmoq)+q (yorug'); yumşaq (yumshoq); açıq (achchiq); quruq (quruq); isığ (issiq); sücüğ (shirin); artuq (ortiq); tünärig (ashaddiy); qanıq (dahshatli); ötüg (o'tinchli); soğic (sovuj), tunärig (ashaddiy); kabi.

-nç qo'shimchasi: bulğanç (bilğan(iflos qilmoq)+ç (iflos, bulg'angan), tarqanç (tarqan(tarqal)+ç (tarqoq) kabi.

-çığ, -çig qo'shimchasi: adinçığ (boshqacha, o'zgacha); tanlançığ (hayratli, ajablanarli); yarsinçığ (jirkanchli, dahshatli); qorqinçığ (qo'rqinchli); käyırgänçik (hayajonli, tashvishli); közlänçığ (istakli) kabi.

-dam, -täm: yintäm (doimiy); birtäm (to'la); köndäm (quyoshli); tänridäm (ilohiy) kabi.

- **çıl:** atçıl (otga ko'ngli moyil).

- **kän:** tänrikän (ilohiy), pärikäan (parivash).

- **gün, qin:** quzğun (botir); asqın (osilgan).

Sifat yasovchi affikslarning har xil fonetik variantlarda qo'llanishi ham, boshqa qo'shimchalar singari singarmonizm qonuniga bog'liqdir.

Sifat darajalari. Qadimgi turkiy tilda sifat darajalari sifatlar oldidan biror so'zni qo'llash yoki ularga biror affiksni qo'shish orqali hosil bo'ladi. Xuddi hozirgi o'zbek tilidagidek, to'rt daraja shakli mavjud: 1. Oddiy daraja. Bu darajada belgining ortiq yoki kamligiga munosabat bildirilmaydi. 2. Qiyosiy (ozaytirma) daraja. Bu davr yodnomalarida -raq/-räk affiksi belgining ortiqligini ko'rsatgan. Masalan: yeg (yaxshi) - yegräk (eng yaxshi), artuq (ortiq) – artuqraq (eng ortiq). 3. Orttirma daraja. Orttirma daraja narsa-predmetdagi belgining boshqa narsa-predmetdagi belgidan ortiqligini bildiradi va bunda sifat oldidan anj, äj, anyiğ kabi so'zlar qo'llangan. Bu so'zlar hozirgi o'zbek tilidagi juda, hech kabi so'zlarga to'g'ri keladi: anyiğ ädgu "juda yaxshi", äj ilkı "eng birinchi". 4. Ozaytirma daraja belgining kuchsizligini ifodalaydi va -şıl, -çıl, -mtıl affikslarining qo'shilishi orqali hosil bo'ladi: aqçıl, qaramtil, qarasiman, kökümtıl kabi.

Son. Tilda ma'lum bir guruh so'zlar borki, bular miqdorni, sanoqni, narsa va predmetning sanash, joylashish, bajarilish tartibini bildiradi. Shuni qayd qilish kerakki, turkiy tillarda son sistemasi, har qaysi xalq tilida bo'lgani kabi, birdaniga emas, balki asta-sekin paydo bo'lib o'zgarib kelgan¹⁴. Bunga ko'hna manbalar tilini tadqiq etish jarayonida amin bo'lish mumkin. Zero, yozma obidalarda sonlarning bir necha turlari qo'llanilgan. Bu esa, birinchidan, sonlarni imlo va talaffuz me'yorlarini aniqlash, ikkinchidan, ularning etimologiyasini yoritishda qo'l keladi.

Qadimgi turkiy tilda "nol" yo'q. Sanoq "bir" dan boshlanadi. Inson tug'ilgan chog'da bir yosh sanalgan, ona qornidagi davri qo'shib hisoblangan. Bir yil

¹⁴ Fozilov E. O'zbek tilining tarixiy morfologiysi. – T.: Fan, 1965. – B. 68.

o‘tgach, bola ikkiga to‘lgan.

VI-XI asrlardagi yozma yodgorliklarda songa oid bir xususiyat bor. Bu xususiyat o‘ndan yuqori birligi bor ikki xonali sonlarga taalluqlidir. Bunda birlik son oldin aytilib, undan keyin shu songa oid o‘nlik emas, undan keyingi o‘nlik aytiladi: yätı otuz – (yigirma yetti), bir qırq - (o‘ttiz bir), bir otuz – (yigirma bir). Sanashning bu tartibi XI asrgacha qo‘llangan, XI asrdan keyin esa hozirgidek qo‘llangan.

O‘nlik oldin aytulganda esa undan so‘ng birlikdan oldin “artuqii” so‘zi orttiriladi¹⁵: otuz artuqii to‘rt yashüma (o‘ttiz to‘rt yoshimda).

Sanoq son. Bu turdagи sonlar morfologik ko‘rsatkichlarga ega emas. Sanoq sonlar aniq miqdorni bildiradi: bir, iki, üç, tört, yigirmi, otuz, yüz, mij. Hozirgi o‘zbek tilidagi ikkilangan undoshli sonlarda qadimgi turkiy tilda bir undosh bo‘lgan: ıki – (ikki), yätı – (yetti), sákız – (sakkiz), toquz – (to‘qqiz), otuz – (o‘ttiz), älig – (ellik). Qadimgi turkiy til davrida dona son ma’nosи ko‘pincha sanoq son bilan ham ifodalangan: Süsi üç bınj ärmış“ – (lashkari uch mingta askardan iborat ekan). (To‘n)

Qadimgi turkiy til davri manbalarida sanoq sonlarning qayd etilishi	Hozirgi o‘zbek tilidagi shakli
bir (birr, pırr)	bir
ıki (äki)	ikki
üç	uch
tört, çar (Ungin)	to‘rt
bış (bş bäs)	besh
alti	olti
yiti (ytı, yätı, yıtix)	yetti
sákız	sakkiz
toquz	to‘qqiz
on	o‘n
yigirmi, yägirmi	yigirma
otuz	o‘ttiz
qırq	qirq
älik, älig	ellik
altmış, altmis	oltmish
yitmış	yetmish
sákız on	sakson
toquz on	to‘qson

¹⁵ G‘Abdurahmonov, A.Rustamov. – T.: O‘qituvchi, 1982. – 167-b.

yüz	yuz
minj, binj, bijn	ming
tümän, ban (xit. wan yap. <man)	o'n ming
tük tümän	son-sanoqsiz

Qadimgi yodnomalar tilida astronomik katta sonlarni ifodalovchi so'zlar xitoy, sanskrit kabi tillardan o'zlashgan¹⁶.

Yuqorida keltirilgan sanoq sonlarning aksariyati tub sonlardir. Bu sonlar yordamida sakson, to'qson kabi yasama sonlar hosil qilinadi: säkiz on, toquz on. Tarixiy jihatdan yigirmi, altmis, yitmis sonları ham yasamadir¹⁷.

Yodnomalarda hamma sanoq sonlar bir ma'nolidir. Biroq bir soni bundan mustasno. Bu son o'zining asl ma'nosidan tashqari qandaydir, kimdir, nimadir kabi ma'nolarni ham bildiradi. Masalan: bir tapiğçi – qandaydir xizmatchi (Oltin yoruq, 177), bir baliq – qandaydir bir shahar (Oltin yoruq, 156).

Bir, ikı, üç, tört, bış, altı, yiti, säkiz kabi sanoq sonlar katta miqdordagi sonlarni yashash uchun xizmat qiladi. Qadimgi turkiy til davri matnlarida katta miqdordagi sonlar yasalishida past miqdordagi sondan so'ng o'nliklar keladi: 11 – bir yägirmi (Xuast., 118), 12 – ikı yägirmi (Kt), 13 – üç yägirmi (Kt), 14 – tört yägirmi (Xuast.), 15 – bış yägirmi (To'n), 16 – altı yägirmi (Kt), 17 – yati yägirmi (Kt), 18 – säkiz yägirmi (Mch), 19 – toquz yägirmi (Mch).

Sanoq sonlarning yigirmi (yägirmi) va yüzdan ortiq miqdordagilari ham mavjud: 115 – yüz bäs yigirmä, 145 – yüz bäs ilig (Ungin), 162 – yüz ikı yitmis, 94 – toquz on tört (Ungin), 95 – toquz on bış (U) kabi.

Kultegin va boshqa ayrim obidalar tilida parallel ravishda o'nlikdan so'ng aniq ma'noga ega bo'lgan birlik keladi. Bunda o'nlik va birlik sonlar o'rtasida "artuq'i" (ortiq) so'zi keladi: qirq artuqi yiti yoli (qirq yetti marta (Kt., 30), otuz artuqi tört (o'ttiz to'rt (Mch., 18), otuz artuqi bir (o'ttiz bir (Mch., 17), otuz artuqi säkiz (o'ttiz sakkiz (Mch), bir tümän artuqi yati bijn (o'n yetti ming (Mch., 18).

Demak, hozirgi turkiy tillarda mavjud bo'lgan sanoq tizimining shakllanishi uchun juda ko'p davr o'tgan. Birinchi turdag'i sanash sistemasi faqat uyg'urlar tilida 11dan 30gacha bo'lgan sonlarda saqlanib qolgan¹⁸.

Yodnomalarda 102, 105, 190, 250, 300, 350 kabi sanoq sonlar quyidagi tartibda hosil qilinadi: avval birlik, keyin yuzlik, minglik va boshqalar keladi, msalan, 600 – altı yüz, 700 – yati yüz, 1000 – bijn, 102 – yüz ikı, 105 – yüz bış , 250 – ikı yüz älig, 496 – tört yüz toquz on olti, 190 – yüz toquz on, 40000 – tört tümän, 10000 – on tümän kabi.

¹⁶ Hozirgi turkiy tillarda million, milliard kabi so'zlar hind-yevropa sistemasidagi tillardan o'zlashgan.

¹⁷ Fozilov E. O'zbek tilining tarixiy morfologiysi. – T.: Fan, 1965. – B. 69.

¹⁸ C.E. Малов. К изучению турецких числительных. 1935, стр. 271-277.

Tartib son. Tartib sonlar narsa-predmetning tartibini bildirib -nç, -ınc, -önç, -unç va -ntı, -ndı qo'shimchalari yordamida yasalgan. Barcha tartib sonlar sanoq sonlardan yuqoridagi affikslar orqali yasalgan.

Biroq bir sonining o'zi tartib son yasashda deyarli ishtirok etmaydi. Qadimiy matnlarda birinchi so'zi o'rnida ilkı (ıl oldingi tomon, old+kı so'z yasovchi affiks). İlkı so'zi "birinchi" ma'nosida "Kultegin", "Xuastusnift" kabi yodnomalarda uchraydi: ilkı kün (birinchi kun), ilkı sü (birinchi, oldingi askar) kabi. Nisbatan keyingi davrlardagi yozuv obidalar tilida ilkı so'zi bilan birga bieinchi ma'nosida baştinqi, baştin so'zlari qo'llanilgan: baştinqi ülüş (birinchi bo'lim) (Oltin yoruq, 155) kabi.

Ayrim o'rnlarda bir so'zining o'zi birinchi ma'nosida keladi: bir Kuşal ädgü – (birinchi Kushala ezgu (U.)

-ntı, -ndı qo'shimchalari faqat iki soni bilan qo'llanadi. Yodnomalarda tez-tez kıntı/äkıntı shakllari, ba'zan esa ikindi formasi uchrab turadi. Shuningdek, matnlarda "ikkinchi" ma'nosida **adın** (boshqa ikkinchi) qo'llanadi: ikıntı ajun/adın ajun.

3, 4, 5, 6, 7 va shu kabi tartib sonlar yodgorliklarda -nç affiksi yordamida hosil qilinadi.

Qadimgi turkiy til davri manbalarida tartib sonlarning qayd etilishi	Hozirgi o'zbek tilidagi shakli
ilkı, baştinqi	birinchi
ikıntı, ikındı, adın	ikkinchi
üçüncü	uchinchi
törtüncü	to'rtinchi
bışinci	beshinchi
altinci	oltinchi
yitinci	yettinchi
säkizinci	sakkizinchi
toquzinci	to'qqizinchi
onunci	o'ninchi
bir yigirminci	o'n birinchi iöçäsüning
iki yigirminci	o'n ikkinchi
üç yigirminci	o'n uchunchi
tört yigirminci	o'n to'rtinchi
bış yigirminci	o'n beshinchi
alti yigirminci	o'n oltinchi
yiti yigirminci	o'n yettinchi
säkiz yigirminci	o'n sakkizinchi

toquz yığırminoç	o'n to'qqizinchi
yığırminoç	yigirmanchi

Qadimgi turkiy til davri obidalari tilida jo‘nalish kelishigining affiksi sanoq sonning aniqlanmishi, , hisob so‘zi yo‘q bo‘lgan taqdirda unga qo‘silib keladi va tartib ma’nosini anglatadi: bir otuzqa (yigirma birinchida), yati otuzqa (yigirma yettinchida) (Kt., 33) kabi. Bu hodisa 20dan ortiq bo‘lgan sonlarda ham uchraydi: bir yägirmikä – o‘n yettinchida (Kt., 33), bish yägirmikä – o‘n beshinchida, alti yigirmikä – o‘n oltinchida, säkiz yigirmikä – o‘n sakkizinchida kabi.

Jamlovchi son. Qadimgi turkiy matnlarda jamlovchi sonlar -gü, -ägü, -ägü, --ükü, -kü affikslari yordamida hosil qilingan. -gü qo‘s Shimchasi tarixiy jihatdan qadimgi so‘z yasovchi -gü affiksiga borib taqaladi. Jamlovchi son ma’nosida ko‘p hollarda birdan o‘ngacha bo‘lgan sanoq sonlar qo‘llanadi. Jamlovchi son affiksining bir soniga qo‘silib kelishi “bir”ning qadimda ko‘p ma’noli bo‘lishi bilan izohlanadi: birägü – birov (Ol.y., 154); ikägü, ikigü, ikkikü – ikkov; üçägü, üçkü (To‘n., 61) kabi.

Taqsim son. Bu son turi sanoq songa -räär, -ar, -är, -sar qo‘s Shimchalarini qo‘sish orqali hosil qilinadi: birär (bittadan), birär birär (bitta-bittadan), ikı üçrär (ikki uchtadan), ikirär (ikkitadan), üçär (uchtadan), bışär (beshtadan), altıär (oltitadan), toqusar (to‘qqiztadan), onar (o‘ntadan). Taqsim son hosil qilishda -ar, -är qo‘silganda, bu qo‘s Shimchalardan oldin -r yoki ş (s) tovushlari orttiriladi: altışar, ikirär kabi¹⁹

Bundan tashqari qadimgi turkiy til davri matnlarida vosita kelishigi ko‘rsatkichining ham (-in, -in) taqsim son hosil qilganining guvohi bo‘lishimiz mumkin: birin (bittadan), äkin (ikkitadan) kabi.

-1, -s1, -sı1 kabi egalik affikslari, -din qo‘s Shimchasi ham taqsim son hosil qiladi. Birin (birisi), biri äkisi (biri ikkisi), törtünçi (to‘rtinchisi), ikintisi (ikkinchisi); ikidin (ikkitadan) kabi. (Oltin yoruq, 154-173)

Ba‘zi hollarda taqsim ma’nosи takror yo‘li bilan ham ifodalangan: bir-bir (bittadan), bir-bir är (bittadan kishi) kabi.

Dona son. Bu son turi -ta, -da affikslari yordamida yasaladi. O‘rxun-Yenisey yodnomalarida bu affiks uchramaydi. Qadimgi obidalardan turfon matnlarida keladi: bırtta (bitta), yätmış ikida (yetmish ikkita) kabi.

Chama sonlar. Taxminiy sanoq tushunchasini bildirish uchun affiksatsiya usuli bilan hosil qilingan shakllar eski yodnomalar tilida uchramaydi. Bu ma’no sintaktik usul bilan berilgan, ya’ni quyi tartibdagi birlik soni yuqori miqdordagi son bilan keladi: bir ikı (bir-ikkita), äk üç (ikki-uch), tört baş (to‘rtta beshta) kabi. (To‘n., 62).

¹⁹ N.Abdurahmonov. Qadimgi turkiy til. – T.: O‘qituvchi, 1989. – 153-b.

Hisob so‘zlar. Qadimgi turkiy tilda sonlar bilan bir qatorda hisob so‘zlar ham ishlatilgan. Sanoq tizimida hisob so‘zlar sonlardan so‘ng qo‘llaniladi. Qadimiy bitiklarda hisob so‘zlar vazifasida quyidagilar keladi: **yoli** – (marta): üç yoli (uch marta), tört yoli (to‘rt marta), qirq artuqï yiti yoli (qirq yetti marta), bir ikinti üçünç yoli arizun, alqinzun (bir, ikki, uch marta toza bo‘lsin, yo‘qolsin); **qat, qata** – (marta): ikı qata (ikki marta), üçünç qata (uchinchı marta), üçär qata (uch marta), bish qata (besh marta), birär otuz qata (21 marta) kabi. (Oltin yoruq, 156); **qalın, bağ, bağlıq** – (bog‘): yüz ikı bağ, yüz ikı bağlıq (102 bog‘), alti bağ (olti bog‘), yüz älig qalın (150 bog‘) kabi; **tas küri, kür badır** – (o‘lchov): otuz tas (o‘ttiz o‘lchov), bir kör bor (bir qumg‘on may), yägirmi ikı badır (yigirma ikkp o‘lchov) kabi; **änim** – (qism): üç änüm (uch qism); **türlüg** – (tur, turli): ikı türlüg, üç türlüg, yiti türlüg (Xuast., 118); **türlüğin** – (marta): min türlügin titräyür (ming marta titramoqda), yüz türlügin (yuz marta) kabi; **qurlayu** – (marta): üç qurlayu (uch marta); **yapağ** – (qat): bish yapağ (besh qat) (U., 33); **quvraq** – (to‘da): minglik tümänlig quvraq (minglik tumanlik to‘da); **yaqlığ** – (xil): bir yaqlığ (bir xil) kabi.

Olmosh, qadimgi turkiy tildagi olmoshlar quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lgan:

1. O‘zlik olmoshi o‘zdan tashqari kantu (kandu) so‘zi bilan ham ifodalanadi. O‘z aslida ot bo‘lib, u "nafs" va "jon" ma’nolarida ishlatilgan.
2. Uchinchi shaxs kishilik olmoshi bosh formada o1 shakliga ega bo‘lib, boshqa formalarda a(n) shaklini oladi: anung (uning), angar (unga), anda yoki anta (unda), anun (u bilan).
3. Kishilik olmoshlarining birinchi shaxs birligi man va ban shakllariga, ikkinchi shaxs birligi san shakliga ega bo‘lib, jo‘nalish formasida qalnlashadi banga, manga (menga), sanga (senga).
4. Biz va siz olmoshlarining qaratqich formasi **-n**, jo‘nalish formasi **-na** qo‘sishchasi bilan yasaladi: bizing (bizning), sizing (sizning), bizinga (bizga), sizinga (sizga).
5. Bu olmoshining qaratqich formasi bunung va munung shakllariga va jo‘nalish formasi bunga (r): munga (r) ko’rinishlariga ega.
6. So‘roq olmoshi nima o‘rnida na, qaysi o‘rnida qan(y) u va qayu, qanday o‘rnida naluk ishlatiladi.
7. Birgalik olmoshi hamma o‘rnida hamul va alku iste’mol qilinadi.
8. Belgilash olmoshi har o‘rnida sayu ishlatiladi.
9. Inkor olmoshi hech o‘rnida nañ iste’mol qilinadi

Qadimgi turkiy tilda olmosh o‘ziga xos tasnifga ega. Qadimiy bitiklarda mavjud bo‘lgan olmoshlarni ma’no va vazifasi jihatidan quyidagi olti guruhga ajratish mumkin:

1. Kishilik olmoshlari qadimgi turkiy til davri yodnomalarida juda keng iste'molda bo'lgan. Tarixan turkiy tillarda kishilik olmoshlari I va II shaxsda maxsus so'zlar bilan ifodalangan, III shaxs kishilik olmoshi ko'rsatish olmoshi sifatida qo'llangan. I shaxs kishilik olmoshi yodnomalarda män va bän shakllariga ega. Bän shakli "To'nyuquq", "Moyunchur", "Yenisey" matnlarida uchraydi, kelib chiqishi jihatidan o'g'uzchadir. Män yodnomalarda bänga nisbatan ko'proq uchraydi. U "Kultegin", "Irq bitigi", "Oltin yoruq", uyg'ur, Turfon matnlarida keng iste'molda bo'lgan.

II shaxs kishilik olmoshi sifatida sän qo'llanadi. I va II shaxs ko'pligi biz, siz so'zlari orqali ifodalananadi. Siz olmoshi ko'plik va hurmat ma'nolarida keladi. Runik obidalar tilida uning ko'plik ma'noda qo'llanishi qayd etiladi. So'ngroq hurmat ma'noda kelishini uchratamiz: siz tänrim (siz tangrimsiz), sizlär kirtinizlär (sizlar kirdingizlar) kabi.

Ko'rsatish olmoshlari ol, bu, mun, anï, anta, udu, ul, u, oni, oşa, oşul, oşal, usbu va boshqa shunga o'xshash ko'rinishlari bo'lgan. VI-X asrlarda ko'proq ol olmoshi qo'llangan: Ol äki kisi (To'n), bu yolun (To'n), anta (To'n), oшу (Ung) kabi ko'rsatish olmoshlari ishlatilgan. Bu olmoshlarning funksiyasi turlicha bo'lgan. Jumladan, anta ko'rsatish olmoshi öşa, ösanda, ösanday, su kabi olmoshlar o'rnida qo'llanilgan.

Bu, mun olmoshi fazo va masofa nuqtai nazaridan yaqindagi predmetlarni ko'rsatadi. Ol esa uzoq masofadagi narsa va predmetni ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Vaqt va zamon nuqtai nazaridan esa bu, mun olmoshlari yaqin vaqt ichida bo'lgan voqeа-hodisani bildirsa, ol, (ul, u) olmoshi esa ilgari bo'lib o'tgan voqeа-hodisani ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Ol (ul, u) olmoshi nutq momentida hozir bo'lмаган shaxs yoki predmetni ko'rsatadi. Shu sababli ham, yuqorida qayd qilinganidek, ol (ul, u) olmoshi kishilik olmoshlari funksiyasini ham bajaradi.

Qadimgi turkiy tilda uş, usbu, oşa, oşal, oşul, än, şul kabi olmoshlar predmet, shaxs, voqeа-hodisa yoki ish-harakatning nutq vaqtida mavjud ekanligini ta'kidlab va ajratib ko'rsatish uchun ishlatilgan. Ko'rsatish olmoshlari kelishiklar bilan turlanganda, olmoshlar tarkibida fonetik o'zgarish sodir bo'ladi.

Olmoshlarning turlanish jarayonida fonetik o'zgarish holatlari

Bosh kelishik	ol, bul, ul, u
Qaratqich kelishigi	anij, munuj
Tushum kelishigi	anï, bunï, oni, munun
O'rin kelishigi	anda, bunda, anta, müntä
Jo'nalish kelishigi	ana, büna, ona, muna
Chiqish kelishigi	andin, mundin, ondin
Qurol-vosita kelishigi	anin, onin, munun

So‘roq olmoshlari. Qadimgi turkiy tilda kım, näkä (nega), nä, qanï, näçük, näçä-näçä, nälük, näçä, nätäk, qay, näki kabi so‘roq olmoshlari qo‘llanilgan. VI-X asrlarda näkä, näj-näj, nä, qanï, kım, näçük, nägä-nägä kabi so‘roq olmoshlari ko‘proq ishlatilgan. Näj-näj so‘roq olmoshi esa faqat VII-VIII asr obidalariga xosdir: Näj-näj sabüm ärsär bañgu taşqa urtüm (Kt) – (Nimaiki so‘zim bo‘lsa, mangu tanga o‘yib yozdim).

Birgalik olmoshlari. Qadimgi turkiy tilda qamuğ, änçä (bälçä), alqu, qop, öküş, öguş, tümän, täm kabi birgalik olmoshlari ishlatilgan. Birgalik olmoshlari ot, sifat, son o‘rnida kelib, narsa va predmet miqdorini, sanog‘ini bildirgan. VI-X asrlarda alqu, qop birgalik olmoshlari ishlatilgan bo‘lsa, XI asrdan keyin uning ekvivalenti sifatida arab tilidan o‘zlashgan hama (hamma) va jam kabi birgalik olmoshlari ishlatilgan.

Belgilash olmoshlari. Qadimgi turkiy tilda täkmä, sayu kabi belgilash olmoshlari bo‘lgan. Belgilash olmoshlarining asosiy vazifasi hozirgi o‘zbek tilidagi singari, predmet yoki voqeа-hodisani ajratib ko‘rsatish, ta’kidlash va ma’noni kuchaytirish uchun xizmat qiladi.

O‘zlik olmoshi. Qadimgi turkiy tilda öz dan tashqari, käntü (kändü) so‘zi ham ishlatilgan. Öz aslida ot bo‘lib, «nafs» va «jon» ma’nolarida ishlatilgan. O‘zlik olmoshi ma’nosи va grammatik xususiyatlari jihatidan hozirgi turkiy, jumladan, o‘zbek adabiy tilidagi o‘zlik olmoshidan farq qilmaydi. Öz olmoshi aniqlovchi vazifasida kelib, aniqlanayotgan narsa-predmetning ma’lum shaxsga qarashliligi, xosligini ta’kidlaydi: Özüm qarı boltim (o‘zim qaridim) (To‘n).

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Qadimgi turkiy tilda sifatning morfologik xususiyatlari haqida ma’lumot bering.
2. Sifatlarning ma’no turlari va darajalari borasida mulohaza yuriting.
3. Sonning tuzilishiga ko‘ra turlari va ularning hosil bo‘lish usullarini aytинг.
4. Hisob so‘zlarining shakllanish jarayoni, otlinning hisob so‘zlarga aylanishi haqida ma’lumot bering.
5. Olmosh turkumining o‘ziga xos xususiyatlarini bayon eting.
6. Olmoshlarning tuzilishiga ko‘ra turlari haqida mulohaza yuriting.

Test sinovi

1. örүнж so‘zi qanday ma’noni bildiradi?
A) oq rang
B) yashil rang
C) ko‘pik
D) kulrang

2. qağanlıq, äkinlig, bodunluq so‘zlaridagi -lıq, -lig, -luq qo‘shimchasi qaysi so‘z turkumiga oid? A) ot so‘z turkumi
B) ravish so‘z turkumi
C) shakl yasovchi qo‘shimcha
D) sifat so‘z turkumi
3. yıgræk so‘zi qaysi darajaga mansub?
A) oddiy daraja
B) orttirma daraja
C) ozaytirma daraja
D) qiyosiy daraja
4. säkiz ältmiş qaysi sonni ifodalaydi?
A) 68
B) 78
C 58
D) 88
5. Qadimgi turkiy tildagi tartib sonlarning asosiy modelini belgilang?
A) bir kam qırq
B) uch yigirmi
C) qırq iki
D) toqız on
6. ikinti sonning qaysi turini bildirgan?
A) dona son
B) taqsim son
C) chama son
D) tartib son
7. käntü(kändü) olmoshning qaysi turiga kiradi?
A) o‘zlik olmnoshi
B) kishilik olmoshi
C) shahar degani
D) birgalik olmoshi
8. ol, bu, anta, bol, anï kabi ko‘rsatish olmoshlari nechanchi asrlarda qo‘llangan?
A) VI-X
S) VII-X
B VIII-IX
D) X – XI

Mavzu uchun tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G‘., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. -T., 1982. - 182 b.
2. Aliyev A., Sodiqov Q. O’zbek adabiy tili tarixidan. -T., 1994. - 96 b.
3. Abdurahmonov N. Qadimgi turkiy til. - T., 1989.
4. Azimov I., Rahmatov M. Qadimgi turkiy til. (O’quv-metodik qo’llanma). - Toshkent: Nizomiy nomidagi ТДПУ, 2005. - 136 б.
5. Mutallibov S. Morfologiya ya leksika tarixidan qisqacha ocherk - T., O‘zFA. 1959.
6. H. Ne’matov. O’zbek tili tarixiy fonetikasi. -T., 1992.-102 b.
7. Fozilov E. O’zbek tilining tarixiy morfologiyasi.-T., 1965.
8. To‘ychiboyev B. O’zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. - T., O‘qituvchi. 1996.
9. Кононов А.Н. Грамматика языка тюрско-рунических памятников. - Л.,1980.
10. Малов С.Е. Памятники древнетюрской письменности Монголии и Киргизии. М-Л., 1959. - 142 с.
11. Sanaqulov U. O’zbek adabiy tili tarixinining ilk davrlari. - T., 2004.
12. Qo‘chqortoyev I., Isabekov B. Turkiy filologiyaga kirish. -Toshkent: O‘qituvchi, 1984. - 112 b.

7-Mavzu: Morfologiya. Fe’l so‘z turkumi.

Reja:

1. Qadimgi turkiy tilda fe’l so‘z turkumi.
2. Qadimgi turkiy tilda zamon kategoriyasi, shaxs-son kategoriyasi, mayl kategoriyasi.
3. Qadimgi turkiy tilda fe’l yasalishi.

Tayanch so‘z va iboralar: zamon kategoriyasi, shaxs-son kategoriyasi, mayl kategoriyasi, tuslanish, bo‘lishli-bo‘lishsizlik, nisbat kategoriyasi, fe’lning vazifaviy shakllari, harakat tarzi shakllari, ko‘makchi fe’llar, fe’l yasalishi, sodda fe’llar, qo‘shma fe’llar.

Fe’l boshqa so‘z turkumlariga nisbatan eng amaliy, eng murakkab va ayni vaqtida semantik jihatdan rang-barang grammatik kategoriyadir. Fe’l sintaktik konstruksiyalarda markaziy o‘rinni egallaydi, gap strukturasini belgilaydi, uning qanday ma’noli so‘zlardan tarkib topishini bildirish imkoniga ham ega bo‘ladi. Demak, fe’l morfologiyada muhim o‘rin tutadi. So‘z turkumlari ichida asosiy

o‘rinni otlar va fe’llar tashkil qilishi e’tiborga olinsa, uning keng qamrovli ekanligi anglashiladi. Qadimgi turkiy tilda fe’l o‘zining leksik-semantik xususiyatlariga ega. Fe’llar zamon va makondagi ish-harakat, shuningdek, predmet va hodisalar jarayonini ifodalaydi.

Qadimgi turkiy tildagi fe’llarni ikki guruh – mustaqil fe’llar va ko‘makchi fe’llarga bo‘lish mumkin. Mustaqil fe’llar gapda biror so‘zni boshqarib keladi. Yordamchi fe’llarda bunday xususiyat bo‘lmaydi. Bu fe’llar mustaqil fe’llar bilan kelib, mustaqil fe’lning ma’nosiga qo‘sishimcha ma’no berishga xizmat qiladi. Qadimgi turkiy tilda alqıntı (tugadi), ölti (o’ldi), boltı (bo’ldi), berti (berdi) kelti (keldi) kabilar eng faol qo‘llangan mustaqil fe’llardir. Biroq mustaqil fe’llar ko‘makchi fe’llar vazifasida ham ishlatilgan. Ko‘makchi fe’llar sifatida ertı (edi), ermış (emish), ärinch (ekan), ersä (esa) kabilarni ko‘rsatish mumkin: qağan ermış “xoqon ekan”, alp qağan ermış “bahodir xoqon ekan” (BX).

Fe’l turkumiga mansub so‘zlar shaxs-sonda tuslanishi, mayl, bo‘lishli, bo‘lishsizlik, fe’l nisbatlari, zamon kategoriyasiga ega bo‘lishi, funksional shakllarga egaligi singari xususiyatlari bilan boshqa so‘z turkumlaridan farq qiladi.

Mustaqil fe’llar. Mustaqil fe’llar gapda sodda kesim vazifasida ishlatiladi va o‘ziga mansub bo‘lgan so‘zni boshqarib keladi: Tonyuquqa, bärjä aydi “To‘nyuquqqa, menga aytdi” (To’n). Tägdimiz, yaydımız “hujum qildik, tor-mor etdik” (To’n). Mustaqil fe’llarni harakatning obyektga bo‘lgan munosabatiga qarab, obyektli fe’llar va obyektsiz fe’llar kabi turlarga ham bo‘lish mumkin.

Obyektli fe’llar tushum kelishigidagi so‘zlarni boshqarsa, obyektsiz fe’llar esa bunday xususiyatlarga ega bo‘lmaydi. Shuningdek, fe’llar qadimgi turkiy tilda ham yetakchi va ko‘makchi fe’llardan tashkil topadi: tıkä bärtim “tikib, o‘rnatib berdi”, uča barti “uchib bordi (ko‘chma ma’noda “vafot etdi”)”, basa kältili “bosib keldi” (BX) kabi.

Ko‘makchi fe’llar. Ko‘makchi fe’llar bevosa bo‘lgan harakatni bildirmaydi, balki yetakchi fe’llardan keyin kelib, yetakchi fe’lning ma’nosini kengaytirib, qo‘sishimcha ma’no ifodalashga xizmat qiladi. Qadimgi turkiy tilda ko‘makchi fe’llarga ät-, başla-, tur-, yur-, bär-, yat-, ol-, qoy- kabilarni ko‘rsatish mumkin. Bularning ko‘makchi fe’l vazifasi kontekstda reallashadi.

To‘liqsiz fe’l. To‘liqsiz fe’llar mustaqil holda ishlatilmaydigan fe’l turidir. Hozirgi o‘zbek hamda o‘zga turkiy tillarda ham ädi, äkän, ämiš, ämäs kabi to‘liqsiz fe’llar mavjud bo‘lsa, qadimgi turkiy tilda ham ana shu fe’llarning turli arxaik ko‘rinishlari ko‘zga tashlanadi. Bular ärmis, ärtii, ärsä, ärinč kabi shakllardir. Ärinč so‘zi ba’zi o‘rinda to‘liqsiz fe’l (ekan) vazifasida ishlatilgan. Bu so‘z to‘liqsiz fe’l vazifasida X asrdan keyin arxaiklashib modal ma’noda ishlatila boshlaydi. Ärinč, ärti, ärmis to‘liqsiz fe’llari harakat ma’nosini ifodalamaydi, ammo shaxs-sonda tuslanadi. Biroq bu affiks qo‘shma fe’lning birinchi

komponentiga tegishli bo‘ladi. Shuningdek, mustaqil va ko‘makchi fe’lga xos bo‘lishli-bo‘lishsizlik, nisbat, zamon kategoriyalariha ham ega emas. Masalan: Adürlimišda saqinur ärtimiz – “Vafot etganda biz g‘am chekdik” (BX).

Fe’lning bo‘lishli va bo‘lishsizlik kategoriyasi. Qadimgi turkiy tilda fe’llar bo‘lishli va bo‘lishsiz shaklda bo‘ladi. Bo‘lishli shaklda hech qanday qo‘shimcha qo‘shilmaydi: ölürti “o‘lardi”. Bo‘lishsiz shakli esa fe’llarga -ma, -mä affiksini qo‘shish yoki ermäs yoki yoq so‘zleri yordamida ifodalanadi: qatun yoq bolmiş erti “malika yoq erdi” (To‘n); barma, kelmä, qılma, alma.

Tuslanish. Qadimgi turkiy tilda ham fe’llar shaxs-sonda tuslanadi. Ammo shaxs-son formalari hoziridan farq qiladi. Birinchi guruhda birinchi va ikkinchi shaxs birlik hamda ko‘plikda kishilik olmoshlari birinchi va ikkinchi shaxs predikativ affiksi sifatida keladi: Birlik ko‘plik I shaxs -män/ bän/ -büz, -biz; II shaxs -sän, -süz, -siz; III shaxs – ba’zan ol, bu, turur -lar, -lär. Shaxs-son affikslarining mazkur shakllari -miš, -miš, -b (-ub, -üb, -ib, -ib), -a, -ä, -r(-ar, -är, -ur, -ür), -tači, -täči, -dači, -däči kabi zamon formalarini olgan fe’llarga qo‘shiladi: baramişman “borganman”, turabız “turamiz”, turarsiz “turarsiz”, qaltačibız “qolganmiz” kabi. II guruh paradigmasi egalik affikslari ishtirokida tuziladi. Birlik ko‘plik I shaxs -m, -müz, -miz, -muz, müz, -maz, -mäz; II shaxs -ŋ, -ŋüz / -lar/, -ŋiz /-lär; III shaxs -i, -i ba’zan ol, turur. Masalan, kelürtüm “kelturdim”, bartum “bordim”, basdümiz “bosdik”, süjüştümüz “urushdik”. Shaxs-son affiksining qisqargan formalari -dī, -di, -ti, -ti affiksi bilan tugagan fe’llarga qo‘shiladi. Masalan: sančdim, körünjiz.

Fe’l mayllari. Fe’l mayllarining quyidagi turlari bor: 1) buyruq mayli; 2) istak mayli; 3) shart mayli; 4) aniqlik mayli. Qadimgi turkiy tilda fe’lning buyruq mayli formasi turli shaxslarda turlicha bo‘lgan. Bu mayl o‘zak-negizga -gil, -gil, -qil, -kil, -iŋ, -iŋ (lar) kabi qo‘shimchalarni qo‘shish bilan hosil bo‘ladi: qilgil, eşidiŋ, bilin. Buyruq shaklining ikkinchi shaxs birligi fe’lning bo‘lishli va bo‘lishsiz negizi bilan bir xildir, ko‘pligi esa birlik shakliga -n qo‘shimchasini qo‘shish orqali hosil qilinadi: -ay, eşid-, barin “boring(iz)”, oluruŋ “o‘tiring(iz)”, emgätmäŋ “qiynamang(iz)”. Buyruqning -qil, -kil; -gil, -gil formasi ham bor: baqqil, qačgil, bilgil, kelgil. Buyruq shaklining uchinchi shaxsi -zun, -zün, -su, -sü qo‘shimchasi bilan yasaladi: barzun “borsin”, yarlaqazu “yorlaqasin”, bolzu “bo‘lsin”, yitmäzün “yo‘qolmasin”. Fe’l asosiga -ayin, -äyin, -yin, -yin, -alim, -älim, -lim, -lim, -zun,

-zün, -sun, -sün affikslarining qo‘shilishi orqali fe’lning istak mayli hosil bo‘ladi. Bunday fe’l formalari istak, iltimos, xohish va boshqa shunga o‘xhash ma’nolarni ifodalaydi. Istak formasining birinchi shaxs birligi -(a)yin, -(ä)yin, ko‘pligi -alim,

-älim qo‘shimchasi bilan yasaladi: bolayin “bo‘layin”, tilayin “tilayin”,

adrilmalim “ayrilmaylik”, ötünälim “o’tinaylik”, azmalim “adashmaylik”. Shart maylining -sar, -sär shakli runik, uyg’ur, moniy, brahma yozuv obidalarida uchraydi. Uning qisqargan shakli -sa, -sä Turfon matnlarida -sar, - sär bilan parallel qo’llangan. Masalan: alsar, oqitsar, ičsär, kelsär, barsa, eśidsä va h.k. Fe’lning shart mayli shakli ish-harakatning bajarilishidagi shartni bildiradi. Aniqlik mayli. Aniqlik mayli maxsus qo’shimchaga ega emasligi bilan yuqoridagi mayl turlaridan farq qiladi. Fe’lning o’tgan, hozirgi va kelasi zamon formalari aniqlik maylida bo’ladi.

Fe’llarda zamon esa -ur, -ür, -ar, -är, - ir, -ir, -yur, -yür, - galir, -gälir, -dači, -däči, -gay, -gäy, -gu, -gü, -ğuluq, -gülük, -tur, - tur, -duq, - dük, -tüg, -tig, -erti, -müs, -miš, -muşerti, -tüci ermiş va boshqalar orqali yasaladi va aniqlik maylida keladi. Masalan: barur, körür, tiläyür, atqalir “otadi”, qaltači “qolgan”, bolgay va h.k. Qadimgi turkiy tilda ham fe’lning uch xil shakli mavjud: o’tgan zamon fe’li, hozirgi zamon fe’li, kelasi zamonfe’li. O’tgan zamon fe’li. Fe’l o’zaklariga -di, -di, -ti, -ti, -duq, - dük, -tuq, -tük, -müs, -miš, -miš+erti, -yür erti, -gay erdi kabi affikslarni va shaxs-sonni qo’shish bilan fe’lning o’tgan zamon shakli hosil bo’ladi: saqıntı “o’yladi”, toqidi “to‘qidi”, bitdi, qalmaduq, körmädük, tutmüs, idmüs “yuborgan”, qilmüs erti, sävälayür erti, bolmağay erdi. Birlik va ko’plik I shaxs qiltim, qiltimiz; II shaxs kiltij, qiltijiz; III shaxs qilti, qilti. Bu affikslar orqali hosil bo’lgan o’tgan zamon fe’li ish-harakatning o’tmishda aniq bajarilgani, so’zlovchining o’zi ko’rgan va bilganlari haqidagi aniq xabarni ifodalaydi. Hozirgi zamon fe’li -ur, -ür, -ar, -är, -yur, -yür, -ir, -ir va shaxs-son affikslarini qo’shish orqali hosil bo’ladi. Birlik va ko’plik I shaxs barurman, barurmiz; II shaxs barursan, barursiz; III shaxs barur, barur. Bu fe’l formasi ish-harakatning davom etishi, qanday vaqtida sodir bo’layotganini ifodalaydi: qazğanur “qozonur”, işläyür, sözläyür, saqinurman “o’ylayurman”, mengläyürmän “xursand bo’lurman”. Kelasi zamon fe’li. Qadimgi turkiy tilda kelasi zamon fe’lini hosil qilish uchun fe’l o’zagiga -gu, -gü -qu, -kü, -gay, -gäy va shaxs-son affikslari qo’shiladi: bolgay, kelgay, bargusii, bargumiz, barğunjiz.

Fe’l nisbatlari. Ma’lumki, fe’l nisbatlari ish-harakatning bajaruvchiga bo’lgan munosabatini bildiradi. Bu munosabat fe’l o’zagiga maxsus affikslar qo’shilishi orqali ifodalanadi. Fe’l nisbatlari aniq nisbat, o’zlik nisbat, majhul nisbat, orttirma nisbat va birgalik nisbatlarga bo’linadi. Aniq nisbat. Aniq nisbat maxsus affiksga ega emas. Harakatning ega bilan ifodalangan shaxs yoki narsa-predmet tomonidan bajarilgani yoki bajarilmaganini ko’rsatadi. Masalan: Kögmän yişiğ yorip – “Ko’gman vodiysiga borib” (KT). O’zlik nisbat fe’l o’zaklari unli bilan tugaganda -n, undosh bilan tamom bo’lganda -in, -in, -un, - ün qo’shimchasi bilan hosil qilinadi: körün, qilin, bilin, qarğan “qarg’amoq”, qolun “tilanmoq”, tapin “topinmoq”. Majhul nisbat. -l, -q (-k) majhul nisbat formasini yasaydi.

Undosh bilan tugagan negizga qo'shilganda oldida bir tor unli paydo bo'ladi, uning sifati o'zakning qalin-ingichkaligi va oxirgi bo'g'indagi unlining lablangan-lablanmaganliga bog'liq: adr'il "ayrilmoq", teril, ac'il, saç'il, buzul, basiq, boluq, alsiqdii "olindi". Orttirma nisbat. Fe'l negizlariga -t,-ut, -üt, -it, -it, -r, -ur, -ür, -ir, -ir, -tur, -tür, -dir, -dir, -dur, -dür, -gur, -gür affikslarning qo'shilishi bilan hosil bo'ladi²⁰. Qadimgi turkiy tilda quyidagi orttirma nisbat qo'shimchalari bor: 1. -z, -uz, -üz qo'shimchasi. So'z undosh bilan tugaganda, oldida bir tor unli paydo bo'ladi: tutuz "tutqizmoq", tuyuz "sezdirmoq", altiz "oldirmoq", ütüz "yutqizmoq". 2. -r qo'shimchasi. Negiz undosh bilan tugaganda, oldida asosan tor, ba'zan keng unli paydo bo'ladi: ketär "ketkizmoq", yashur "yashirmoq", olur "bo'lur", küyür "kuydir". 3. -t qo'shimchasi. Negiz undosh bilan tugaganda, oldida bir tor unli paydo bo'ladi: oqit "o'qitmoq", küçät "zo'rlatmoq", sevit "sevdirmoq", sülät "lashkar tortmoq", yarat "yaratmoq". 4. -tur, -tür, dur, -dür qo'shimchasi: aqtur "oqizmoq", bintur "mindirmoq", yüküntür "yukuntir", eşitdür "eshittir", yedür "yedirmoq". 5. -qur, -kür, -gur, -gür qo'shimchasi: turqur "turg'iz", azgur "adashtirmoq", tırgür "yashatmoq", yatgür "yotqizmoq". Birgalik nisbat. Fe'l o'zak-negizlariga -š (-uš, -üs, -iš, -iš) affiksi qo'shilishi bilan fe'lning birgalik darajasi hosil bo'ladi. Undosh bilan tugagan negizga qo'shilganda oldida tor unli paydo bo'ladi: baqish "bir-biriga qaramoq", oqush "chaqirishmoq", sözläš, ökläš "urushmoq, olishmoq", talaš "talashmoq".

Fe'l yasalishi. Qadimgi turkiy tilda ham xuddi hozirgi o'zbek tilidagi kabi 2 xil usul bilan fe'l yasalgan: morfologik va sintaktik usul. Morfologik usul bilan fe'l yasalishi mahsuldor hisoblanadi. Quyidagi qo'shimchalar faol sanaladi:

-a, -ä/-i, -i/-u, -ü qo'shimchasi ot va sifatdan fe'l yasaydi: at "ot" – ata - "atamoq", tüz "to'g'ri" – tüzä - "to'g'rilamoq", aš "ovqat" – aşa - "ovqatlanmoq", tar "tor" – taru - "toraymoq", qur "quruq" – quru - "quritmoq".

-la, -lä qo'shimchasi otdan fe'l yasaydi: yay "yoz" – yayla - "yozni o'tkazmoq", sü "lashkar" – sülä - "lashkar tortmoq", at "ot" – atla - "ot solmoq", bädiz "naqsh" – bädizlä - "naqsh solmoq". 3. -lan, -län qo'shimchasi ot va sifatdan fe'l yasaydi: qan "xon" – qanlan - "xonlik bo'lmoq", qatiğ "qattiq" – qatiğlan - "chiniqmoq", yarıq "sovut" – yarıqlan - "sovut kiymoq".

-ad, -äd qo'shimchasi: qul "qul" – qulad - "qul qilmoq", künj "joruya" – künjad - "joriyaga aylantirmoq", qut "baxt" – qutad - "baxtli qilmoq", yig "yaxshi" – yigäd - "yaxshilamoq".

-iq, -ik qo'shimchasi otdan fe'l yasaydi: taš "tashqari" – taşıq - "tashqari chiqmoq", taq "tog" – tağıq - "toqqa chiqmoq", iç "ichkari" – içik - "ichkari kirmoq", yol "yol" – yoluq - "yo'liqmoq".

²⁰ Fozilov E. O'zbek tilining tarixiy morfoloyigasi. – T.: Fan, 1965. – B. 126.

-sïra, -sirä qo'shimchasi otdan fe'l yasaydi va «sizlan» ma'nosida ishlatiladi: qagan "xoqon" – qagansïra - "xoqonsiz bo'lmoq", el "davlat" – elsirä - "davlatsizlanmoq", tatïg "tot, ta'm" – tatïgsïra - "totsizlanmoq", ög "aql" – ögsirä - "behush bo'lmoq". **--sa, -sä** qo'shimchasi ot va fe'ldan fe'lyasaydi: et "go'sht" – etsä - "go'sht siradi", ač - "ochmoq" – ačsa "ochmoqchi bo'lmoq", körög "ko'rish" – körügsä - "ko'rmak istamoq", barığ "borish" – barığsa - "bormoq istamoq".

-ta, -tä/ -da, -dä qo'shimchasi: ün "ovoz" – üntä - "undamoq", is "iz" – istä - "izlamoq", al "hiyla" – alda - "aldamoq".

-qar, -kär, -ğar, -gär qo'shimchasi: qodi "quyi" – qodi qartur- "pastlatmoq", čin "rost" – činğar - "rostlamoq", baş "boshliq" – başgar "boshqarmoq", köňül "ko'ngil" – köňulkär - "o'yłamoq", töz "asos" – tözkär - "asoslamoq", ič "ich" – ičkär - "ichkarilatmoq".

-qa, -kä qo'shimchasi: yarlığ "buyruq" – yarlıqa - "buyurmoq", erinč "baxtsiz" – erinčkä - "g'am yemoq".

Sintaktik usul bilan fe'l yasalishi. Sintaktik usul bilan qo'shma (juft va takroriy) fe'llar hosil bo'ladi. Qo'shma fe'llarning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, ularning yetakchi komponenti sifatida ot, sifat va otlashgan so'zlar qatnashadi. Qadimgi turkiy tilda yetakchi fe'lga qo'shimcha ma'no ottenkalari quyidagi ko'makcni fe'llari orqali beriladi: süyläyü ber "urishib bermoq", iltü ber "eltib bermoq", yanıp kel "qaytib kelmoq", adırılı bar "ajralib ketmoq", yatu qal "yotib qolmoq", qolu tur "so'rab turmoq", alii olur "yig'ib olmoq", yep qod "yeb qo'ymoq", küyütut "saqlab turmoq", učup bar "uchib ketmoq". Qadimgi turkiy tilda qo'shma fe'llar ermiş, erinč, ersär formasi orqali ham hosil bo'ladi. Ermiş formanti sifatdosh formalari bilan birikib, qo'shma fe'l hosil qiladi. Jumladan, bu formant -ur, -ür sifatdoshi bilan birikib, tugallanmagan o'tgan zamon fe'lini yuzaga keltiradi. Masalan: Qağanı alp ermiş, ayğuçisi bilgä ermiş – "Xoqoni botir ekan, maslahatchisi dono ekan" (To'n). Xuddi shunday ma'no ərmish formantining -miş, -miş sifatdoshi bilan birikishidan ham hosil bo'ladi: adığlı toñuzlı art üzä soquşmii şermiš – "ayiq bilan to'ng'iz dovon ustida to'qnashgan" (KT). Ärinč formanti aslida är-in-č shaklida morfemalarga bo'linuvchi ermaq so'zining o'zlik darajasidagi formasidan yasalgan. Chunki shu yo'l bilan yasalgan va kishining histuyg'usi, psixologik ahvolini anglatuvchi sevinč, qorqinč, quvanč, išanč, saqinč, ökinč kabi otlar borki, bular ham tuzilishi jihatdan shu so'zga o'xshaydi. Ammo ärinč so'zi hozirgi turkiy tillarning birortasida uchramaydi. Yodgorliklarda ham bu so'z qadimgi so'z yasash usulining qoldig'i sifatida ko'zga tashlanadi. Ammo ärinč so'zidagi «č» elementi qanday affiks ekanligi hozircha aniq emas. Ärinč so'zi qo'shma fe'l tarkibida yoki ot-kesimda bog'lama sifatida kelib, ichki his-tuyg'u bilan bog'liq bo'lgan ish-harakatni ifodalaydi. Masalan: Ani üçün älig anča tutmüs ärinč – "Shuning uchun davlatni shu tarzda tutgan shekilli" (KT). -sar, -sär fe'l

o‘zagiga qo‘shilganda, shart ma’nosidan tashqarida ish-harakatni bajarishga bo‘lgan intilish, istak ma’nolarini ifodalash uchun ham xizmat qiladi. Shuning uchun ham ersär formanti bilan kelganda qo‘shma fe’llar ish-harakatining sharti, istagi, zaruriyatini bildiruvchi modal forma sifatida ishlatiladi: Ёraq ärsär yablaq ağı bärür, yağıq ärsär ädgü ağı bärür – “Yiroq bo‘lsa, yomon ipak beradi, yaqin bo‘lsa yaxshi ipak beradi” (KT).

Fe’lning funksional shakllari. Ma’lumki, fe’lning funksional formalarida, bir tomondan fe’lga xos, ikkinchi tomondan boshqa so‘z turkumlariga (ot, sifat, ravish) xos xususiyatlar mujassam bo‘ladi Harakat nomi. Qadimgi turkiy tilda harakat nomi -maq, -mäk affiksi yordamida hosil bo‘lgan: barmaq, suvsamaq, uqmaq, kelmäk, körmäk, ölmäk, ketärmäk. Sifatdosh formalari. Qadimgi turkiy tilda sifatdoshlar ham fe’llik, ham sifatlik xususiyatlariga ega. Sifatdoshlar bo‘lishli va bo‘lishsizlik, nisbat shakllari, shuningdek, modallik va zamon kategoriyasiga ega. Sifatdoshlar otlashganda ot kategoriyasiga xos grammatik qonuniyatlarga ega bo‘ladi, ya’ni ko‘plik, kelishik va egalik affiksini qabul qiladi. Gapda ega, to‘ldiruvchi va hol vazifasini bajaradi. Ko‘makchi fe’llar bilan birikkanda sifatdoshlar tuslanishining murakkab shakllarini yuzaga keltiradi. Sifatdoshlar quyidagi affikslar orqali hosil bo‘ladi: -däči, -dači, -tači, -täči affiksi: boldači “bo‘lajak”, öltäči “o‘lajak”, ačtači “ochajak”, körtäči “ko‘rajak”. Bu sifatdosh kesim va sifatlovchi bo‘lib keladi: ...turk bodun öltäčisän – (turk xalqi o‘lajaksan); öltäči bodunuğ – (o‘lajak xalq). -r (-ar, -är, -ır, -ir, -ur, -ür) affiksi: uchar “uchar”, adırar “ayirar, ögirär “sevinar”, küyär “kuyar”, qabişir “birlashur”, barir “borir”, emgätir “zahmat chekar”, kelir “kelur”, saqinur “o‘ylanur”, qarişur “qorishur”, ökläşür “tortishur”, közünür “ko‘rsatur”. Bu formada kelgan sifatdoshlar hozirgi zamonda bo‘layotgan ish-harakatni ifodalaydi. -mış, -miš, mış, - mis, -muš, -müš affiksi: ağzanmıš “aytilgan”, tuğmıš “tug“ilgan”, kösämiš “istagan”, ötünmıš “o‘tingan”, qılınmıš “qilingan”, kelmis “kelgan”, tutmıs “tutgan”, körmüş “ko‘rgan” va h.k. Bunday sifatdoshlar o’tgan zamonda eshitilganlik ma’nosini bildiradi. Sifat ma’nosiga ega bo‘lganda esa gapda aniqlovchi funksiyasida ishlatiladi: ögüm Qatınığ kötürmiş Təhri – “onam Xotinni ko‘targan Tangri (KT). Bu sifatdosh kesim vazifasida ham keladi: kişi oğlı qılınmıš – “inson bolasi yaratilgan”; tört buluň yağı ermiş – “to‘rt tomon dushman ekan” (KT).

-ğma, -gmä (-iğma, -igmä, -uğma, -ügmä) qo‘shimchasi: udiziğma “uyushtirgan”, yaratığma “yaratilgan”, berigmä “bergan”, keligmä “kelgan”, uchuğma “uchgan”. -ğuči, -güči, -quči, -küči qo‘shimchasi: barğuči “boruvcni”, qolunğuchi “tilanuvchi”, bidgüči “yig‘ilgan”, ağquči “chiquvchi”. -sığ, -sig, -suğ, -süg, -saq, -säk affiksi: tutsıq “tutadigan”, ançulasıq “taqdim etilgan”, iślämäsig “ishlanmagan”, sözlämäsig “sözlanmagan”.

-duq, -dük, -tuq, -tük qo'shimchasi qaysi variantining qo'llanishi negizning qalin-ingichkaligiga bog'liq: barduq "borgan", yanduq – qaytgan, boltuq "bo'lgan", qazgantuq "qozongan", qiliintuq "yaratilgan", tegdük "yetgan, erishgan", išidmädük "eshitmagan", tebrätük "tebratgan", biltük "bilgan". Bu sifatdosh ham sifatlovchi, kesim va hol vazifasida keladi: barduq yerdä "borgan yerda"; içikdük üçün "taslim bo'lgani uchun"; men iglädüktä "men kasal bo'lganda"; qağanta adrilmaduq "hoqondan ayrilmagan".

-ğu, -gü, -qu, -kü qo'shimchasi runik yodnomalarda kam uchrasa-da, uyg'ur, Turfon va moniy matnlarda kengroq qo'llangan: barğu - boradigan, kirgü - kiradigan, qutqarqu - qutqaradigan, tökülgü - to'kilgan, sözlüğü - so'zlagan. Hozirgi borgim yo'q, ko'rgisi kelmadi singari iboralardagi -gi qayd etilgan -ğu, -güning shaklidir. Undan so'ng -luq, -lük ham qo'llanishi mumkin; topulğuluq "tor-mor qiladigan", üzgülük "uzadigan". Bu qo'shimcha hozirgi o'zbek tilida ham bor: ko'rgiligi bor ekan, borgilik qilmasin. -gli, -gli qo'shimchasi undosh bilan tugagan negizga qo'shilganda oldida bir tor unli paydo bo'ladi, qaysi variantining qo'llanishi negizning qalin-ingichkaligiga bog'liq: azğuruğlı "adashgan", quvratığlı "yig'ilgan", oqığlı üntagli täjri "chaqiruvchi, javob beruvchi tangri", keligli "keladigan".

Ravishdosh formalari. Ravishdoshlar o'z holicha kesim bo'lib kela olmaydigan, tuslanmaydigan, fe'llarga qo'shimcha ma'no beruvchi fe'l shaklidir. Ravishdoshlar qo'shma fe'llarning yetakchi komponenti bo'lib keladi. Ravishdoshlar quyidagicha qo'shimchalar ishtirokida voqelanadi: -u, -ü affiksi: yanturu "qaytarib", qatinu "kuchayib, mustahkamlanib", tapinu "topinib", ökünü "o'kinib", yükürü "yugurib", öntürü "ozod qilib" va h.k. -a, -ä affiksi: aşa "oshib", tutu "tutib", ağa "ko'tarilib", kečä "kechib", inä "inib, tushib", önä "unib".

-i, -i affiksi qayd etilgan ikki qo'shimchaga nisbatan kamroq uchraydi: ali "olib", qodi "qoyib", yazı "yozib", eti "etib", eriti "eritib", tegi "erishib". Ravishdoshning yuqoridagi shakllaridan ba'zilari asta-sekin leksik-grammatik jihatidan mustaqillik kasb etib, ko'makchi yoki ravishlarga aylanib qolgan. Jumladan, tegi so'zi aslida teg fe'lining o'zagiga -i affiksining qo'shilishidan hosil bo'lgan, keyinchalik ravishdoshlik xususiyatini yo'qotgan va ko'makchiga aylangan: Temir qapığqa tegi sülädimiz "Temir qopiqqa (darvoza) qadar qo'shin tortdik" (KT). -p / -ip, -üp, -up,

-üp affiksi: tep "deb", alip "olib", arturip "ortirib", yapıp "yopib", binip "minib", işlätip "ishlatib", ökünüp "o'kunib", öndürüp "undirib", turup "turib", olurup "o'tirib". Bu formadagi ravishdosh shaxssiz shaklda bo'lib va shaxsli fe'l-kesim bilan birga keladi: yağı bolup...yana içikmiš "dushman bo'lib... yana qaram bo'ldi". Küesi dip tağdaqı inmiz "xabar eshitib, tog'dagilar pastga tushdilar" (KT).

-pan, -pän, -ipan, -ipän affiksi adabiyotlarda yuqoridagi ravishdoshning

rivojlangan shakli deb qaraladi. Masalan: bir erig alipan urdi – bir kishini olib hujum qildi (To'n); tutipan “tutibon”, körüpän “ko'ribon”, içipän “ichibon”, yepän “yebon”.

-mati, -mäti, -madü, -matin, -matin, - madin, -mädin affiksi -p yoki -pan, -pän affiksi bilan yasalgan ravishdoshga nisbatan bo'lishsizlik formasi sifatida ishlatiladi. Tün udimatü, kündüz olurmatü – “tun uxlamay, kunduz o'tirmay” (To'n); qalmati “qolmay”, bilmätin “bilmasdan”.

-yin, -yin qo'shimchasi ayrim fe'llarda uchraydi. Bu affiks bilan yasaluvchi ravishdoshning inkor formasi va funksiyasi jihatidan -mati, -mäti, -matin, -mätin bilan hosil bo'luvchi ravishdosh to'g'ri keladi. Uning bo'lishli shaklidagi ayrim misollar qadimgi turkiy tilda bor: bolmayin, qaldurmayin; ...bodun bolsun teyin “xalq bo'lsin deb”, ... oluruñ teyin temiš “o'tiring deb aytdi”, tuyun “bilib”.

-ğali, -gäli, -qali, -käli affiksi bilan yasalgan ravishdoshning asosiy ma'nosi ish-harakatning bajarilishidan ko'zlangan maqsadni ifodalashdir: sançgali “sanchgani”, alğali “olgani”, yüküngäli “yukungani”, üzgäli “uzgani”, satqali “sotgani”, tutqali “tutgani”, öritkäli “ta'sir qilgani”, istädkäli “izlatgani”.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Fe'lning qadimgi turkiy tillardagi o'rnini yoriting.
2. Fe'lga xos tushunchalar haqida ma'lumot bering.
3. Fe'llarda zamon, shaxs-son, mayl tushunchalarining tuslanish tizimidagi o'rnini ko'rsating.
4. Fe'l nisbatlarini ayting. O'zbek tilida ayrim so'zlarda yaxlitlanib qolgan nisbat qo'shimchalari haqida fikr bildiring.
5. Sodda, yasama, qo'shma fe'llarning hosil bo'lish usullarini ayting?

Test sinovi

1. Qadimgi turkiy tildagi ät, başla, tur, yur, bär, yat qanday fe'llar sanaladi?
 - A) mustaqil fe'llar
 - B) to'liqsiz fe'llar
 - C) ko'makchi fe'llar
 - D) zamon shakli
2. Qadimgi turkiy tilda tägdimiz so'zi qanday ma'noni anglatgan?
 - A) tegdik
 - B) hujum qildik
 - C) turdik
 - D) tor-mor qildik
3. Fe'lning turli gap bo'lagi vazifasida kelish uchun xoslangan shakllari...
 - A) tuslanish deyiladi
 - B) zamon shakli deyiladi

- C) fe'lning vazifa shakllaridir
 D) fe'lning munosabat shakllaridir
4. Fe'llarning munosabat shakllarini ko'rsating?
 A) zamon, mayl, nisbat qo'shimchalari
 B) mayl, nisbat, shaxs-son qo'shimchalari
 C) zamon, mayl, ko'plik qo'shimchasi
 D) zamon, mayl, shaxs-son qo'shimchasi
5. -t qanday qo'shimcha?
 A) birgalik nisbat qo'shimchasi
 S) o'zlik nisbat qo'shimchasi
 B) orttirma nisbat qo'shimchasi
 D) majhul nisbat qo'shimchasi
6. Qadimgi turkiy tilda yayla so'zi qanday ma'noda ishlatalgan?
 A) yozni o'tkazmoq
 C) kengaymoq
 B) bahorni o'tkazmoq
 D) yoyilmoq
7. -ğma, -gmä (-ığma, -igmä, -uğma, -ügmä) qanday qo'shimchalar?
 A) fe'l yasovchi
 B) ravishdosh yasovchi
 C) zamon qo'shimchasi
 D) sifatdosh yasovchi

Mavzu uchun tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. -T., 1982. - 182 b.
2. Aliyev A., Sodiqov Q. O'zbek adabiy tili tarixidan. -T., 1994. - 96 b.
3. Abdurahmonov N. Qadimgi turkiy til. - T., 1989.
4. Azimov I., Rahmatov M. Qadimgi turkiy til. (O'quv-metodik qo'llanma). - Toshkent: Nizomiy nomidagi ТДПУ, 2005. - 136 б.
5. Mutallibov S. Morfologiya ya leksika tarixidan qisqacha ocherk - T., O'zFA. 1959.
6. H. Ne'matov. O'zbek tili tarixiy fonetikasi. -T., 1992.-102 b.
7. Fozilov E. O'zbek tilining tarixiy morfologiyasi.-T., 1965.
8. To'ychiboyev B. O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. - T., O'qituvchi. 1996.
9. Кононов А.Н. Грамматика языка тюрско-рунических памятников. - Л., 1980.
10. Малов С.Е. Памятники древнетюрской письменности Монголии и Киргизии. М-Л., 1959. - 142 с.
11. Sanaqulov U. O'zbek adabiy tili tarixinining ilk davrlari. - T., 2004.

12. Qo‘chqortoyev I., Isabekov B. Turkiy filologiyaga kirish. -Toshkent: O‘qituvchi, 1984. - 112 b.

8-Mavzu: Qadimgi turkiy til davrida ravish so‘z turkumi.

Reja:

1. Ravish so‘z turkumi va uning o‘ziga xosliklari.
2. Sof ravishlar.
3. Boshqa so‘z turkumlaridan siljigan ravishlar.
4. Ravishlarning yasalishi.
5. Ravishlarning ma’no turlari.

Tayanch so‘z va iboralar: ravish, sof ravishlar, boshqa so‘z turkumlaridan siljigan ravishlar, vosita kelishigi shaklidagi ravishlar, jo‘nalish kelishigi shaklidagi ravishlar, o‘rin kelishigi shaklidagi ravishlar, chiqish kelishigi shaklidagi ravishlar, affiksatsiya usuli bilan yasalgan ravishlar, kompozitsion usul bilan yasalgan ravishlar, payt ravishi, o‘rin ravishi, daraja-miqdor ravishi, holat ravishi.

Qadimgi turkiy tilda boshqa so‘z turkumlari kabi ravishlar ham o‘z ifodasini topgan. Yodnomalardagi ravishlar ish-harakatni bajarishdagi turli holatlarni , holat va belgining belgisini bildirishda qo‘llanadi. Ravishlar sifatlar kabi turlovchi va tuslovchi affikslarni qabul qilmaydi, ya’ni bu turkumdagи so‘zlar o‘zgarmaydi, o‘zları bog‘langan leksemalar bilan moslashmaydi, ularni boshqarmaydi; ravishlar bu so‘zlarga bitishuv yo‘li bilan bog‘lanadi. Bu hol ravishning boshqa so‘z turkumlaridan farqlanuvchi xususiyatlaridan biridir. Ravishlar ish-harakatning bajarilishidagi turli holatlarni va holatning belgisini bildiradi.

Ravishlarni quyidagicha guruhash mumkin: a) sof ravishlar; b) boshqa so‘z turkumlaridan siljigan ravishlar.

Sof ravishlar. Hozirgi o‘zbek tilida bo‘lganidek, qadimgi turkiy tilda ham holat, miqdor, payt, masofa, o‘rin ma’nolarini bildirgan.

Boshqa so‘z turkumlaridan siljigan ravishlar. Turkiy tillardagi, shu jumladan, o‘zbek tilidagi ravishlarning bir guruhini boshqa so‘z turkumlaridan ajrab chiqqan so‘zlar tashkil etadi. Bunday ravishlarning ko‘pchiligi ismlar, ayrimlari fe’llar asosida shaklangan. Ravishlarning boshqa so‘z turkumlaridan ajrab chiqishi ma’lum tarixiy davrlarda har xil yo‘llar bilan yuzaga kelgan. Shuningdek, ravish turkumiga oid leksemalar tarkibi boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar hisobiga boyib, kengayib borgan. Shuning uchun ham ravish tuzilishi va tarkibiga ko‘ra rang-barangdir. Boshqa so‘z turkumlardan siljigan ravishlar esa

otlar va fe'llardan o'tgan ravishlardir. Otlar ayrim kelishiklarda qotib qolishi bilan ravishga o'tgan. Fe'llarda esa ravishdoshlarning ravishga o'tishi kuzatiladi.

Otlardan o'tgan ravishlar payt, miqdor, daraja, chegara va o'rin kabi ma'nolarni, fe'ldan o'tgan ravishlar esa holat ma'nosini ifodalaydi. Qadimgi turkiy tilda qurol-vosita kelishigi shaklida bo'lgan otlar ko'p o'rinda ravish vazifasida ishlatilgan. Bunday ravishlar sirasiga yadağin "yayov", üstün "ustida", tärkin "tezda", ödün "o'sha vaqtda" singarilarni kiritish mumkin.

Qurol-vosita kelishigi shaklida bo'lgan otlarning ravishga o'tishi

yaqin	yaqin
tärkin	tezda
üstün	ustida
altin	ostida
timin	asta-sekin
yaqin	yaqin
ärksizin	xohishsiz
töpsüzin	asossiz
chinsizin	qalbaki

Jo'naliш kelishigi shaklida bo'lgan otlar ham ko'p o'rnlarda ravish vazifasida kelgan. Bunday ravishlarga ichrä "ichkari", tašra "tashqari", öjrä "oldinga" kabilar mansub.

Jo'naliш kelishigi shaklida bo'lgan otlarning ravishga o'tishi

birgäru	birga
tašra	tashqari
yoqaru	yuqori
yirgaru	chapga
yanğaru	yon tomon
bırıya	o'ngdan
quriya	g'arbda
adnağuqa	boshqacha

O'rin kelishigidagi so'zlar ham ravish vazifasida qo'llangan. Bunday ravishlar qatoridan qanta "qayda", anta "u yerda", bunta "bu yerda" singari so'zlar

o‘rin olgan. Chiqish kelishigi shaklidagi otlar ham ravish funksiyasida ishlatiladi. Chunonchi, qantan “qaydan”, ojtun “o‘ngdan”, qayudin “qaydan” va h.k.

O‘rin va chiqish kelishigi shaklida bo‘lgan otlarning ravishga o‘tishi	
muntada	shunda
ol oğurda	so‘ngra
antada	so‘ng
ançata	so‘ngra
qantan	qaydan
öjtün	o‘ngdan

Qadimgi turkiy tilda fe’lning ravishdosh formasidagi so‘zlar ravish vazifasida kelgan. Xususan, -a, -ä, -i, -i, -u, -ü shakllari bilan hosil bo‘lgan ravishdoshlar ana shunday vazifada ishlatiladi. Bunday ravishlarga sayu “bo‘ylab”, tegrä “atrofdan”, tüzü “bo‘ylab” va boshqalarni kiritish mumkin.

Ravishdosh affiksini qabul qilgan fe’llarning ravishga o‘tishi	
yäntürü, yändürü	yana, tag‘in
içkäri	ichkari
analayu	shundek
ämti, ämdi, ämtü	endi
ädgüti	yaxshilab
titirü	alohida
udışru	birin-ketin

Bulardan tashqari, emti, tün, kündüz, bükün kabi mustaqil ishlatilgan ravishlar ham o‘z ifodasini topgan.

Qadimgi turkiy tilda ravishlar boshqa so‘z turkumlariga nisbatan ko‘p emas. Shunday bo‘lsa-da, mavjud ravishlarni tub va yasamalarga ajratish mumkin. biroq ravish yasalishi mahsuldar emas. Qadimgi turkiy til davrida ravishlar ikki usulda – affiksatsiya va kompozitsiya usulida yasalganini kuzatishimiz mumkin.

Affiksatsiya usulida yasalgan ravishlar. Qadimgi turkiy tilda quyidagi affikslar orqali ravish yasalgan:

-ča, -čä affiksi ot, olmosh, sifat, sifatdoshlardan ravish yasaydi va harakatning holati, miqdori, darajasi va chegarasini bildiradi. Masalan: anche

“ancha”, subča “suvday”, örtčä “yong‘inday”, münčä “muncha”, ašnuča “dastavval”, azraqča “juda oz holda”, türkčä “turkcha”.

-dï, -di, -tï, -ti qo‘shimchasi: qatïgdi “diqqat qilib”, tükäti “tugal”, edgüti “yaxshilab”.

-la, -lä qo‘shimchasi: tünlä “tunda”, činla “chindan”.

So‘zlarning takrorlanishi, birikishi orqali ham ravishlar hosil qilingan: ötrü-ötrü “so‘ng”, öni-öni “asta-sekin”, tolu-tükäl “batamom”, ertü-keč “tez orada”, bükün, küntüz.

So‘zning qo‘shilishi va takrorlanishi bilan hosil bo‘lgan ravishlar

kündüz	kunduz
bükün	bugun
ärtä käd	avval
kin bir	bir kun
tolu tükäl	tamoman
täsü tükäl	batamom
ämtiqä tägi	hozirgacha
ärtü kiç	tez orada
küntämäk	har kuni, kunda
öni öni	asta-sekin
ötrü ötrü	so‘ng

Ravishlarning quyidagi ma’no turlari qayd qilinadi:

Payt ravishlari: bükün “bugun”, küntüz “kunduz”, emit “emdi”, ertä “erta”, ašnu “avval”, küntämäk “harkuni”.

O‘rin ravishlari: taštirfi “tashqari”, ičrä “ichida”, birayä “o‘ngda”, yïraya “chapda”.

Holat ravishlari: aquru “sekin”, tärk “tez”, yaqin-timin “asta-sekin”.

Daraja-miqdor ravishlari: munča, anča, az, üküš “ko‘p”, telim “ko‘p”. Qadimgi turkiy tilda, xususan, VI-X asrlarda -ğacha, -gäčä affiksi vazifasini tägi so‘zi bajargan. Masalan: Shantuň yazıqa tägi “Shantung cho‘ligacha”; Temir qapïgqa tägi “Temir darvozagacha”.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Ravishlarning morfologik xususiyatlari va ularning yuzaga kelish yo‘llarini ayting.
2. Ravishlarning ma’no turlari haqida ma’lumot bering.
3. Boshqa turkumdagи so‘zlarning ravishga ko‘chishini izohlang.

4. Ravishlarning yasalishini misollar asosida yoriting.

Test sinovi:

- 1.Qadimgi turkiy tildagi qantan so‘zining ma’nosi...
A) qaydan
B) xondan
C) qondan
D) uydan
2. Payt ravishlarini toping?
A) küntüz, ašnu, küntämäk
B) anča, üküš, telim
C) ičrä, birayä, yiraya
D)aquru, tärk, yaqin-timin
3. Holat ravishlarini toping?
A) küntüz, ašnu, küntämäk
B) anča, üküš, telim
C) ičrä, birayä, yiraya
D) aquru, tärk, yaqin-timin
5. Qadimgi turkiy tildagi yiraya ravishning qaysi turiga kiradi?
A) payt ravishiga
B) daraja-miqdor ravishiga
C) o‘rin ravishiga
D) holat ravishiga
6. Qadimgi turkiy tildagi kisrä ravishining ma’nosi...
A) oldin
B) so‘ngra
C) quyi
D) tepe

Mavzu uchun tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G‘., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. -T., 1982. - 182 b.
2. Aliyev A., Sodiqov Q. O ‘zbek adabiy tili tarixidan. -T., 1994. - 96 b.
3. Abdurahmonov N. Qadimgi turkiy til. - T., 1989.
4. Azimov I., Rahmatov M. Qadimgi turkiy til. (O’quv-metodik qo’llanma). - Toshkent: Nizomiy nomidagi ТДПУ, 2005. - 136 б.
5. Mutallibov S. Morfologiya ya leksika tarixidan qisqacha ocherk - T., O‘zFA. 1959.
6. H. Ne’matov. O‘zbek tili tarixiy fonetikasi. -T., 1992.-102 b.
7. Fozilov E. O‘zbek tilining tarixiy morfologiyasi.-T., 1965.

8. To‘ychiboyev B. O‘zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. - T., O‘qituvchi. 1996.
9. Кононов А.Н. Грамматика языка тюрско-рунических памятников. - Л., 1980.
10. Малов С.Е. Памятники древнетюрской письменности Монголии и Киргизии. М-Л., 1959. - 142 с.
11. Sanaqulov U. O‘zbek adabiy tili tarixining ilk davrlari. - T., 2004.
12. Qo‘chqortoyev I., Isabekov B. Turkiy filologiyaga kirish. -Toshkent: O‘qituvchi, 1984. - 112 b.

9-Mavzu: Qadimgi turkiy tilda yordamchi so‘zlar.

Reja:

1. Qadimgi turkiy til davrida yordamchi so‘zlarning o‘ziga xosliklari
2. Ko‘makchilar va ularning qo‘llanilishi
3. Bog‘lovchilar va ularning qo‘llanilishi
4. Yuklamalar va ularning qo‘llanilishi

Tayanch so‘z va iboralar: yordamchi so‘zlar, ko‘makchi, sof ko‘makchi, vazifadosh ko‘makchi, ot ko‘makchilar, ravish ko‘makchilar, ravish ko‘makchilar, bog‘lovchi, yuklama, so‘roq va taajjub yuklamalar, ayiruv-chegaralov yuklamalar, kuchaytiruv-ta‘kid yuklamalar.

Yordamchi so‘zlar lug‘aviy ma’no anglatmaydi, leksemaning grammatik ma’nosini bildiradi, morfologik o‘zgarish tizimi, yasalish xususiyati ham yo‘q, gap bo‘lagi bo‘lib ham kelmaydi. Ular so‘z va gaplarni o‘zaro bog‘lash, ularga qo‘shimcha ma’no yuklash, so‘zlarni bir-biriga tobelash kabi munosabatlarni anglatadi.

Ko‘makchilar gapda ot yoki otlashgan so‘zlardan keyin kelib, vosita, maqsad, sabab, vaqt, makon sintaktik munosabatlarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Turkiy tillarda ko‘makchilar mustaqil so‘z turkumlaridan rivojlangan. Lekin bu jarayon uzoq davrlar davomida kechgan. Bunday so‘zlar dastlab o‘z ma’nosida qo‘llanish bilan birga, ko‘makchi vazifasini ham bajargan. Davrlar osha ular o‘zining mustaqil leksik ma’nosini yo‘qotib, ko‘makchilar turkumiga o‘ta boshlagan. Qadimgi turkiy tilda ko‘makchilar va ko‘makchi vazifasida qo‘llangan so‘zlar o‘z ifodasini topgan. Hozirgi turkiy tillarda ko‘makchilar gapdagi so‘zlar o‘rtasida bo‘lgan turli-tuman sintagmatik munosabatlarni ifodalashga xizmat qilgani kabi qadimgi turkiy tilda ham ana shunday ma’nolarda qo‘llangan. Ko‘makchilar grammatik ma’no ifodalashi jihatidan kelishiklarga yaqin turadi.

Ba'zan kelishik formasi bajargan funksiyani bajarishga xizmat qiladi. Ko'makchilar ma'no anglatish jihatidan bir emas. Jumladan, üçun, birlä, sarï va boshqa shunga o'xhash ko'makchilar mustaqil ma'no anglatmaydi. Lekin ast, oñ, içintä kabi ko'makchilar yakka holda ham mustaqil ma'no ifodalaydi, lekin o'mi bilan ko'makchi vazifasida ham qo'llanadi hamda kelishik affiksini qabul qiladi. Ana shu nuqtai nazardan qadimgi turkiy tildagi ko'makchilarni sof ko'makchilar va vazifadosh ko'makchilarga bo'lish mumkin.

Sof ko'makchilar. Qadimgi turkiy tilda birlä, üçün, iyä (bilan), üzä, sayı kabi sof ko'makchilar qo'llangan. **Birlä** ko'makchisi. matnda bosh kelishikdagı so'z bilan birgalikda qo'llanganda biror ish-harakatning bajarilishidagi birgalik, birga ishtirok etganlik, aloqadorlik, daxldorlikni, shuningdek, vosita-qurol, ish-harakat jarayonining bajarilish vaqtini, paytini, bir harakatdan keyin ikkinchi harakatning mavjudligini, birin-ketin ro'y bergenligini, harakatning bajarilishidagi belgi, holatni va boshqa shunga o'xhash ma'nolarni ifodalaydi. Masalan: Bışınç äzgänti Kadazda oğuz birlä süňüsdimiz (beshinchı marta Ezgenti Kadazda o'g'uz bilan urushdik); Közüntä tolu yaşı birlä barip (ko'zida to'la yosh bilan borib); Tapığçıları birlä qamağun (xizmatchilari bilan birga); atimni äşidü birlä (otimni eshitishi bilan). **Üçün** ko'makchisi asarlarda to'liq formada qo'llanilgan va uning qisqargan çün shakli bu davr tilida uchramaydi. U bosh kelishik formasida kelgan so'zdan keyin kelganda, sabab, vaj, bois, ish-harakatning biror shaxsga atalganligi, narsa-predmetga tegishliliği, ish-harakatning maqsadini bildiradi. Shuningdek, ergashgan qo'shma gap tarkibidagi ergash gapning sababini yoki natijasini bildirish uchun xizmat qiladi: türk bodun üçün (turk xalqi uchun); tınlıqlar üçün (jonivorlar uchun). Üçün ko'makchisi tushum, qaratqich, o'rin, vosita kelishiklari qo'shimchalari birikkan so'zlar bilan kela oladi va ma'noni aniqlashtiradi, ta'kidlaydi: Täjri yarlıqaduqin üçün (tangri yarlaqagani uchun); sakin adaqlig barimig üçün (sakkiz oyoqli jonli uchun); Tört oğlum bar üçün. **Üzä** ko'makchisi qadimgi turkiy tilda hozirgi turkiy tillardagi ust, past(da) kabi ko'makchilar funksiyasida qo'llangan. Ot ko'makchilari kabi ish-harakatning predmetning ustki va pastki qismida bo'lganligini yoki yo'naliş tomonini bildiradi, masalan: at üzä bintürä (ot ustiga mindirib); Toquz oğuz bodun üzä qağan olurti (to'qqiz o'g'uz xalqiga xon bo'ldi). Ish-harakatning bajarilishidagi vositani bildiradi: Uluğ yrlıqançucii könül üzä (ulug' ko'tarinki ruh bilan). **Sayu va iyä** ko'makchilari: Ayığ qılıncı iyä barip (yomon ishlar, qilmishlar bilan borib). Yir sayu barmii (butun yer yuzi bo'ylab borib). Ara ko'makchisi o'rin, paytni bildiradi: Keçmädin ara (tez orada); qalın quvraq arasinta (ko'p odamlar orasida).

Vazifadosh ko'makchilar. Vazifadosh ko'makchilar barcha so'z turkumlaridan emas, balki ot, fe'l va ravish so'z turkumlari orqali ifodalanadi. Ot so'z turkumiga nisbatan ravish so'z turkumida kamroq, ravishga nisbatan fe'lida

kamroq uchraydi. Shunga ko‘ra funksional ko‘makchilarni uch guruhga bo‘lish mumkin. Bular: 1. **Ot ko‘makchilar.** 2. **Ravish ko‘makchilar.** 3. **Fe’l ko‘makchilar.**

Ot ko‘makchilar. Ot ko‘makchilar yuqorida qayd qilinganidek, ma’lum o‘rinlarda ot vazifasida kelsa, ayrim o‘rinlarda esa ko‘makchi vazifasida qo‘llanadi. Ot ko‘makchilar jo‘nalish, o‘rin va chiqish kelishigi affiksini olib, matnda ot funksiyasini yo‘qotadi va ko‘makchi vazifasida keladi. O‘zidan oldin kelgan so‘zga nisbatan tobe holatda bo‘ladi. Qadimgi turkiy tilda **baş, ald, ast, yüz, arqa, orta, taş, yan, art, üstüntä, öñ, iç** kabi ot ko‘makchilar qo‘llangan. Baş ko‘makchisi kelishik affiksini olib, başinta, başida, başindin kabi shakllarda qo‘llanadi. Bu shakllar o‘rin, yo‘nalish tomon, chiqish joyi, biror obyektni ajratib ko‘rsatadi. Masalan: Bu iring başinta az ämgäki bar (bu fol boshida az qiyinchiligi bar) (IB).

Ravish ko‘makchilar. Qadimgi turkiy tilda taşqaru (tashqari), son (so‘ng), tapa (tomon), ötrü (so‘ng), içrä (ichra), yoqaru (yuqori), kisrä (so‘ngra), qodï (quyi, bo‘ylab, yoqalab), kïdin (keyin), otru (qarshi, to‘g‘ri) kabi ravish ko‘makchilar qo‘llangan. Ravish ko‘makchilarning o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, ba’zilari sinonimik qatorni shakllantirgan. Jumladan, tapa leksemasi qodï, ilgärü, inäru, sayu so‘zleri sinonimik uyasini vogelantirgan. Ilgärü so‘zi kun botar tomon, ya’ni g‘arb ma’nosida ham ishlatilgan. **Tapa** ko‘makchisi. Hozirgi o‘zbek tilidagi tomon so‘ziga to‘g‘ri keladi. Bu so‘z biror tomonga yo‘nalganlikni ifodalaydi. Ba’zan qarashlilik va maqsad ma’nolarda ham qo‘llanadi: Oğuz tapa sülädim (o‘g‘uz tomon qo‘shin tortdim) (BX). **Qodï** ko‘makchisi. Bu so‘z hozirgi turkiy tillardagi yoqalab, quyi, pastki so‘zlariga mos keladi, ish-harakat, predmetning yo‘nalganlini bildiradi: Ol sub qodï bardimiz (o‘sha suv yoqalab bordik); Toğan quş täjridin qodï tabisğan tepän qopmiş (lochin osmon (tepadan)dan quyidagi quyonga hujum qildi) (O‘Y).

Fe’l ko‘makchilar. Fe’l ko‘makchilarning qadimgi turkiy tilda qo‘llanish doirasi ot va ravish ko‘makchilarga nisbatan chegaralangan. Ayniqsa, fe’lning ravishdosh formasidagi so‘zlar ko‘makchi vazifasida ko‘proq qo‘llangan. Bunday ko‘makchi fe’llarga aşa (o‘tib), başa (boshlab); keçä (kechib); başlayu (boshlab) kabilarni ko‘rsatish mumkin. **Aşa** ko‘makchisi o‘rin-joy ma’nolarida qo‘llangan: Kögmän aşa qirqiz yerinjä tägisülädimiz (ko‘kmandan o‘tib qirg‘iz yerigacha qo‘shin tortdik) (KT).

Bog‘lovchilar. Bog‘lovchilar ham boshqa yordamchi so‘zlar kabi tarixan mustaqil so‘z turkumlari asosida shakllangan bo‘lib, so‘z va gaplarni bir-biriga bog‘lashga xizmat qiladi. Lekin bunday bog‘lovchilar turkiy tillarda kam sonlidir. Yozma yodgorliklarning guvohlik berishicha, hozirgi turkiy tillarda iste’molda bo‘lgan bog‘lovchilarning aksariyati taraqqiyotning ma’lum davrlarida eron

tillaridan yoki arab tilidan o'zlashgan bo'lib, ular XIII-XIV asrlardan faol qo'llanila boshlagan.²¹ Qadimgi turkiy tilda bog'lovchilar deyarli qo'llanmagan. **Yämä** so'zi bog'lovchi vazifasida qo'llanishidan tashqari, ravish vazifasida ham ishlatilgan. Masalan: ötündilär yämä ayqirdilar (o'tindilar va hayqirdilar); ...bod yämä, bodun yämä, kişi yämä (urug' ham, xalq ham, kishi ham); biz yämä sülädimiz (biz yana qo'shin tortdik) (To'n). **-li, -li** qadimda hozirgi va bog'lovchisi o'rnida qo'llanilgan: adıgli toñuzli (ayiq va to'ng'iz), begli bodunli (bek va xalq) (KT). **Taqii**: bu muttaq qilinçin öz üzünüz boşunmağay taqii ...dindär kelmägäy (bunday qilmishi o'z vujudini ozod qilmaydi va dindor kelmagay) (TT). Azu: azu muñ üçün azu basu birgäli qızğanıp (yoki qayg'u uchun, yoki qurban berishga qizg'anib) (Mon). **Kim**: bu tort ariğ dindärlar kim tavğaçyärinta ärürlär (bu tort pok dindorlarki, tabg'och yerindandirlar); ol ayaq qilinç yoq kim biz qilmadimiz ärsär (hech bir yomon ishlar yoqki, biz qilmasak) (TT). Qalti:...qalti täjri küçi... (agar Tangri kuchi) (KT). **Yana**: Ol sabiğ it(t)im: qantayin sabiğ yana kält "o'sha xabarni aytdim:yana qandayin xabar keldi" (To'n).

Yuklamalar. Ayrim so'z yoki gapga qo'shimcha ma'no yuklash uchun qo'llanadigan yordamchi so'z yuklamadir. Barcha turkiy tillarda yuklamalar alohida yordamchi so'z turkumi sifatida ajratiladi. Yuklamalar leksik ma'no ifodalamaydi, gapda biror sintaktik vazifani bajarmaydi. Shunga ko'ra yordamchi so'zlearning bir turi sifatida qaraladi. Yuklamalar yordamchi so'zlardan ham o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Masalan, yuklamalar bog'lovchi va ko'makchilar kabi so'zlar o'rtasidagi munosabat, sintaktik aloqani yuzaga keltirmaydi. Yuklamalarni alohida so'z turkumi sifatida ajratish borasida bir qator olimlar o'z munosabatlarini bildirishgan. Jumladan, Y. Abdurasulov qo'shimcha yuklamalarni so'z turkumi sifatida ajratishni ma'qul topmaydi: "Yuklamani turkumga ajratishning yana bir mushkul tomoni bor. Chunki yuklamalarning asosiy qismini turli modal ma'nolarni anglatadigan affiks-yuklamalar tashkil etadi. Shubhasiz, affikslar qanday ma'no ifodalashidan qat'iy nazar so'z emas. Shuning uchun ularga so'z turkumi deb qarash ham u qadar to'g'ri emas, balki ularni affikslarning o'ziga xos guruhi deb qarash maqsadga muvofiqdir. Buni qanday hal qilish ham butun turkiyshunoslik oldidagi asosiy muammolardan biridir".²² Grammatik munosabat ifodalamaydigan qo'shimchalar lug'aviy shakl hosil qiluvchilarga kiradi. Yuklamalarga shunchaki lug'aviy shakl hosil qiluvchi sifatida qarash to'g'ri emas. Yuklamalar gapga so'roq, ayiruv-chegaralov, guman mazmunini beradi. Shu bois yuklamalarning alohida turkum sifatida ajratilishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, lug'aviy shakl hosil qiluvchi qo'shimchalar muayyan turkum doirasiga xoslangan bo'ladi. Yuklamalar, deyarli, barcha turkum

²¹ Абдурахмонов Ф., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси . – Т.: 1973. –Б. 215-216.

²² Абдурасулов Ё. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси.-Т., 2009. – Б. 87.

so‘zlariga qo‘shiladi. So‘zga ham, gapga ham qo‘shimcha ma’no beradi. Qadimgi turkiy tilda quyidagi yuklamalar qo‘llanilgan: **1. So‘roq va taajjub yuklamalari:** - mu // - mü: irinč tīnlīğ bolgay mu (baxtsiz jonzotlar topiladimi); kişigä mü alsiqdī (kishiga oldirdimi). - a, - ä: qamuğ sinjillärim ä (hammasi singillarim); U anačim a (ey onajonima). **2. Kuchaytiruv va ta’kid yuklamalari:** - oq, - ök: yalij qiliç tutip oq üzgälir (yalang qilich tutiboq uzadi); - kük: yanduq yolta yemä ölti kük (qaytgan yolda yana o‘ldi). **3. Ayiruv va chegaralov yuklamalari:** - qina// - kina// turli so‘z turkumlari bilan kelib, ularni chegaralab, ajratib ko‘rsatish uchun xizmat qiladi: azqina (ozgina), ašnuqina (hozirgina), emtikinä (endigina).

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Yordamchi so‘zlarning grammatik vazifalarini tushuntiring.
2. Ko‘makchilarning grammatik ma’nosini izohlang.
3. Bog‘lovchining grammatik ma’nosini izohlang.
4. Yuklamalarning grammatik ma’nolarini izohlang.

Test sinovi:

1. Ayiğ qilinč iyä barip...gapidagi ko‘makchini toping?
 - A) ayiğ
 - B) qilinč
 - C) iyä
 - D) barip
2. Azu bog‘lovchining qaysi turiga kiradi?
 - A) ayiruv
 - B) teng
 - C) biriktiruv
 - D) ergashtiruv

Mavzu uchun tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G‘., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. -T., 1982. - 182 b.
2. Aliyev A., Sodiqov Q. O ‘zbek adabiy tili tarixidan. -T., 1994. - 96 b.
3. Abdurahmonov N. Qadimgi turkiy til. - T., 1989.
4. Azimov I., Rahmatov M. Qadimgi turkiy til. (O’quv-metodik qo‘llanma). - Toshkent: Nizomiy nomidagi ТДПУ, 2005. - 136 б.
5. Mutallibov S. Morfologiya ya leksika tarixidan qisqacha ocherk - T., O‘zFA. 1959.
6. H. Ne’matov. O‘zbek tili tarixiy fonetikasi. -T., 1992.-102 b.
7. Fozilov E. O‘zbek tilining tarixiy morfologiyasi.-T., 1965.

8. To‘ychiboyev B. O‘zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. - T., O‘qituvchi. 1996.
9. Кононов А.Н. Грамматика языка тюрско-рунических памятников. - Л., 1980.
10. Малов С.Е. Памятники древнетюрской письменности Монголии и Киргизии. М-Л., 1959. - 142 с.
11. Sanaqulov U. O‘zbek adabiy tili tarixining ilk davrlari. - T., 2004.
12. Qo‘chqortoyev I., Isabekov B. Turkiy filologiyaga kirish. -Toshkent: O‘qituvchi, 1984. - 112 b.

10-Mavzu: Qadimgi turkiy tilda gap qurilishi.

Reja:

1. Qadimgi turkiy til sintaktik qurilishiga umumiyligi tafsif va bu davr sintaksisining o‘rganilish tarixi.
2. So‘z birikmasi sintaksisi.
3. Sodda gap. Gap bo‘laklari.
4. Murakkablashgan sodda gaplar.
5. Gap bo‘laklari tartibi
6. Bir bosh bo‘lakli gaplar.
7. Qo‘shma gaplar. Murakkab qo‘shma gaplar.

Tayanch tushunchalar: *qadimgi turkiy til sintaktik qurilishi, so‘z birikmasi, gap: ifoda maqsadiga ko‘ra turlari, gap bo‘laklari, murakkablashgan sodda gaplar, qo‘shma gaplar, ko‘chirma gaplar.*

Sintaksis. Har bir tilning, shu jumladan, o‘zbek tilining gap qurilishi, so‘z birikmalarini, gap bo‘laklari, ular orasidagi mazmun va grammatick aloqlar uzoq taraqqiyot qonunlari asosida va boshqa tillarning ta’siri tufayli ro‘y beradi.

Qadimgi turkiy til o‘zbek va boshqa ko‘p turkiy tillarning shakllanishiga asos bo‘lgan. Ammo bu turkiy tilning o‘zi ham ma’lum taraqqiyot bosqichlarini boshidan kechirgan, shakllangan ma’lum bir qolipga tushgan yozma til edi. Har qanday tilning qurilishi asta-sekinlik bilan taraqqiy etadi, o‘zgaradi. Hozirgi turkiy tillardagi sintakti kategoriylar, sintaktik aloqlar va ularning turlari, gaplarning tuzilishi va mazmuniga ko‘ra turlari, gap bo‘laklari, gap bo‘laklarining tartibi uzoq tarixiy taraqqiyot mahsulidir.²³ Qadimgi turkiy tilning tuzilishi, sintaktik strukturasi bilan hozirgi zamon o‘zbek va boshqa turkiy tillarning tuzilishi

²³ N.Abdurahmonov

o‘rtasida ko‘p yaqinlik va farqli tomonlari bor bo‘lib, bu hol tilning bir-bir yarim ming yillik taraqqiyoti natijasidir. Tekshirishlar shuni ko‘rsatadiki, qadimgi turkiy tilning sintaktik tuzilishi davrlar o‘tishi bilan sillqlashib, takomillashib borgan.

Qadimgi turkiy tilda ham sintaktik aloqaning ikki turi bor. 1. Predikativ aloqa: Qan bärtim. ; 2. Predikativ bo‘lmagan aloqa, ya’ni so‘z birikmasi: türk bodun, boz at, altunluğ örgin (oltin taxt) kabi.

So‘z birikmalari. Qadimgi turkiy tildagi so‘zlar o‘zaro birikib, ma’lum bir so‘z birikmasini tashkil etgan va ma’lum fikrni yoki uning ayrim elementlarini ifodalagan. Bu so‘z birikmalarining biri hokim boshqaruvchi so‘z bo‘lib, ikkinchisi tobe so‘z bo‘lgan va hokim so‘z tomonidan boshqarilgan.

Boshqaruvchi so‘zning xarakteriga ko‘ra, so‘z birikmalarini ikki gruppaga bo‘lish mumkin: *otli* va *fe’lli birikmalar*.

1. Otli birikmalarda boshqaruvchi so‘z ot bo‘lib, u boshqarib kelayotgan so‘z ot, sifat, son, olmosh, sifatdosh bo‘lishi mumkin: türk bodun (turk xalqi); semiz buqa, turuq buqa (semiz buqa, oriq buqa).

2. Fe’lli brikmada boshqaruvchi so‘z fe’l yoki uning funksional shakllari sifatdosh, ravishdosh, shart fe’li, harakat nomi bo‘lib, unga tobe bo‘lib boshqarilib kelayotgan so‘z ma’lum kelishik yoki ko‘makchi bilan birikib kelgan ot yoki otlashgan so‘z, olmosh, ravish yoki ravishdosh, shart fe’li bo‘lishi mumkin: qag’an qüsdim (hoqonni qo‘lga oldim) ança saqintüm (ko‘p o‘yladim).

Qadimgi turkiy tilda so‘z birikmalarini tashkil etgan bo‘laklarini o‘zaro aloqaga kirish usuliga ko‘ra 3 turga bo‘lish mumkin.

Bitishuv. So‘zlar hech qanday grammatik vositalar (kelishik qo‘sishchasi va ko‘makchi) yordamisiz o‘zaro aloqaga kirib, so‘z birikmasini tashkil etadi. Bunday so‘z birikmalar mazmun va intonatsiya yordami bilan o‘zaro birikadi. Quyidagi so‘z turkumlari bitishuv yo‘li bilan so‘z birikmasini tashkil etgan:

- a) ot bilan ot: kişi oğlan (inson farzandi)
- b) ot bilan fe’l: Tabğach ... bas tuman su kalti

Boshqaruv. Tobe so‘z ma’lum grammatic vosita (kelishik formalari yoki ko‘makchilar) orqali bosh so‘zga birikadi. Shunga asoslanib boshqaruv ikki xil bo‘ladi: kelishikli va ko‘makchili. Kelishikli boshqaruv. Qadimgi turkiy tilda bosh kelishikdan tashqari tushum, jo‘nalish, o‘rin, chiqish, vosita kelishiklari bo‘lib, tobe so‘z ma’lum bir kelishik affikslari yordami bilan bosh so‘zga bog‘lanadi. a) tushum kelishigi vositasida: oğuzuğ öküşäk ölürti (o‘g‘uzni ko‘plab o‘ldirdi); b) jo‘nalish kelishigi vositasida: Ötükän yişgaru uduztüm (O‘tukan yishga yo‘naltirdim); c) o‘rin- chiqish kelishigi vositasida: Qara költä sujuşdımız (Qora ko‘lda jang qildik); d) vosita kelishigi vositasida: Yüz artiq oqun urtii (yuzdan ortiq o‘q bilan urdi). Ko‘makchili boshqaruv. Ot yoki ot ma’nosidagi so‘zlar ko‘makchilar bilan birikib, hokim so‘zga bog‘lanadi. Kültegin birlä.... Ba’zi

o‘rinlarda ma’lum kelishik shaklini olgan ot yoki olmosh ko‘makchiga bog‘lanib, u bilan birga hokim so‘zga birikadi: Tämir qapígqa tegi – Temir qapig‘ (darvoza) ga qadar.

Moslashuv. Qadimgi turkiy tilda moslashuv ikki otning qaratqich kelishigi yordamida birikuvidan hosil bo‘lgan. Hozirgi o‘zbek tilida bo‘lgani kabi qadimgi turkiy tilda ham qaratqich belgili va belgisiz shaklda qo‘llangan. Masalan: belgili - menij bodunum erti; Bilgä qağanij boduni; belgisiz –Körög sabi antaǵ - ko‘rvuchining xabari shunday, Ozüm qutüm – o‘zimning baxtim.

Turkiy izofa. Turkiy izofa ikki otning aniqlovchi va aniqlanmishlik aloqasiga kirishuvidir. Odatda birinchi ot aniqlovchi, keyingi ot esa aniqlanmish bo‘ladi. Qadimgi turkiy tilda turkiy izofaning ko‘proq uchinchi turi (belgisiz shakli) qo‘llangan: Kökmän taǵ (Kogman tog‘i). Izofaning ikkinchi turi (aniqlovchining belgisiz kelishi) kamroq uchraydi: Turk o‘g‘uz baglari (Kt.). Turkiy izofaning birinchi turi (aniqlovchi va aniqlanmishning belgili kelishi) qadimgi turkiy tilda kam qo‘llanadi: El törüsü (el(davlat)ning qonun qoidalari); Bodun boǵzi (xalqning noni (doni). Har bir tilning, shu jumladan o‘zbek tilining gap qurilishi, so‘z birikmalari, gap bo‘laklari, ular orasidagi mazmun va grammatik aloqlar uzoq taraqqiyot qonunlari asosida va boshqa tillarning ta’siri tufayli ro‘y beradi.

Sodda gap turlari. Qadimgi turkiy tilda, hozirgi zamon turkiy tillaridagidek, sodda gaplar fe’l kesimli yoki ot kesimli.

Fe’l kesimli gaplarning kesimi aniqlik fe’li yoki fe’lning turli funksional shakllari bilan ifodalanadi: Turuk bodun ölti, alqıntı, yoq bolti (To‘n,3) (turk xalqi o‘ldi, sarson bo‘ldi, yo‘q bo‘ldi. Qop bilirsiz (Kt,31) (ko‘p bilasiz). Bilmäz ärti (Kt,30) (bilmas edi).

Ot kesimli gaplarning kesimi, ot, sifat, son, olmosh, ravish bilan ifodalanadi. Kesimlik ko‘rsatkichi vazifasida bog‘lamalar (-man, -san, di, ol, bol, tur, är kabilar) qo‘llanadi. Ammo bu belgilar bo‘lmasligi ham mumkin. Bunda kesim gapning mazmunidan, intonatsiyasidan, o‘rnidan bilinib turadi: Turk bodun yämä bulganch (ol, tämish), oğiz yämä, tarqanch ol, tämish (To‘n, 62) (Turk xalqi ham tinch emas, o‘g‘uz ham tarqoq debdi).

Gap bo‘laklari. Qadimgi turkiy tilda ham, hozirgi turkiy tillardagi kabi, bosh bo‘laklar (ega va kesim), ikkinchi darajali bo‘laklar (aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol) bo‘lgan. Ammo bu bo‘laklar shakllanishi va o‘rniga kora‘hozirigidan farqlanadi²⁴.

Ega bosh kelishik formasida bo‘ladi. Ammo qadimgi turkiy tilda har qanday bosh kelishikdagi so‘z ham ega bo‘la olmaydi: Qağanı su tasüqdii (To‘n, 33) (Xoqoni lashkar bilan yo’lga chiqdi).

²⁴ G‘. Abdurahmonov, A.Rustamov. Qadimgi turkiy til.

Kesim vazifasida fe'lning turli zamon va mayl formalari, funksional shakllari qo'llanib, fe'l kesimli gaplarni tashkil etgan. Ot kesimli gaplarning kesimi ot, sifat, son, olmosh, ravish orqali ifodalangan. Bu xil kesimlar orqali turli zamon, mayl va modal munosabatlarni ifodalash uchun bog'lamalar va shu vazifadagi yordamchi so'zlar qo'llangan. Bir turuqii ärmis (To'n, 24)-(Bir manzil ekan). Isig kúçig bársigim bar ärmis ärinç (Ungin, 2)-(Mehnatimni, kuchimni bergim bor edi).

To'ldiruvchi. To'ldiruvchilar hozirgidek, vositasiz yoki vositali bo'lib, ot va ot ma'nosidagi so'zlar bilan ifodalangan. Bu davrdagi to'ldiruvchiga xos xarakterli xususiyat quyidagichadir: 1. To'ldiruvchi vazifasida ayrim kelishik formasi bilan shakllangan so'zlar qo'llangan, bu formalar hozir ishlatilmaydi: Urü oğlin qul bolti, silig qız oğlin kuň boltiç (Kt, 7)-(Zarbdor o'g'illari bilan qul bo'ldi, go'zal qizlari bilan cho'ri bo'ldi). 2. Bosh kelishikdagi so'zlar bilan ifodalangan to'ldiruvchilar ko'proq qo'llangan: Qızıl qanım töktö qara tärüm yogurtti (To'n)-(Qizil qonimni to'kdi, qora termini to'kdi). 3. Ma'lum kelishik va ko'makchilar o'ziga xos ma'no va vazifani o'tagan: Tavar üzä tolu (Tovar bilan to'la).

Aniqlovchi qadimgi turkiy tilda, hozirgidek sifat, son, olmosh, bilan ifodalangan: Silig qız (Kt) - (chiroqli qiz); Kun batsiqdaqii soğd (Kt) – (kun botishdag'i so'g'd); Yätı yigirmi ärin (Kt) – (o'n yeti bahodir bilan).

Izohlovchi. Ot bilan otni aniqlash yodnomalarda keng qo'llanadi. Bunday izohlovchilar qarindosh, unvon, millat, belgi xususiyat va boshqa munosabatlarni ifodalaydi: Ögüm qatun (Kt, 49) – (onam Xotun); Qırğız küçlüq qağan yağımız bolti (To'n, 19) – (Qirg'iz kuchli hoqon dushmanimiz bo'ldi).

Hol. Qadimgi turkiy tilda hol ot, son, ravishdosh, olmosh so'z turkumlari orqali ifodalaniadi: Bolçuqa tan üntürü tägdimiz (To'n) – (Bo'lchuqqa tong otganda yetdik); Kültägin özinçä kärgäk bolti (Kt) – (Kultegin o'z ajali bilan o'ldi); Tırı ölü yorïyur ärtig (Kt) – (Tirilib, o'lib yurar edik).

Uyushiq bo'laklar. Qadimgi turkiy tilda gapning bosh bo'laklari ham, ikkinchi darajali bo'laklari ham uyushib kelishi mumkin: Bılıgası, çabïssi bän ök ärtim. (To'n, 7) – (Allomasi, chovushi men o'zim edim). Türk bodun ölti, alqïnti, yoq bolti. (To'n, 3) – (Turk xalqi o'ldi, sarson bo'ldi, yo'q bo'ldi).

Ajratilgan bo'laklar. Qadimgi turkiy tilda ajratilgan gap bo'laklari ham uchraydi. Ajratilgan gap bo'laklari ifodalangan ma'noni ajratib, ta'kidlab ko'rsatish uchun stilistik vosita bo'lgan²⁵. Bu usul quyidagicha amalga oshirilgan: a) gap bo'lagi tartibini o'zgartirish: Türk Qara qamuğ bodun ança tämis. (Kt, 8) – Turk (fuqarosi), qora (xalq), hamma xalq shunday debd; b) ma'lum gap bo'lagidan so'ng uni izohlovchi, ta'riflovchi, mazmunan unga teng bo'lgan boshqa bo'lak – so'z yoki birikma keltiriladi: Türk bodun Tämır qapïgqa, Tinsi oğli yatiurma taqqa tägmis. (To'n 46) – (Temir darvozaga, Tinsi o'g'li yetgan toqqa yetdi); c) gap

²⁵ G'ani Abdurahmonov, A.Rustamov

bo‘lagini ajratish uchun maxsus vosita qo‘llanadi. “Oltin yoruq” bitigida bu vazifani ärsär bog‘lamasi bajargan: Dağı yämä bu ätüz ärsär. (O.y, 614) – (Yana bu jasadga kelsak), Börinij tilkünij aşi ärsär ısig ät qan ärür. (O.y, 610) – (Bo‘rining, tulkining ovqati esa go‘sht va qondir).

Gap bo‘laklarining tartibi. Qadimgi turkiy yodnomalarning xil xususiyatini o‘rganish bu tilning ancha ishlangan adabiy til ekanini ko‘rsatadi. Bu tilda har bir gap bo‘lagi ma’lum tartibga ega. Bu tartib hozirgi zamon turkiy tillaridan deyarli farq qilmaydi.

Ega odatda kesimdan oldin, kesim esa gap oxirida keladi, gapni uyushtiradi, yakunlaydi. Bu tartibning o‘zgarishi ko‘chirma gaplarda va ayrim uslubiy maqsadlarda ro‘y beradi: Bıznı ta adın kim bolgay, umuňa yarağlıg aş içkü bälgürtäçı. (O.y, 611) – (Bizdan boshqa kim borki, bunga yaroqli ovqat, ichkilik topib beradigan).

Aniqlovchi aniqlanmishdan, hol va to‘ldiruvchi kesimdan, ravish holi fe’l kesimdan oldin qo‘llanadi. Bu tartibning buzilishi ham, uslubiy maqsadda – shu gap bo‘lagini boshqalaridan ajratib ko‘rsatish uchun qo‘llanadi: Bulğay ärkı bız yiğ adruq buyanın täp tädi. (O.y, 609) – (Topgaymiz, shekilli, yaxshi, alohida ne’matni deb aytidi); Türk qara qamuğ bodun ança tämis. (Kt,8) – (Turk fuqarosi (qora xalq), butun xalq shunday debdi).

Bundan tashqari, qadimgi turkiy til davri matnlari tahlilida undalmalar, kirish so‘z va kirish gaplarni ham uchratish mumkin: Tägdükin, türk bağklär, qop bilirsiz. (Kt, 34) – (Hujum qilganini, turk beglari, yaxshi bilasiz); ...kısra tänri yarlaqazu, qutum bar üçün bodunuğ tırgürü ıgitim. (Kt,29) – (keyin, xudo yorlaqasin, baxti bor uchun, xalqni tiriltirib, tarbiya qildim). İncin. (O.y, 610) – (Shunday qilib).

Bitiglarda äkıntı, üçüncü, törtinci, äj ılık (ikkinchi, uchunchi, to‘rtinchi, eng avval) so‘zleri kirish so‘z vazifasida kelgan.

Qo‘shma gap. Qadimgi turkiy yodnomalar tilida qo‘llangan gaplarning chegarasi kesimlarning o‘rniga va ularning mazmuniga ko‘ra belgilanadi, gaplarni biriktiruvchi bog‘lovchilar deyarli qo‘llanmaydi, bog‘lovchi vazifasidagi vositalar kam qo‘llanadi, gaplar orasida tinish belgilar ishlatilmaydi.

Turkiy tillar tarixiy taraqqiyotining ilk davrlarida kommunikativ vazifani, asosan, sodda gaplar bajargan. Murakkab fikrlarni ifodalashda sintaktik aloqaning eng qadimgi turi bo‘lgan bitishuv yo‘li bilan bog‘langan konstruksiyalardan foydalananligan. Qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarning grammatik munosabati deganda, shu sodda gaplarning bir-biri bilan ma’lum grammatik vositalar (bog‘lovchilar, yuklamalar, olmoshlar, ohang) yordamida bog‘lanishi tushuniladi. Mazmuniy munosabati deganda esa, qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarning mazmuniy muvofiqligi nazarda tutiladi. Qo‘shma gapni tashkil etgan sodda gaplar

qo'shma gap qismlari sanaladi. Bu qismlarni bog'lash uchun xizmat qiladigan vositalar esa bog'lovchi vositalardir. Qo'shma gap qismlari bog'lovchilar, bog'lovchi vazifasidagi vositalar, ohang yordamida bog'lanadi. Qismlarining qanday bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanishiga ko'ra qo'shma gaplar quyidagi guruhlarga bo'linadi: 1) bog'langan qo'shma gaplar; 2) ergashgan qo'shma gaplar; 3) bog'lovchisiz qo'shma gaplar. Barcha qo'shma gaplar tarkibida ikki yoki undan ortiq sodda gaplarni birlashtirishi bilan xarakterlanadi. Bu sodda gaplar o'zaro teng munosabatda bo'lishi yoki qo'shma gapning bir qismi ikkinchisini izohlab kelishi mumkin.

Bog'lovchisiz qo'shma gaplar qadimgi yodnomalar tilining asosini tashkil etadi. Qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar tuzilishiga ko'ra oddiy (ko'pincha sodda yig'iq) bo'lib, ular umumiy bir fikrni ifodalash uchun xizmat qiladi, mazmunan va shaklan bir-biriga tobe bolmaydi. Bunda sodda gaplar asosan sanash ohangi, intonatsiya vositasida bog'lanadi, bir paytda, ketma-ket ro'y bergan voqeahodisa, belgi-xususiyat, shuningdek, zidlik, qiyoslash, sabab-natija, izohlash munosabatlarini ifodalaydi: **a) bir paytda ro'y bergan voqeahodisa, belgini ifodalaydi:** Udär säjün kälti. Tabgaç qağanta Isyı Likäj kälti, bir tümän ağı, altun, kumuş kärgäksiz kälürti. (Kt, 52) – (Udar sangun keldi. Tabg'ach xoqondan Isyi Likang keldi, bir tuman ipak, oltin, kumushni haddan ortiq keltirdi). **b) ketma-ket ro'y bergan voqeahodisani ifodalaydi:** Toquz oğuz bodun käntü bodunüm ärti, täjri yär bulğaqları çögşen şıň Äkıntı İşbara Yamtar boz atığ bınıp tägdı, ol at anta ölti, üçünç Yägin Sılıg bağın kädimlig torığ at bınıp tägdı, ol at anta ölti. (Kt, 33) – (Ikkinchi Ishbara yamtar bo'z otini minib hujum qildi, u ot o'shanda o'ldi, uchinchi bor Yegin Sılıg bekning kiyimli-zirhli to'riq otini minib hujum qildi, u ot shunda o'ldi). **c) zidlik:** Toquz oğuz bodun käntü bodunüm ärti, täjri yär bulğaqları üçün yağı boltı. (Kt, 44) – (To'qqız o'g'iz xalqi o'z xalqim edi, ko'k, yer fitnaga to'lgani uchun, dushman bo'ldi). **d) qiyoslash:** Yağımız tägrä uç oq tägirti, biz şag ärtimiz. (To'n, 8) – (Dushmanlarimiz atrofimizda yovvoyi qushlardek edi, biz o'limtik edik).

Bog'langan qo'shma gaplarni hosil qilishda teng bog'lovchilar va ayrim yuklamalar qatnashgan. Bu tipdagи qo'shma gaplar qadimgi turkiy tilda ozchilikni tashkil etadi: Azu ulug' bačaq kün, azu kičig bačaq künkä qilsar. – (Yoki ulug' ro'za kuni, yoki kichik ro'za kuniga qilsa); Azu muñ üçün, azu basu birgäli qizğanıp – (yoki qayg'u uchun, yoki qurban berishga qizg'anib); Bu mutaǵ qilinčin öz üzünüz boşunmaǵay taqı dīqa dindār kelmägäy – (Bunday qilmishi o'z vujudini ozod qilmaydi va diqa dindor kelmagay); Er buşušluğ, täjri bulitlig boltı, ara kün toǵmiş buşač, ara mäni kälmiš – (Inson qayg'uli, osmon bulitli bo'ldi, gohi kun chiqqanda qayg'u, gohi shodlik keladi).

Ergashgan qo'shma gaplar. Qadimgi turkiy tilda qismlari o'zaro hokimtobe munosabatlari orqali bog'langan ergash gapli qo'shma gaplar bosh gapga sifatdosh, ravishdosh, shart mayli qo'shimchasi, ko'makchi, bog'lovchi va kelishik qo'shimchasini olgan sifatdoshlar, nisbiy olmoshlar yordamida birikadi:

a) sifatdosh: Tınsı oğlu yatiğma Bäjılıæk tağığ ärtimiz. (To'n, 44) – (Tinsining o'g'li yashaydigan bangligak tog'ihacha quvlab bordik); Qırq yaşıma Mağgi qorğan qışladuqda yut boldi. (Bb, 31) – (Qırq yoshimda Mag'i qo'rg'onda qishlaganimizda, yut bo'ldi); Tuğ taşiqir ärıklı yälmä äri kältili. (Moyun chur, 13) – Kechqurun quyosh botganda, men jangga kirdim; Täjri kuç bärtuk üçün qanım qağan süsi böri täg ärmis. (Kt, 12) – (Tangri kuch bergani uchun, otam hoqonning lashkari bo'ridek ekan).

b) shart fe'li orqali: Kül tägin yoq ärsär, qop öltäçi ärtigiz. (Kt, 50) – (Kultegin bo'lmasa butunlay o'lar edingiz); Usanin ığtdim ärsär yäm. (Oltin yoruq, 611) – (Qonib tarbiyalasam ham).

c) nisbiy olmoshlar (näj näj, qaçan) **bilan:** Qaçan anta tägip, ilinçü mögi işin ärtürdüktä ötrü. (Oltin yoruq) – (Qachonki u yerga yetib, sayr ishini bajo keltirgandan so'ng); Qaçan barz üskintä tägdüktä. (Oltin yoruq, 614) – (Qachonki bars oldiga yetgandan so'ng, yer olti marta turlicha tebrandi). Näj näj sábım ärsär bängü taşqa urtüm. (Kt, 11) – (Nima so'zim bo'lsa, mangu toshga yozdim).

d) ravishdosh orqali: Oza kälmis süsün Kül tägin agitip, at ongara bir oğuş alpağu on ärig, Tonga tägin yoğınta, ägirip ölürtimiz. (Kt, 47) – (Ilgari kelib olgan lashkarini Kultegin turg'izib otlantirib, bir qavm qahramon o'n erni To'nga tegin azasida qurshab olib o'ldirdik).

e) bog'lovchi va bog'lovchi vazifasidagi so'zlar (anıj üçün, antağanın üçün, täyin, qalti, abam, kim, täk, -ça) orqali: Bir tod sar arsiq ömäzsän, antiğinинг üçün... alqıntıq, arılıq. (Kt, 8) – (Bir to'yib olsang, ochlarni tushunmaysan, shuning uchun sarson bo'lding, xarob bo'lding); Soğdaq bodun ätäyin täyin, Yinçu ögüzük käçä Tämır qapıqqa tägi sülädimiz. (Kt, 39) – (Sug'daq xalqini tuzatayin deb, Yinchi daryoni kechib, Temir qapiqqacha lashkar tortdik); Munta da adin taqii oni aş içkü yoq kim, aç barzi tırgürgülü. (Oltin yoruq, 610) – (Bundan boshqa yana o'zgacha ovqat-u ichimlik yo'qli, och barsni to'ydirgudek); Kun täjri Rağuqa säkirtmiş täk yaruqsuz... boldi. (Oltin yoruq, 617) – (Kun tangri ot solgandek, nursiz bo'ldi); Uluğ oğlum ağrıp yoq boluça quğ sänjünög balbal tikä bärtim. (Bilgaxoqon, 9) –

(Bosh bolam kasal bo'lib, nobud bo'lishga Qur sangunni balbal qilib tikib qo'ydim).

f) üçün ko'makchisi orqali: Bägları boduni tuzsiz üçün tabqaç bodun täbligün kürlüğ üçün..., türk bodun ällädük älin içgini idmäs. (Kt, 6) – (Beklari to'g'ri bo'lmagani uchun, tabg'ach xalqi hiylakor bo'lgani uchun..., turk xalqi ushlab turgan davlatni qo'ldan chiqarib yuborgan).

Qadimgi turkiy tilda ergashgan qo'shma gaplarning bir qator turlari qo'llanishda bo'lgan:

Ega ergash gapli qo'shma gap bosh gapda ishtirok etgan yoki tushirib qoldirilgan egani izohlab keladi: İda taşda qalmıştı qobranchı yəti yüz boltu – (Toqayda, toshda qolgani to'planib, yetti yuz kishi bo'ldi); Äki bij ärtimiz biz, äki sü boltu – (Ikki ming kishi edik biz, ikki qo'shin bo'ldi) (To'n).

Kesim ergash gapli qo'shma gapda bosh gapda ishtirok etgan yoki tushirib qoldirilgan kesim izohlanadi: Apa tarqanğaru ičrä sab idmüs: Bilgä Tonyuquq anığ ol – (Apa tarxonga yashirin xat yubormish: Bilga To'nyuquq yomon u)(To'n); Oläki kişi bar ärsär, säni tabğaçığ ölürtächi tirmän – (O'sha ikki kishi bor bo'lsa, seni - tabg'achni o'ldirajak, derman).

Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap. Bu xil ergash gaplar bosh gap tarkibida kelib, bevosita o'zi aniqlab kelayotgan otning oldida qo'llanadi: Qaňımız äčimiz qazğanmiş bodun atı, küsi yoq bolmazun tä yin türk bodun üçün tün udümadım, küntüz olurmadım (KT) – (Otamiz, akamiz qozongan xalqning nomi, shahrati yo'q bo'lmasun deb turk xalqi uchun kechasi uxlamadim, kunduzi o'tirmadim); Közün körmädük qulqaqın äsidmädük bodunüm – (Ko'z bilan ko'rmagan, quloq bilan eshitmagan xalqim) (KT); Ol amtı anığ yoq türk qağan Ötükän yiş olursar... – (U endi yomonligi yo'q turk hoqoni Otukan yerida o'tirsa) (KT, 3)²⁶.

To'ldiruvchi ergash gap bosh gap tarkibidagi olmosh-to'ldiruvchini yoki fe'l-kesimning ma'nosini izohlaydi va bosh gap mazmunini to'ldiradi: Äki şadulayu ini yigünim, oğlanım, bälärim, bodunım közi, qaşı yablaq boltači täp, saqıntıım – (ikki shad keyingi ini jiyanım, bolam, beklarım, xalqimning ko'zi, qoshi yomon bo'ladi deb, o'yladim) (KT); ...näjnäj sabım ärsär, bañgu taşqa urtım – (Nimaiki so'zim bo'lsa, mangu toshga urdim (yozdim)) (KT).

Maqsad ergash gapli qo'shma gapda qismlarning biri ikkinchisidan anglashilgan mazmun nima maqsadda ro'y berishini ifodalaydi, täyin va uning variantlari vositasida bosh gapga bog'lanadi. Masalan: Türk bodun yıtmazıñ täyin yoluq ärmazıñ täyin üzä täjrı tär ärmış... - turk xalqi yo'qolmasın deb, qurbon bo'lmasın deb, ko'kdagi Tangri der emish ... (O'n); Yalabači ädgü sabi ötügi kälmäz täyin yayın sülädim – (Elchisi, ezgu so'zi, arzi dodi kelmayapti deb, yozda lashkar tortdim) (BX). Türk bodunuğ atı küsi yoq bolmazun täyin ...qağan olurtdı ärinç – (Turk xalqining nomi dongi yo'q bo'lmasın deb, ...hoqon qilib o'rnatdi, shekilli) (KT, 26).

Payt ergash gap bosh gapdan anglashilgan mazmunning ro'y berish vaqtini ifodalaydi va bosh gapga o'rin-payt, chiqish kelishigi shakli orqali bog'lanadi: Bän özüm bılıgä Tonyuquq Ötükän yäriq qonmüs täyin äsidiپ, bäreyaķı bodun, quriyaqı, yirayaqı, öñräki bodun kälti – (Men o'zim bilimdon To'nyuquq O'tikan yeriga qo'ndi deb eshitgach, janubiy xalqlar, g'arbiy, shimoliy va sharqiy xalqlar keldilar)

²⁶ Ba'zan aniqlovchi ergash gaplarning kesimi "yo'q" so'zi orqali ham ifodalanishi mumkin.

(To'n, 17); Äčim qağan qamşaǵ boltuqıntı, bodun ölüg iglig boltuqıntı Izgil bodun birlä süjüshdimiz – (amakim xoqonning davlati zaif bo'lganda, xalq o'lib, kasal bo'lib turganda Izgil xalqi bilan jang qildim) (KT, 17).

Sabab ergash gapli qo'shma gapni tashkil etgan gap bosh gapdan anglashilgan harakat-holatning ro'y berish sababini bildiradi, ergash gapni bosh gapga bog'lashda üçün ko'makchisi xizmat qiladi. Bunda ergash gap kesimi sifatdosh yoki ot, sifat orqali ifodalanadi. Masalan: İçükdük üçün täjri ol tämis ärinç –(Taslim bo'lgani uchun tangri o'l degan shekilli). (To'n, 3); Täjri yarlıqaduq üçün öküš täyin biz qorqmadımız süjüshdimiz – (Tangri yorlaqagani uchun ko'p, biz qo'rqedik, jang qildik) (To'n); Täjri küç bärtük üçün qajüm qağan süsi böritäg ärmis – (Tangri kuch bergani uchun otam xoqonning qo'shini bo'riday ekan) (KT).

Shart ergash gap bosh gapdan anglashilgan mazmun qanday shart-sharoitlarda ro'y berishini ko'rsatadi va kesimi shart fe'li yoki ot bilan ifodalanadi: Üzä täjri basmasar, asra yär tälitmäsär, türk bodunälijin törüjin artati? – (Tepadan osmon bosmagan bo'lsa, pastda yer yorilmagan bo'lsa, turk xalqi eling, qonun-qoidangni kim buzdi?)(KT); Kül tägin yoq ärsär, qop öltäçı ärtigiz – (Kultegin bo'lmasa, butunlay o'lar edingiz) (KT, 50); Ältäriş qağan qazğanmasar, udu bän özüm qazğanmasar, äl yämä, bodun yämä yoq ärtächi ärti – (Eltarişxoqon (g'alaba) qozonmasa, so'ňra men o'zim qozonmasam, el ham, xalq ham yoq bo'lar edi) (To'n).

Bir necha ergash gapli qo'shma gaplar. Qadimgi yodnomalar tili ma'lum darajada shakllangan yozma adabiy til edi. Shuning uchun ham bu yodnomalarda qo'shma gapning turli shakllari -bir necha ergash gapli qo'shma gaplar, ergash va bog'lovchisiz gaplarni o'z ichiga olgan murakkab tarkibli qo'shma gaplarqo'llaniladi: Ältäriş qağan qazğanmasar, yoq ärtiärsär, bän özüm Bilgä Tonyuquq qazğanmasar, bän yoq ärtim ärsär Qapağan qağan türk sir bodun yärintä bod yämä kişi yämä idi yoq ärtächi ärti – (Eltarispoqon g'alaba qozonmasa, yo'q bo'lsa, men o'zim Bilga To'nyuquq qozonmasam, men yoq bolsam, Qapag'an xoqon, turk sir xalqi yerida urug' ham, kishi ham, ega ham yo'q bo'lgan bo'lardi (To'n). Tarkibi turli tipli konstruksiyalardan tuzilgan murakkab tarkibli qo'shma gaplar uchraydi: Yuyqa ärklig topulgalı učuz ärmis, yinčä ärklig üzgäli učuz, yuyqa qalın bolsar, topulğuluq alp ärmis, yinčä yoğan bolsar, üzgülüq alp ärmis – (Yupqa narsa engishga oson emish, ingichka narsa uzishga oson, yupqa qalin bo'lsa, to'plovchi bahodiremish, ingichka yo'g'on bo'lsa, uzuvchi bahodir emish) (To'n).

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Sodda gapning xususiyatlarini bayon eting.
2. Qo'shma gapning grammatik asosini izohlang.
3. Bog'langan qo'shma gaplar haqida ma'lumot bering.
4. Ergash gapli qo'shma gaplarning bosh gapga birikish yo'llarini tushuntiring.
5. Bir necha ergash gapli qo'shma gaplarning xususiyatlari haqida so'zlang.

Test sinovi:

1. Üç körög kişi kälti, sabi bir: qağanii sü taşıqdī, on oq süsi qalısız taşıqdīgapida qanday munosabat ifodalangan?
 - A) zidlik;
 - S) sabab-natija;
 - B) qiyoslash;
 - D) izohlash.
2. Azu uluğ bačaǵ kün, azu kičig bačaǵ künkä qılsarjumlesi qo'shma gapning qaysi turiga kiradi?
 - A) bog'langan qo'shma gap
 - S) bog'chisiz qo'shma gap
 - B) ergashgan qo'shma gap
 - D) murakkab qo'shma gap
3. Täjri kuč bäftük üchün qajım qağan süsi böritäg ärmis, yağıssi qonitäg ärmis-keltirilgan gapda qaj so'zi qaysi ma'noda kelgan?
 - A) xon S) ota
 - B) ona D)qon
4. Oza kälmis süsin Kültegin ağıtip, at oñara bir oğuš alpaǵu on ärig, Toja tegin yoğinta ägirip ölümiz jumlesi qo'shma gapning qaysi turiga kiradi?
 - A) bog'langan qo'shma gap
 - S) bog'chisiz qo'shma gap
 - B) ergashgan qo'shma gap
 - D) murakkab qo'shma gap
5. Äčümiz apamiz tutmüs yär sub idisiz bolmazun täyinjumlasida ergash gap bosh gapga qanday bog'langan?
 - A) sifatdosh yordamida
 - S) shart mayli qoshimchasi yordamida
 - B) rabishdosh yordamida
 - D) ko'makchi yordamida

6.Udar Sañun kälti, Tabgač qağanta Isyi Likaj kälti, bir tümän ağı, altın, kümüs kärgäksiz kälürtijumlesi qo'shma gapning qaysi turiga kiradi?

- A) bog'langanqo'shma gap
- S) bog'chisizqo'shma gap
- B) ergashganqo'shma gap
- D) murakkab qo'shma gap

7.İda tašda qalmiši qobraniň yati yüz bolti–ushbu jumla ergashgan qo'shmagapning qaysi turiga kiradi?

- A) ega ergash gap
- S)aniqlovchi ergash gap
- B)kesim ergash gap
- D) to'ldiruvchi ergash gap

8.Türk bodun yitmäzün täyin yoluq ärmäzün täyin üzä täjri tär ärmiš...jumlasiergashgan qo'shmagapning qaysi turiga kiradi?

- A) payt ergash gap
- S)sabab ergash gap
- B)maqsad ergash gap
- D) to'ldiruvchi ergash gap

Mavzu uchun tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. -T., 1982. - 182 b.
2. Aliyev A., Sodiqov Q. O'zbek adabiy tili tarixidan. -T., 1994. - 96 b.
3. Abdurahmonov N. Qadimgi turkiy til. - T., 1989.
4. Azimov I., Rahmatov M. Qadimgi turkiy til. (O'quv-metodik qo'llanma). - Toshkent: Nizomiy nomidagi TДПУ, 2005. - 136 6.
5. Mutallibov S. Morfologiya ya leksika tarixidan qisqacha ocherk - T., O'zFA. 1959.
6. H. Ne'matov. O'zbek tili tarixiy fonetikasi. -T., 1992.-102 b.
7. Fozilov E. O'zbek tilining tarixiy morfologiysi.-T., 1965.
8. To'ychiboyev B. O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. - T., O'qituvchi. 1996.
9. Кононов А.Н. Грамматика языка тюрско-рунических памятников. - Л.,1980.
10. Малов С.Е. Памятники древнетюрской письменности Монголии и Киргизии. М-Л., 1959. - 142 с.
11. Sanaulov U. O'zbek adabiy tili tarixining ilk davrlari. - T., 2004.
12. Qo'chqortoyev I., Isabekov B. Turkiy filologiyaga kirish. -Toshkent: O'qituvchi, 1984. - 112 b.

QADIMGI TURKIY TIL FANI TERMINLARI LUG‘ATI (GLOSSARY)

QADIMGI TURKIY TIL DAVRI - VII-XIII asrlarni o‘z ichiga oladi

OLTOY TILI – mo‘g‘ul, tungus va turk tillarining ajdodi

OLTOY TILI DAVRI - bu davr turkiy tillar taraqqiyotining birinchi, eng qadimgi bosqichi.

XUN DAVRI - turkiy tillarning eng qadimgi davrlardagi taraqqiyotining ikkinchi bosqichi xun davri hisoblanadi (eramizgacha III asrdan eramizning IV asrigacha).

TURK HOQONLGI – 552-yilda tashkil topgan bo‘lib, Markaziy Osiyodagi xalqlar Manchjuriya va Enasoy qirg‘oqlarigacha bo‘lgan yerkarni o‘zlariga qarashli qilib olgan davlat.

YADRINSEV N.M. - sibirlik o‘lkashunos bo‘lib, u tomonidan 1889-yilda Mo‘g‘ulistonda O‘rxun daryosi bo‘ylaridan topilgan yodgorliklar katta ahamiyatga ega.

O‘RXUN-ENASOY YODGORLIKHLARI - toshlarga o‘yib bitilgan yozuvlardan, idish, tangalar kabi buyumlarda va qog‘ozlarga yozilgan bitiklardan iborat bo‘lib, bir qancha vaqtlar olimlar uchun o‘qilishi jumboq bo‘lib qoladi. Shunga ko‘ra, u qadimgi skandinav-german tillariga oid run, runiy (runa-sirli, yashirin demakdir) yozuvi nomi bilan ham yuritiladi.

RADLOV V.V. - rus turkshunos olimi, u O‘rxun-Yenisey yozuvlarini XIX asrning 90-yillarida o‘qishga muvaffaq bo‘ladi.

TOMSEN V. - mashhuri turk xonlari Kultegin va To‘nyuquq sha’niga qo‘yilgan qabr toshlariga yozilgan yodgorliklarni 1893-yil 15-dekabrdan Daniya fanlar akademiyasi majlisida O‘rxun daryosi bo‘yidan topilgan yodgorliklar ekanligini isbotlab, uning sirini topganligini ma’lum qildi va bu yodgorlik turkiy xalqlar tilida yozilganligini bildirdi.

KULTEGIN BITIKLARI - bu bitiktosh Eltarish o‘g‘li Bilga hoqonning inisi Kultegin sharafiga qo‘yilgan.

BILGA HOQON BITIGTOSHI - Bu marmar Eltarish hoqonning o‘g‘li Kulteginning og‘asi Bilga hoqon sharafiga 735-yilda qo‘yilgan.

TO‘NYUQUQ BITIGTOSHI - Bu yozuv yodgorligi ikkinchi turk hoqonligining asoschisi Eltarish hoqon va uning xotini Elbilga xotun sharafiga, so‘ngra Qapag‘an hoqon sharafiga qo‘yilgan deb taxmin qilingan edi. J.Klosson bitikning ayrim yerlariga tuzatish kiritib, yuqorida fikrlarning noto‘g‘riligini isbotladi va bitiktosh Qapag‘on bilan Bilga hoqonlarning sarkardasi Eltarishning sharafiga qo‘yilgan degan qarorga keldi.

KULICHUR BITIKTOSHI - Bitiktoshni 1912-yilda polshalik professor V.Kotvich Mo‘g‘ulistonning Ulan-Bator yaqinidagi Ixe-Xushotu manzilidan topgan.

MOYUNCHUR BITIKTOSHI - Buni fin olimi G.I. Ramstedt 1909-yilda Shimoliy Mo‘g‘ulistonda Selenga daryosi va Shineusu ko‘liga yaqin yerdan topgan. Bitiktosh 759-yilda qo‘yilgan deb taxmin qilinadi.

UYG‘UR YOZUVI YODGORLIKHLARI – “Xuastuanift”, “Shahzodalar Qalyanamqara va Papamqara haqida qissa”, “Oltin yoruq”, “Sekiz yukmak” va hokazolar.

“XUASTUANIFT” - (moniy larning tavbanomasi). Bu yodgorlikning uch nusxasi bor, ular Sankt-Peterburg, Berlin va Londonda saqlanadi. Turfondan topilgan Sankt- Peterburg nusxasi uyg‘ur yozuvida bitilgan. Turfondan va «Ming budda g‘ori» ibodatxonasidan topilgan Berlin va London nusxalari moniy yozushi bilan bitilgan bo‘lib, uning til xususiyatlarini aks ettiradi. Bu yodgorliklarni 1910-1911-yillarda ingliz olimi Le Kok Berlin Londonda nashr ettirgan. L.V. Dmitriyeva 1963-yilda uni lotin alifbosida ruscha tarjimasi bilan nashr ettirdi.

“SHAHZODALAR QALAYANAMQARA va PAPAMQARA HAQIDA QISSA” - bu yodgorlikning matni 1914-yilda fransuz olimi P. Pello tomonidan fransuzcha tarjimasi bilan nashr ettirilgan.

“OLTIN YORUQ” - asli qadimgi hind-sanskritcha «Suvarnaprabhasa» (oltin jilo). Budda diniga oid bo‘lgan sutra (muqaddas kitob)ning turkiy tarjimasi bo‘lib, qisqacha «Oltun yoruq» nomi bilan yuritiladi. U X asrda beshbaliqlik Singku Seli Tutung tomonidan turkiy tilga o‘girilgan. Bizgacha uning 10 ga yaqin nusxasi yetib kelgan. 1909-1917-yillarda rus turkshunosi S.E.Malov Suchjou shahriga yaqin Vungshagudan topgan va 1913-1917-yillarda nashr ettirgan (V.V.Radlov bilan birga) nusxa boshqalarga nisbatan mukammalroq bo‘lib, Sankt-Peterburgda saqlanadi.

“SEKIZ YUKMAK” - Turfondan topilgan bu yodgorlik matnini nemis olimlari V.Bang, A.Fon Gaben va turk olimi G.R. Rahmatiyalar 1934-yilda Berlinda nashr ettirganlar. Bulardan tashqari, uyg‘ur yozuvida yozilgan bir qancha obidalar, turli afsonalardan olingan parchalarning matnlari bitilgan yodgorliklar bor. Shuningdek, VIII-X asrlarga va keyingi davrlarga oid juda ko‘p uyg‘urcha yuridik-huquqiy hujjatlar ham mavjud. Bu yodgorliklarda ham adabiy til, ham xalq so‘zlashuv tili xususiyatlari aks etgan.

TEST SAVOLLARI

1. Qadimgi turkiy til qaysi davrlarni o‘z ichiga oladi?
 - A. V - VI asrlar
 - B. III - IV asrlar
 - C. VII-XIII asrlar
 - D. VI-XIX asrlar
2. “...mo‘g‘ul tili turk va tungus tillari bilan birga o‘zlarining bir umumiy ajdodiga ega bo‘lganki, uni shartli ravishda oltoy tili deb atash mumkin. Oltoy tili hozircha ma’lum emas, ya’ni oltoy tilining rivojlanishi jarayonida tashkil topgan mo‘g‘ul, turk, tungus tillari ma’lum”. Mazkur mulohaza qaysi turkolog olimga tegishli?
 - A. V.Tomsen
 - B. V.Radlov
 - C. B.Yadrinsev
 - D. S.Malov
3. Turkiy tillar tarixida turk va mo‘g‘ul tillari qachon ikkiga ajralgan?
 - A. xun davrining oxirlarida
 - B. oltoy davrining oxirlarida
 - C. qadimgi turkiy til davrida
 - D. Sharqiy turk hoqonligi davrida
4. Turkiy tillar taraqqiyotining nechanchi bosiqichi xun davri sanaladi?
 - A. birinchi bosqichi
 - B. uchinchi bosqichi
 - C. ikkinchi bosqichi
 - D. beshinchi bosqichi
5. Xun davrida turlichu turk, mo‘g‘ul, tungus-manchjur qabilalari tillarining o‘zaro bir-biriga ta’sir qilishi, qo‘silishi, chatishib ketishi va qayta tashkil topishi jarayonida o‘sha vaqtida qaysi tillarning ta’siri va jiddiy ishtiroki bo‘lgan?
 - A. hech qaysi tilning ishtiroki bo‘lмаган
 - B. qadimgi eroni, arab, sanskrit va slavyan qabilalari tillarining
 - C. qadimgi eroni, xitoy, sug‘d va slavyan qabilalari tillarining
 - D. qadimgi eroni, xitoy, sanskrit va slavyan qabilalari tillarining
6. Xun davrida turkiy tillar tarixida **r-l** allomorfli tillar guruhiga qaysi tillar kirgan?
 - A. qadimgi avar, bulg‘or va qadimgi chuvash.
 - B. qadimgi o‘g‘uz, qirg‘iz va qarluq
 - C. qipchoq, chuvash va avar
 - D. bulg‘or, qarluq va uyg‘ur
7. Fonetik qurilish va leksikadagi **-s/z** va **l-sh/j** tarzida moslashish hodisasining qoldiqlarini hozirgi qaysi tillarda kuzatish mumkin?
 - A. kavkaz tillarida
 - B. sharqiy Turkiston tillarida
 - C. faqat oltoy tillarida.
 - D. oltoy va bir qator turkiy tillarda.

8. Tosh, idish, tanga va qog‘ozlarga o‘yib bitilgan yozuvlar...
 - A. O‘rxun yodgorliklari
 - B. Enasoy bitiklari
 - C. Uyg‘ur yodgorliklari
 - D. O‘rxun va Enasoy yodgorliklari
9. O‘rxun-enasoy yodgorliklarini XIX asrning 90-yillarida o‘qishga musharraf bo‘lgan olimlar kimlar?
 - A. S.Malov va Stralenberg
 - B. V.Tomsen va V.V.Radlov
 - C. A.Kononov va S.Malov
 - D. Stralenberg va V.V. Radlov
10. Qadimgi turkiy run yozuvi qaysi yozuv asosida paydo bo‘lgan?
 - A. Sug‘diy yozuvi asosida
 - B. Oromiy yozuvi asosida
 - C. Arab yozuvi asosida
 - D. Qadimgi xorazm va oromiy yozuvlari asosida
11. 1893-yil 15-dekabrida O‘rxun daryosi bo‘yidan topilgan yodgorlikni qaysi olim fanga oshkor qildi?
 - A. S.Malov
 - B. V. Radlov
 - C.R.Melioranskiy
 - D. V.Tomsen.
12. 1894-yil 19-yanvarida Kultegin sharafiga qo‘yilgan yodgorlikning tarjimasini qaysi olim fanga oshkor qildi?
 - A. S.Malov
 - B. V. Radlov
 - C. R.Melioranskiy
 - D. V.Tomsen.
13. Yenisey yodgorliklariga asosan nimalar kiradi?
 - A. Kultegin, To‘nyuquq yodgorliklari.
 - B. faqat Yenisey daryosidan topilgan yodgorliklar
 - C. hozirgi Rossianing turkiy xalqlar yashaydigan barcha hududlarida topilgan yodgorliklar.
 - D. Yenisey va Tuva avtonom viloyatidan topilgan yodgorliklar.
14. O‘rxun yodgorliklariga kiradigan asosiy yodgorliklar qaysilar?
 - A. Kultegin, To‘nyuquq yodgorliklari
 - B. Kultegin, Xuastuanift yodgorliklari
 - C. Xuastunaift, Oltin yoruq
 - D. Sekiz yukmak, Oltin yoruq, Shahzodalar qissasi
15. To‘nyuquq bitktoshi kimning sharafiga qo‘yilgan?
 - A. Bu yozuv yodgorligi ikkinchi turk hoqonligining asoschisi Eltarish hoqon va uning xotini Elbilga xotun sharafiga
 - B. Qapag‘an hoqon sharafiga
 - C . Qapag‘an bilan Bilga hoqonlarning sharafiga
 - D. Sarkarda Eltarishning sharafiga

16. Kulichur bitiktoshini qaysi olim aniqlab fanga kiritgan?
- A. 1913-yilda rus turkologi S.Matov
 - B. 1983-yilda rus turkiyshunosi V.Radtov
 - C . 1912-yilda polshalik professor V.Kotvich
 - D. 1909-yilda fin olimi G.I.Ramstedt
17. Moyunchur bitiktoshi qaerda kim tomonidan topilgan?
- A. Shimoliy Mo‘g‘ulistonnda Selenga daryosi va Shineusu ko‘liga yaqin yerda G.I.Ramstedt tomonidan topilgan.
 - B. Mo‘g‘ulistonning Ulan-Bator yaqinidagi Ixe-Xushotu manzilidan V.Kotvich tomonidan topilgan.
 - C. Mo‘g‘ulistonning O‘rxun daryosi bo‘ylarida V. Radlov tomonidan topilgan.
 - D. Rossiyaning Yenisey daryosi bo‘yida F.Stralenberg tomonidan topilgan.
18. “Bu yodgorlikning uch nusxasi bor, ular Sankt-Peterburg, Berlin va Londonda saqlanadi. Turfondan topilgan Sankt-Peterburg nusxasi uyg‘ur yozuvida bitilgan. Turfondan va «Ming budda g‘ori» ibodatxonasidan topilgan Berlin va London nusxalari moniy yozuvi bilan bitilgan bo‘lib, uning til xususiyatlarini aks ettiradi”. Mazkur ma’lumot qaysi uyg‘ur yozuvi yodgorligi haqida?
- A. “Shahzodalar Qalyanamqara va Papamqara haqida qissa”.
 - B. “Oltin yoruq”.
 - C . “Xuastuanift”
 - D. “To‘nyuquq”
19. “Xuastuanift” yodgorligini 1910-1911-yillarda qaysi tarkolog olim qayerda nashr ettirgan?
- A. Le Kok Byorlin, Londonda
 - B. L.V.Dmitreva, Sankt-Peterbugda
 - C. P.Pello, Parijda
 - D. Singku Seli Tutung, Mo‘g‘ulistonnda
20. “Xuastuanift” yodgorligini 1963-yilda lotin alifbosida ruscha tarjimasi bilan nashr ettirgan turkiyshunos olim kim?
- A. V.Radlov
 - B. S.Malov
 - C. L.Dmitreva
 - D. V.Tomsen
21. “Shahzodalar Qalyanamqara va Papamqara haqida qissa” yodgorligini 1914-yilda fransuz tilida nashr ettirgan olim kim?
- A. P.Pello
 - B. Singku Seli Tutung
 - C. S.E.Malov
 - D. V.Tomsen
22. Asli qadimgi hind-sanskritcha “Suvarnaprabhasa” asari bugungi kunda qanday romланади va u kim tomonidan hamda qachon turkiy tilga o‘girilgan?
- A. Sekiz yukmak, A.Fon Gaben, IX asr
 - B. Oltin yoruq, Singku Seli Tutung, VII asr

- C. Sekiz yukmak, A.Fon Gaben, XI asr
D. Oltin yoruq, Singku Seli Tutung, X asr
23. 1909-1917-yillarda rus turkshunosi S.E.Malov Suchjou shahriga yaqin Vungshagudan topgan yodgorlikning nomi qaysi?
- A. "Sekiz yukmak"
 - B. "Oltin yoruq"
 - C. "Xuastuanift"
 - D. "Kultegin"
24. "*Turfondan topilgan bu yodgorlik matnini nemis olimlari V.Bang, A.Fon Gaben va turk olimi G.R.Rahmatiylar 1934-yilda Berlinda nashr ettirganlar. Bulardan tashqari, uyg'ur yozuvida yozilgan bir qancha obidalar, turli afsonalardan olingan parchalarning matnlari bitilgan yodgorliklar bor*". Mazkur ma'lumot qaysi yodgorlik haqida?
- A. "Sekiz yukmak"
 - B. "Oltin yoruq"
 - C. "Xuastuanift"
 - D. "Kultegin"
25. "VIII-X asrlarga va keyingi davrlarga oid juda ko'p uyg'urcha yuridik-huquqiy hujjatlar ham mavjud. Bu yodgorliklarda ham adabiy til, ham xalq so'zlashuv tili xususiyatlari aks etgan". Mazkur mulohazalar qaysi yodgorlik haqida?
- A. "Oltin yoruq"
 - B. "Xuastuanift"
 - C. "To'nyuquq"
 - D. "Sekiz yukmak"
26. *Quyidagi ta'rif qaysi til sohasiga tegishli? Ta'rif: "Ma'lum bir til unli va undosh tovushlarining turli davrlardagi taraqqiyoti, har bir taraqqiyot davri uchun xos bo'lgan fonetik sistema, ayrim unli va undosh tovushlarning shakllanishi va tarixiy taraqqiyoti, asosiy fonetik qonuniyatlar kabi masalalarni o'rganadi".*
- A. turkiy til fonetikasi
 - B. tarixiy fonetika
 - C. eski o'zbek tili fonetikasi
 - D. umuman fonetika xususida
27. Qadimgi turkiy tilda o'rxun alifbosidagi ayrim harflar tovushlar birikmasini ifodalaydi. Bu birikmalar jarangli va jarangsiz tovushlar birikmasidan iborat. Bunday xususiyat qaysi tillarda uchramaydi?
- A. uyg'ur va arab alifbosida
 - B. xitoy va arab alifbosida
 - C. oromiy va uyg'ur alifbosida
 - D. uyg'ur va so'g'd alifbosida
28. Qadimgi turkiy tilda qaysi undosh tovush mavjud bo'lmagan?
- A. lab undoshi "b"
 - B. lab undoshi "f"
 - C. sirg'aluvchi "f"

D. lab-tish undoshi “f”

29. Qadimgi turkiy tilda “lab-lab, nazal, portlovchi, sonor (shovqinsiz) undosh” qaysi qatorda ko‘rsatilgan?

A. “b”

B. “n”

C. “v”

D. “m”

30. Qadimgi turkiy tilda o‘rxun yozuvidagi manbalarda qaysi tovush uchun maxsus harf yo‘q edi.?

A. “b” uchun

B. “f” uchun

C. “t” uchun

D. “v” uchun

31. (...) undoshi uyg‘ur yodnomalarda bor. (...) faqat so‘z o‘rtasi va oxirida o‘rxun yodnomalaridagi **b** o‘rnida uchraydi. (...) belgisi o‘rnida qaysi undosh tovush nazarda tutilmoqda?

A. “b” haqida

B. “v” haqida

C. “p” haqida

D. “m” haqida

32. *Bu* tovush til oldi, portlovchi, sonor, nazal undosh bo‘lib, so‘z boshida kamroq va boshqa pozitsiyalarda ko‘proq uchraydi. ***Bu yerda qaysi undosh haqida so‘z bormoqda?***

A. “n” haqida

B. “t” haqida

C. C. “d” haqida

D. D. “m” haqida

33. Qadimgi turkiy tilda mavjud bo‘lmagan tovushlar qaysilar?

A. qorishiq “ch” va “j”

B. bo‘g‘iz “h” va til orqa “x”

C. titroq “r” va yon “l”

D. barcha tovushlar iste‘molda bo‘lgan.

34. Qadimgi turkiy til leksikasini necha qatlamga bo‘lish mumkin?

A. ikki

B. uch

C. to‘rt

D. besh

35. Qadimgi turkiy til teksikasida o‘z qatlamga mansub ma’noviy guruhlar miqdori nechaga ajraladi?

A. ikki

B. o‘ndan ortiq

C. beshta

D. cheksiz

36. *Qadimgi turkiy til leksikasidagi* etnonimlar, tabiat hodisalarini bildiruvchi leksemalar, mansabni bildiruvchi leksemalar, gidrotoponimlar, zoonimlar, qarindoshlikni bildiruvchi terminlar, harbiy sohaga oid terminlar *kabilar qaysi qatlamga xos?*

- A. o‘z qatlam
- B. o‘zlashma qatlam
- C. dialektal qatlam
- D. barcha leksik qatlamlar bir manbaning ko‘rirlashlari

37. "Chug‘ay, Qaraqum, Shantun baliq, Altun yis, Kogmen, Temir qapig‘, Sog‘daq, Etuken yish, Shantun yazi, Tuput, Bekli chel, Chacha, Ezgenti, Buqaraq, Mag‘i qorg‘an, Tabg‘ach" *kabi toponimlar qaysi davr manbalarida uchraydi?*

- A. X-XIX asrlar
- B. X-XI asrlar
- C. XI-XIX asrlar
- D. V- XI asrlar

38. Turkiy va turkiy bo‘lmagan urug‘, qabilalar nomlarini aniqlash, ularni leksik-semantik tomondan tahlil qilish juda qiyin vazifadir. Chunki buning uchun (...) kuzatishlar olib borish talab qilinadi. (...) belgisi o‘rnida qanday so‘z yashiringan?

- A. dilektologik
- B. etnografik
- C. lingvogeografik
- D. etimologik

39. Turkiy va turkiy bo‘lmagan urug‘, qabilalar to‘g‘risida ilk ma’lumotlar qaysi manbada ko‘proq uchraydi?

- A. M.Zamaxshariy “Muqaddimatul adab”
- B. M.Qoshg‘ariy “Devonu lug‘otit-turk”
- C . “To‘nyuquq bitiktoshi” yodgorligida
- D. “Kulichur bitigtoshi” yodgorligida

40. *“Irtish* (Kt), *Selenge* (Kt), *Yinju Oguz* (Kt), *Qarakul* (Ung), *Altinkol* (Bh), *Yashil og‘uz* (Kt), *Yartikol* (Ung), *Balqashkol* (To‘n) va boshqa shunga o‘xshashlarni ko‘rsatish mumkin” kabilar turkiy til leksikasining qaysi leksik qatlamiga mansub?

- A.onomastika
- B.tonomimika
- C. gidrotoponimika
- D. o‘z qatlam, onomasiologiya

41. Shaxslarning ma’lum bir sifat xususiyatlariga asoslangan nom qo‘yish bilan bog‘liq leksemalar (tarixiy onomasiologik aspekt) qatorini toping.

- A.Irtish, Selenge, Yinju *Oguz*.
- B.Qarakul, Altinkol, Yashil og‘uz
- C . Selenge, Qarakul, Altinkol
- D. Kultegin, To‘nyuquq, Bilga hoqon

42. Qadimgi turkiy tilda omonimlar qaysi so‘z turkumlari doirasida uchraydi?
- A. ot, sifat, fe’l va ravish
 - B. barcha mustaqil so‘zlar
 - C. sifat, fe’l, ot va olmosh
 - D. ot, sifat, son va fe’l
43. Qadimgi turkiy tilda o‘zlashma qatlam leksikasini qanday leksik elementlar tashkil etgan?
- A. sug‘d, arab, hind, xitoy va slavyan tilidan o‘tgan so‘zlar
 - B. arab, hind, xitoy va grek tilidan o‘tgan so‘zlar
 - C. sug‘d, arab, hind, xitoy va grek tilidan o‘tgan so‘zlar
 - D. eron, arab, hind, xitoy va avar tilidan o‘tgan so‘zlar
44. Qadimgi turkiy til morfologik tip jihatidan qanday tillar sirasiga kiradi?
- A. agglyutinativ
 - B. flektiv
 - C. aralash
 - D. geterogen
45. Qadimgi turkiy tilda ot so‘z turkumiga kiruvchi so‘zlar semantik jihatdan qanday guruhlarga ajratilgan?
- A. kishi nomlari, hayvon nomlari, jism nomlari, qavm-qarindoshlik nomlari, planetalar nomlari va h.k.
 - B. kishi nomlari, belgi nomlari, joy nomlari, planeta (sayyora) nomlari
 - C. leksik-semantik va grammatic-sitistik nominatsiya
 - D. leksik-onomasiologik va grammatic-onomasiologik nomlar
46. Qadimgi turkiy tilda ko‘plik ma’nosini qanday ifodalangan?
- A. **-lar/-lər affaksi orqali**
 - B. **-t(d) shakli orqali**
 - C. **-an, -ən grammatic shakli yordamida**
 - D. barchasi
47. Qadimgi turkiy tilda ko‘plik ma’nosini ifodalovchi **-lar/-lər** grammatic shakli kelib chiqishi jihatidan mo‘g‘rl tilidagi “nar” so‘zi bilan bog‘liq, degan ilmiy qarashlarga birinchi bor qarshi chiqqan turkolog kim?
- A. N.A.Baskakov
 - B. A.N.Kononov
 - C. S.E.Malov
 - D. A.Gaben
48. **-lar/-lər** grammatic shakli nechanchi asrlardan keyin boshqa so‘z turkumlarida ham qo‘llanila boshlangan?
- A. X asrlardan keyin
 - B. XI asrlardan keyin
 - C. IX asrlardan keyin
 - D. XIII asrlardan keyin
49. Otlarning ko‘plik kategoriyasini ifodalovchi **-t(d)** shakli qaysi davr manbalarida ko‘proq uchraydi?
- A. VII-XII asrlarda

- B. V-XII asrlarda
C.XI-XII asrlarda
D. X asrgacha bo‘lgan manbalarda
50. Turkiy tilda otlarning kelishiklar bilan turlanishi bu ...
A. morfologik hodisa
B. bosh kelishikdagi holatning o‘zgarishi
C. sintagmatik jarayon
D. paradigmatic jarayon
51. Qadimgi turkiy tilda so‘zlar uyushib kelganda, kelishik qo‘sishchasi qaysi so‘zga qo‘shiladi?
A. kelishik qo‘sishchasi barcha so‘zlarga, ba’zan oxirgi so‘zga
B. umumlashtiruvchi so‘zga
C. har bir so‘zga
D. bu qoida faqat hozirgi o‘zbek tili uchun tegishli
52. Kelishiklarning har xil fonetik variantlari bo‘lishi nima bilan bog‘liq?
A.fonetik hodisalar qonuniyatiga
B.prosodik meyorlarga
C . morfologik tamoyillarga
D. so‘zlarning qattiq va yumshoq o‘zakli bo‘lishiga
53. Qadimgi turkiy tilda nechta kelishik bo‘lgan?
A. 8 ta
B. 6ta
C. 7ta
D. 10ta
55. Qadimgi turkiy tilda nisbiy sifatlar qanday yasalgan?
A. semantik va grammatick usul bilan
B. morfologik va sintaktik usullar bilan
C. semantik, affiksatsiya va kompozitsiya
D. boshqa so‘z turkumlaridan yasovchi affikslar yordamida
- 56.-z qo‘sishchasi qaysi so‘z turkumidan sifat yasaydi?
A.otdan
B.sifatda
C.fe’ldan
D..ravish
57. -sig‘ qo‘sishchasi qaysi so‘z turkumidan sifat yasaydi?
A.otdan
B.sifatdn
C.fe ’ldan
D.ravish
- 58.Qadimgi turkiy tilda sifat darajalarining necha xil ko‘rinishi bo‘lgan?
A. oddiy, qiyosiy, orttirma
B. oddiy, ozaytirma, kuchaytirma, qiyosiy, orttirma
C. ozaytirma, kuchaytirma
D. barchasi

- 59.** Sanoq sonlar qadimgi turkiy tilda qanday morfologik ko'rsatkichlarga ega bo'lgan?
- A. morfologik ko'rsatkichi yo'q
 - B. -ta
 - C. -nch
 - D. nafar**
- 60.** Qaysi davr yodgorliklarida oldin birlik son aytilib, keyin shu songa xos o'nlik aytilgan? **Masalan: yeti otuz (27)**
- A. VI-XI asrlar
 - B. V-XI asrlar**
 - C. VI-X asrlar
 - D. VI-XIII asrlar
- 61.** Qadimgi turkiy tilda olmoshlar semantik xususiyati va vazifasiga ko'ra qanday guruhlarga ajratilgan?
- A. kishilik, o'zlik, ko'rsatish, so'roq, birqalik, belgilash
 - B. o'zlik, shaxs, so'roq, gumon, birqalik, belgilash**
 - C. kishilik, o'zlik, so'roq, birqalik, gumon, bo'lishsizlik
 - D. shaxs, o'zlik, ko'rsatish, so'roq, birqalik, gumon
- 62.** Qadimgi turkiy tilda iste'molda bo'lgan **kentu (kendu)** olmoshi semantik jihatdan qaysi turga mansub?
- A. kishilik
 - B. so'roq **C. birqalik D. o'zlik**
- 63.** Kishilik olmoshining III shaxs ko'pligi **-anlar** shakli qaysi davrlargacha iste'molda bo'lgan?
- A. V-X asrlar
 - B. XIII-XIV asrlar C. VIII-X asrlar**
 - D. IX-XI asrlar
- 64.** *alqu, qop* olmoshlari necha asrlarda iste'molda bo'lgan qaysi guruhga kiritilgan?
- A. VI-XI asrlarda, gumon
 - B. V-X asrlarda, birqalik**
 - C. VI-X asrlarda, birqalik
 - D. VI-IX asrlarda, kishilik
- 65.** Qadimgi turkiy tilda ravishlarning o'ziga xos xususiyati ko'proq nimada sezildi?
- A. yasalish xususiyatiga egalik
 - B. semantik guruhlarga egalik**
 - C. sintaktik funksiya bajara olishi
 - D. so'z o'zgartuvchi affikslar qabul qilmasligi**
- 66.** Qadimgi turkiy tilda funksional ravishlar ko'proq qaysi so'z turkumlaridan o'sib chiqqan?
- A. ot va sifat**
 - B. fe'l va ravish
 - C. fe'l va ot
 - D. ot va fe'l

- 67.** Qadimgi turkiy tilda otlardan o‘tgan ravishlar ko‘proq qanday ma’nolarni anglatgan?
- A. payt, miqdor, daraja
 - B. chegara va o‘rin
 - C. daraja, o‘rin, miqdor D. barchasi
- 68.** Qadimgi turkiy tilda qurol-vosita kelishigi formasida bo‘lgan otlar ko‘proq qaysi ravishlar o‘rnida kelgan?
- A. payt ravishi
 - B. o‘rin ravishi
 - C. chegara ravishi D. miqdor ravishi
- 69.** Qadimgi turkiy tilda faol iste’molda bo‘lgan *yadag’in*, *yalaqin*, *yaqin*, *kuntuzun* ravishlari qaysi funksiyada ishlatilgan?
- A. o‘rin
 - B. payt
 - C. holat
 - D. maqsad
- 70.** Qadimgi turkiy tilda *-a*, *-d*, *-i*, *-i*, *-u*, *-y* formalari bilan hosil bo‘lgan nutqiy hosilalar qanday ma’noda qo‘llangan?
- A. ravishdosh shakllari bo‘lib, ular ravish vazifasida kelgan.
 - B. ravishdosh shakllari bo‘lib, fe’lning xoslangan shaklini hosil qilgan.
 - C. ravish yasovchi grammatik shakllar
 - D. ham ravishdosh, ham ravishni hosil qiluvchi grammatik shakllar.
- 71.** Qadimgi turkiy tilda qo‘llangan *yashuruqi ariti*, *yaqin timin* kabilar ravishning qaysi turiga mansub?
- A. payt
 - B. o‘rin
 - C. holat
 - D. maqsad
- 72.** Qadimgi turkiy tilda fe’llar qanday leksik-semantik guruhlarga ajratilgan?
- A. mustaqil va ko‘makchi
 - B. yetakchi va ko‘makchi
 - C. yetakchi, ko‘machi, yordamchi
 - D. sof fe’llar, yordamchi fe’llar
- 73.** Fe’l turkumiga mansub grammatik xususiyatlar qaysilar?
- A. shaxs-son, mayl, bo‘lishli-bo‘lishsizlik, nisbat, zamonga egalik
 - B. funksional formalari, egalik shakllarining olishi.
 - C. mayl, kesim vazifasida kelishi, otlashish xususiyatiga egalik D. barchasi
- 74.** “*To‘nuquqqa, banga aydi*” gapining kesimi sodda shakldami yoki murakkab?
- A. sodda ot kesim
 - B. sodda fe’l kesim
 - C. murakkab kesim
 - D. sodda kesim

75. Turkiy tilda shaxs-son qo'shimchalarining qisqargan shakllari qanday fe'llarga qoshilgan?
- di, -di, -ti, -ti affiksi bilan tugagan fe'llarga
 - yetakchi fe'llarga
 - ko'makchi fe'llarga
 - faqat yordamchi fe'llardan keyin
76. "Kultegin" yodgorligidan keltirilgan: *Qatig'lang'il, qilg'il. TYrk bdgfor budun buni dshidiq! Лұғас korY ҺИШи!* matnida fe'l qaysi maylda qo'llangan?
- buyruq mayli
 - istak mayli C. shart mayli **D.** aniqlik mayli
77. Qadimgi turkiy tilda ish-harakatning bajaruvchiga bo'lgan munosabatini bildirgan fe'lning grammatik-kategoriyal shakli nima deb atalgan?
- nisbat
 - zamon
 - mayl
 - shaxs-son
78. Quyidagi **-l, -n, -q(-k)** grammatik shakllar qaysi nisbatni hosil qiladi?
- aniq va birgalik
 - o'zlik C. majhul
 - majhul va o'zlik
79. Qadimgi turkiy tilda sifatdoshlar qanday grammatik xususiyatlarga ega bo'lgan?
- bo'lishli va bo'lishsizlik
 - modallik
 - zamon
 - barchasi
80. Fe'l negiziga **-mish, -mish, -mis, -mis** affiksini qo'shish orqali qadimgi turkiy tilda qaysi zamon ma'nosi ifodalangan?
- o'tgan zamon
 - kelasi zamon**
 - hozirgi zamon
 - hozirgi-kelasi zamon
81. Sifatdoshlar otlashganda qanday xususiyatlarga ega bo'ladi?
- otga xos bo'lgan grammatik qonuniyatlarga ega bo'ladi
 - ko'plik, kelishik va egalik affiksini qabul qiladi.
 - . gapda ega, to'ldiruvchi va hol bo'lib kela oladi
 - barchasi
82. Qadimgi turkiy tilda grammatik ma'no ifodalashi jihatidan ko'makchilar qaysi til vositalariga o'xshaydi?
- bog'lovchilar
 - mustaqil so'zlar
 - kelishiklar
 - barchasi

83. Qadimgi turkiy tilda faol iste'molda bo'lgan "***uchun***" ko'makchisi bosh kelishik formasida kelgan so'zdan keyin kelganda nima yuz beradi?
- A. u matnda sabab, vaj, bois, ish-harakat jarayonining biror shaxsga atalganligini
 - B.** predmetga tegishliligi va ish-harakatning maqsadini
 - C. ergashgan qo'shma gap tarkibidagi ergash gapning sababini
 - D. barchasini
84. Vazifadosh ko'makchilar qanday kichik guruhlarga ajratilgan?
- A. ot va fe'l ko'makchilar
 - B.** ravish va fe'l ko'makchilar
 - C. qadimgi turkiy tilda funksional ko'makchilar mavjud emas
 - D. ot, ravish va fe'l ko'makchilar
85. Qadimgi turkiy tilda faol iste'molda bo'lgan "***tapa***" ko'makchisining ma'no ottenkasini aniqlang.
- A. payt
 - B.** tomon
 - C. maqsad
 - D. o'rin
86. Qadimgi turkiy tilda qaysi funksional ko'makchining qo'llanish doirasi tor bo'lgan?
- A. ot ko'makchi
 - B.** fe'l ko'makchi
 - C. ravish ko'makchi
87. Qadimgi turkiy tilda qanday bog'lovchilar faol iste'molda bo'lgan?
- A. teng bog'lovchilar
 - B.** ergashtiruvchi bog'lovchilar
 - C. tobe bog'lovchilar
 - D. uning vazifasini boshqa so'zlar bajargan
88. Qadimgi turkiy tilda boshqaruvchi so'zning xarakteriga ko'ra so'z birikmali necha guruhga bo'lingan?
- A. otli va fe'lli birikmalar
 - B.** fe'lli va ravishli birikmalar
 - C. otli, ravishli va fe'lli birikmalar
 - D. barchasi
89. Qadimgi turkiy tilda so'z birikmalarini tashkil etgan bo'laklarni o'zaro aloqaga kirish usuliga ko'ra necha turga bo'lish mumkin?
- A. bitishuv va boshqaruv
 - B.** boshqaruv, bitishuv va moslashuv
 - C. koordinativ va subordinativ aloqa.
 - D. barchasi.
90. Bitishuv yo'li bilan birikishning qadimgi turkiy tilda qanday ko'rinishlari uchraydi?
- A.** Ot bilan ot
 - B.** Sifat, son, olmosh yoki sifatdosh bilan
 - C. Ravish, ravishdosh, shart fe'li

D. barchasi

91. “VIII-X asrlarga va keyingi davrlarga oid juda ko‘p uyg‘urcha yuridik-huquqiy hujjatlar ham mavjud. Bu yodgorliklarda ham adabiy til, ham xalq so‘zlashuv tili xususiyatlari aks etgan”. Mazkur mulohazalar qaysi yodgorlik haqida?
- A. “Oltin yoruq”
 - B. “Xuastuanift”
 - C. “To‘nyuquq”
 - D. “Sekiz yukmak”
92. Qadimgi turkiy tilda qaysi undosh tovush mavjud bo‘lmagan?
- A. lab undoshi “b”
 - B. lab undoshi “f”
 - C. sirg’aluvchi f
 - D. lab-tish undoshi “f”
93. Qadimgi turkiy tilda jo‘nalishish kelishigi qanday shakllarda uchraydi?
- A) -g‘aru, -qaru;
 - B) -ga, -ka;
 - C) -in,-g‘aru;
 - D) A, B.
94. öltači, örurtači, körtači. Bu so‘zlar fe’lning qanday shakli?
- A) ravishdosh;
 - B) sifatdosh;
 - C) harakat nomi;
 - D) shart fe’li
95. Qadimgi turkiy adabiy tilining asosiy yozma yodnomalarini ko‘rsating. A) «Oltin Yoruq», «Devonu lug‘otit-turk»; B) «Kultegin», «Bilga Hoṇqon» C) «Qutadg‘u bilig», «Hibatul haqoyiq»; D) «Kultegin», «Devonu Hikmat»
96. Qadimgi va eski turkiy tilda harakat nomi qaysi qo‘sishimchalar orqali ifodalangan?
- A) -g‘aru, -qaru;
 - B) -ga, -ka;
 - C) -in,-g‘aru;
 - D) -mak, -iš
97. Qadimgi turkiy tilda teng bog‘lovchilar vazifasini qaysi so‘zlar o‘tagan?
- A) yemä, yana;
 - B) vale, ul sababdin;
 - C) taqii, dag‘ii;
 - D) A, C.
98. Qadimgi turkiy tilda yä bog‘lovchisi o‘rniga qaysi bog‘lovchi ishlataladi?
- A) vale;
 - B) taqi;
 - C) azu;
 - D) yemä

99. Qadimgi turkiy tilda ne yordamchisi o‘rnida qaysi so‘z qo‘llanilgan?
- A) dag‘i;
 - B) taqi;
 - C) emdi;
 - D) ab-ab.
100. Emdi, anta kisra kabi leksik vositalar qaysi davr tilida qo‘llanadi?
- A) qadimgi turkiy til;
 - B) eski o‘zbek tili;
 - C) hozirgi o‘zbek adabiy tili; D) A, B.

FOYDALANILGAN O‘QUV VA ILMIY ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdurahmonov G‘., Shukurov SH. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. - T., 1973. - 179 b.
2. Abdurahmonov G‘., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. -T.: O‘qituvchi, 1982.
3. Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O‘bek tilining tarixiy grammatikasi. -T.: Faylasuflar milliy jamiyati, 2008. - 288 b.
4. Abdurahmonov N. Qadimgi turkiy til. - T., 1989. - 114 b.
5. Ashirboyev S., Azimov I. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. - T.: Universitet, 2002. - 174 b.
6. Azimov I., Rahmatov M. Qadimgi turkiy til. (O‘quv-metodik qo‘llanma). -Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005. - 136 b.
7. Aliyev A., Sodiqov Q. O‘zbek adabiy tili tarixidan. -T., 1994. - 96 b.
8. Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. - Ташкент: Ёзувчи, 1991. - 185 с.
9. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. -М.: Л., 1960.
10. Кононов А.Н. Грамматика современного турецкого литературного языка. -М.: Л., 1956.
11. Кононов А.Н. Грамматика языка тюркско-рунических памятников. - Л., 1980.
12. Малов С.Е. Памятники древнетюрской письменности Монголии и Киргизии. М-Л., 1959. - 142 с.
13. Mahmudov Q. XI-XIV asrlar yozma obidalar tilining fonetik sistemasi.- T., 1991. -168 b.
14. Насилов В.М. Язык Орхено-Енисейских памятников. - М.,1960.
15. Насилов В.М. Древнеуйгурский язык. - М., 1963. - 147 с.
16. Ne’matov H. O‘zbek tilining tarixiy fonetikasi. -T.: O‘qituvchi, 1992. - 96 b.
17. Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных гамятников XI-XII вв. Фан,1989. - 192 с.
18. Nurmonov A., Mahmudov N. O‘zbek tilshunosligi tarixi. -T.: Kamolot-Qatortol, 2000. -173 b.
19. Rahmonov N., Sodiqov Q. O‘zbek tili tarixi: filologiya fakultetlari uchun darslik. -T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009.- 224 b.
20. Sanaqulov U. O‘zbek adabiy tili tarixining ilk davrlari. - T., 2004.

21. Sodiqov Q. Uyg‘ur yozuvi tarixidan. - T, 1997.
22. Tursunov U., O‘rinboyev B. O‘zbek adabiy tili tarixi. -T.: O‘qituvchi, 1982.
23. Tursunov U., O‘rinboyev B., Aliyev A. O‘zbek adabiy tili tarixi. (to‘ldirilgan va qayta ishlangan 2-nashri) -T.: O‘qituvchi, 1995. - 264 b.
24. To‘ychiboev B. O‘zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. -T.: O‘qituvchi, 1996 .
25. Qo‘chqortoyev I., Isabekov B. Turkiy filologiyaga kirish. - Toshkent: O‘qituvchi, 1984. - 112 b.
26. Yigitaliyev U.S. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. - T.: Adabiyot uchqunlari, 2016. -100 b.

INTERNET SAYTLARI:

<https://ru.wikipedia.org/wiki/turkologyiling-ran.ru> > library
tapemark.narod.ru > les
www.ayk.gov.tr > wp-content > uploads >2015/01 > N... [cyberleninka.ru>article > vostokovedenie-tyurkologiya...](http://cyberleninka.ru/article/vostokovedenie-tyurkologiya) www.orientalstudies.ru > rus > images > pdf > p turcol... www.researchgate.net> publication > 269276636_SOV... www.turcologica.org > istoria-rkt www.turcologica.org> zurnal-rossiiskaat-turkologia kpfu.ru > mezhdunarodnaya-nauchno-prakticheskaya-3...kpfu.ru > mirovaya-tjurkologiyahistory-kazan.ru > v-kurse-sobytiy > fakty-i-komentarii www.booksite.ru > fulltext bigenc.ru > world history > text www.turkologiya.org> ... elibrary.ru > item
archive.nyu.edu > bitstream > isawdca_000751philology.bsu.edu.az > content > istoria kafedri 1062..azertag.az > xeber > ZHurnal_Tyurkologiya_vklyuchen... www.researchgate.net > publication > 269276636 SOV... turkology.ayu.edu.kz > t-rkologija-zhurnalyayu.edu.kz > faculties > philology > turkish-phil www.hse.ru > turkey www.booksite.ru> fulltext cyberleninka.ru > article > ob-uchastii-turkmenskoy-del... www.turcologica.org > istoria-rkt turkology.ayu.edu.kz > t-rkologija-zhurnalyayu.edu.kz

MUNDARIJA

So'z boshi	3
Qadimgi turkiy yozma manbaları.Grafika	4
Qadimgi turkiy til fonetikasi: unli va undoslar tizimi.	17
Qadimgi turkiy til leksikasi	23
Qadimgi turkiy til morfologiyasi: ot so‘z turkumi	32
Qadimgi turkiy til morfologiyasi: sifat, son, olmosh so‘z turkumlari	41
Morfologiya. Fe'l so'z turkumi.....	52
Qadimgi turkiy til davrida ravish so'z turkumi.....	62
Qadimgi turkiy til davrida yordamchi so‘zlar	67
Qadimgi turkiy tilda gap qurilishi.....	72
Glossariy	83
Test savollari	85
Foydalanilgan o'quv va ilmiy adabiyotlar	99
Internet saytlari	100